Gruziya	«Leave no trace» milliy kampaniyasi; qo‘riqxonalar agentligi mustaqillashtirish; onlayn bron tizimi	3 yilda ekologik sayyohlar 3 barobar oshdi	Mintaqaviy raqobatchi — lekin birgalikda marketing (joint marketing) imkoniyati

XULOSA

Ushbu tadqiqot "Yangi O‘zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ekologik turizmni rivojlantirishning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari tizimli va integrallashgan tarzda tahlil qilinishini zarur ekanligini ko‘rsatdi. Asosiy xulosalar quyidagicha:

–Birinchidan, O‘zbekiston ekologik turistik resurslar salohiyati jihatidan Markaziy Osiyo mintaqasida raqobatdosh pozitsiyani egallash imkoniga ega, biroq bu salohiyatning hozirgi o‘zlashtirish darajasi (4–6%) jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan (12–14%) sezilarli past;

–Ikkinchidan, mavjud iqtisodiy mexanizmlar — soliq imtiyozlari, PPP, klaster modeli — kontseptual jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan, ammo ularning tatbiq etilishida koordinatsiya, axborot va byurokratik to‘siqlar samaradorlikni pasaytirmoqda;

–Uchinchidan, institutsional bo‘shliqlar — tartibga solish tarqoqligi, milliy sertifikatsiya standartlarining yo‘qligi, mahalliy jamoalar ishtiroki mexanizmlarining sayozligi — tizimli muammoni yuzaga keltirmoqda;

–To‘rtinchidan, raqamli transformatsiya ekologik turizm institutsional arxitekturasini tubdan o‘zgartirish imkonini beradi — bu imkoniyatdan O‘zbekiston hali etarli darajada foydalanmayapti.

Ekologik turizmning 2030-yilga kelib YaIMdagi ulushini 0.22% dan 0.8–1.0% gacha oshirish maqsadiga erishish uchun iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni bitta integrallashgan tizimda birlashtirish, xalqaro tajribadan maqsadli foydalanish va mahalliy jamoalarni sohaning asosiy benefitsiarlari sifatida ko‘rish zarurdir. Bu yo‘l nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki O‘zbekistonda barqaror rivojlanishning haqiqiy modelini joriy etadi.

Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi yo‘nalishlar: Ushbu maqolada asosan makroiqtisodiy va institutsional darajaga e’tibor qaratildi. Kelajakdagi tadqiqotlarda mikro-darajadagi tahlil — individual eko-korxona darajasidagi biznes-modellari, mahalliy aholi turmush darajasiga ta’sir va biodiversitasning saqlanishiga ekologik turizmning o‘zaro bog‘liq ta’siri o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni «Yangi O‘zbekiston — 2030 taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» (2022-yil 28-yanvar). — Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5285-sonli Qarori «O‘zbekistonda ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (2021-yil 4-oktabr). — Toshkent.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Maxsus muhofaza etiladigan tabiiy

hududlar to‘g‘risida»gi Qonuni. — Toshkent, 2004.
4. Ceballos-Lascurain, H. (1987). The future of «ecotourism». Mexico Journal, 13(17), 13–14.
5. Coase, R. H. (1960). The Problem of Social Cost. Journal of Law and Economics, 3, 1–44.
6. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.
7. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review, 68(2), 73–93.
8. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations.
9. UNWTO (2023). Ecotourism and Protected Areas. World Tourism Organization. Madrid.
10. Mirzaev, A. (2023). O‘zbekistonda hududiy turizm rivojlanishining institutsional asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4, 112–128.
11. Yusupov, B., Xolmatov, I. (2021). Ekologik turizm: O‘zbekiston tajribasi va rivojlantirish istiqbollari. O‘zbekistonda bozor islohotlari jurnali, 2, 44–59.
12. Honey, M. (2008). Ecotourism and Sustainable Development (2nd ed.). Island Press, Washington D.C.
13. Wearing, S., Neil, J. (2009). Ecotourism: Impacts, Potentials and Possibilities (2nd ed.). Butterworth-Heinemann.
14. O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi (2024). Turizm statistikasi yilnomasi 2023. — Toshkent.
15. World Bank (2024). Uzbekistan Country Economic Memorandum. — Washington D.C.
16. Turizm va sport vazirligi (2024). Ekologik turizm rivojlantirish dasturi bajarilishi monitoringi hisoboti. — Toshkent.
17. Asian Development Bank (2023). Uzbekistan: Tourism Sector Development Program. ADB Report. — Manila.
18. Global Green Growth Institute (2023). Green Tourism Finance Framework — Uzbekistan. — Seoul.

MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND INSTITUTIONAL REFORMS WITHIN THE FRAMEWORK OF THE “NEW UZBEKISTAN – 2030” STRATEGY

Ulashov Aliboy Rashid ugli
senior teacher of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: aliboyulashov623@gmail.com
Saparbayev Sultanbek
Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: S2524797@gmail.com

The New Uzbekistan 2030 Strategy is an important long-term development program created to transform the economy of Uzbekistan and improve the quality of life of its citizens by the year 2030. The strategy focuses on strengthening economic stability, increasing national income, and building a modern

and competitive economy. It aims to introduce large-scale reforms in many sectors such as industry, infrastructure, energy, and international trade.

Table 1

Key Strategic Economic Targets of Uzbekistan–2030

Indicator	2024 Level	2030 Target	Expected Increase
GDP (USD billion)	95	160	+68%
Annual FDI Inflows (USD billion)	8	18	+125%
Infrastructure Investment (USD billion)	12	25	+108%
Renewable Energy Capacity (GW)	3	12	+300%
Export Volume (USD billion)	23	45	+96%
Industrial Growth Rate (%)	5.5%	9%	+63%

The table presents key economic indicators and targets of the “New Uzbekistan – 2030” Strategy. It shows that Uzbekistan plans significant economic growth by 2030. GDP is expected to increase from 95 to 160 billion USD, while foreign direct investment inflows may rise from 8 to 18 billion USD**.**

One of the main goals of the strategy is to significantly increase the country’s gross domestic product (GDP). Economic growth will be achieved through industrial expansion, the development of new businesses, and support for private entrepreneurship. A stronger economy will create more job opportunities, increase wages, and improve social welfare for the population.

Another key objective is attracting more foreign direct investment. The government plans to improve the investment climate by simplifying regulations, reducing bureaucratic barriers, and strengthening the legal protection of investors. These reforms will help bring new technologies, management experience, and financial resources into the national economy.

Energy development, especially renewable energy, is another important direction of the strategy. Uzbekistan plans to increase the share of renewable energy sources such as solar and wind power. Expanding clean energy production will help ensure energy security, reduce environmental pollution, and support sustainable development.

Another important direction is institutional reform aimed at increasing government efficiency, transparency, and accountability. The strategy emphasizes strengthening the rule of law, improving public administration, and fighting corruption. It also prioritizes the development of human capital by improving education, healthcare, and social protection systems. These reforms are intended to create sustainable economic growth and improve the quality of life for citizens in Uzbekistan by 2030.

Innovation and digital transformation are also essential parts of the strategy. The development of information technologies, digital services, and modern communication systems will improve the efficiency of government services and support business development. Digital transformation will also help integrate Uzbekistan into the global digital economy.

Education and human capital development play a crucial role in achieving the goals of the strategy. Improving the quality of education, supporting research institutions, and developing professional training programs will help prepare qualified specialists for modern industries. A skilled workforce is necessary for

technological progress and economic growth.

Regional development is another important aspect of the strategy. The government plans to reduce economic differences between regions by supporting local industries, improving infrastructure, and creating new employment opportunities in rural areas. Balanced regional development will contribute to social stability and economic equality.

Infrastructure development is another major priority of the “New Uzbekistan – 2030” Strategy. Large-scale transport, logistics, and energy projects are being implemented to improve connectivity within the country and with international markets. Academic research on these projects highlights both the opportunities and the potential risks associated with long-term infrastructure initiatives. Effective institutional management, transparent governance, and careful financial planning are essential for ensuring that these projects contribute to sustainable economic growth.

To successfully implement the strategy, several recommendations can be considered. It is important to continue improving the business environment, encourage innovation, and support small and medium-sized enterprises. Increasing cooperation with international organizations and foreign partners will also help attract investment and new technologies.

Furthermore, the government should invest more in education, research, and technological development. Supporting startups and innovative companies can accelerate economic modernization. Developing a strong innovation ecosystem will help Uzbekistan compete in the global economy.

In addition, improving the investment climate remains one of the most significant goals of the strategy. Institutional reforms aimed at protecting property rights, simplifying business regulations, and strengthening financial institutions are intended to attract both domestic and foreign investors. Economic research emphasizes that a stable legal environment and transparent governance mechanisms are crucial for building investor confidence.

One of the primary recommendations is to continue improving the business environment in Uzbekistan. Simplifying administrative procedures, reducing bureaucracy, and strengthening legal protection for investors will encourage both domestic and foreign investment. A stable and predictable business environment will foster entrepreneurship and stimulate economic growth. Expanding access to quality education, vocational training, and professional development programs will ensure that citizens have the skills required for modern industries and emerging technologies.

Overall, the economic and institutional reforms within the framework of the “New Uzbekistan – 2030” Strategy represent a comprehensive effort to modernize the country’s economic system and strengthen its institutional foundations. By focusing on infrastructure development, institutional modernization, sustainable economic growth, and regional integration, Uzbekistan aims to establish a resilient and competitive economy capable of adapting to global challenges. The perspectives presented in academic research demonstrate that the success of these reforms depends on consistent policy implementation, effective institutional governance, and active participation in the global and regional economic systems.

REFERENCES:

1. Abdunazarov, S. P. (2025). UZBEKISTAN’S ROLE IN THE GLOBAL ECONOMY: PROSPECTS AND CHALLENGES OF THE CONSTRUCTION INDUSTRY. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(10), 257-277.
2. Kamaev, A. (2025). *Infrastructure Projects in Uzbekistan: Analyzing opportunities & risks in the context of the 2030 Strategy* (Doctoral dissertation, Politecnico di Torino).
3. Fayziyevich, R. A., Ugli, S. T. B., Ruzimovna, B. M., Azimovna, A. K., Najafov, R., & Asadov, K. (2025). European Economic Integration and the Future of Uzbekistan’s State Enterprises: Strategic Reforms, Institutional Convergence, and New Opportunities for Sustainable Growth. *Institutional Convergence, and New Opportunities for Sustainable Growth (November 20, 2025)*.
4. Сембаева, Ж. С. (2025). EMERGING GREEN AND DIGITAL SUSTAINABLE MARKETS IN CENTRAL ASIA: A COMPARATIVE ANALYSIS OF KAZAKHSTAN AND UZBEKISTAN WITHIN CHINA’S BRI FRAMEWORK. *Известия. Серия: Международные отношения и регионоведение*, *61*(3).
5. Masharipov, J., & Khasanov, U. (2025). " Uzbekistan-2030": A Dual Pursuit of Economic Diplomacy and Regional Integration for Sustainable Development in Central Asia. *Journal of Central Asian Studies*, *23*(3), 74-89.

YANGI O‘ZBEKISTON — 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TURISTIK MARSHRUT DIVERSIFIKATSIYASINING ISTIQBOLLARI VA IMKONIYATLARI

Salimova Sarvinoz Fazliddin qizi
Buxoro davlat universiteti, “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi” kafedrasi tayanch doktoranti
e-mail: sara.salimova.92@gmail.com

Kirish. Bugungi kunda jahon turizm industriyasida raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri turistik marshrut tizimlarini diversifikatsiyalash hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida qabul qilingan bo‘lib, unda turizm sohasini jadal rivojlantirish, xalqaro turistlar oqimini oshirish hamda hududiy turizm infratuzilmasini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[26]. Shu sababli, turistik marshrutlarni diversifikatsiyalash masalasini nazariy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi kontekstida turistik marshrut diversifikatsiyasining nazariy asoslarini tizimlashtirish, uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdir.

[26]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida".

Asosiy qism. Turistik marshrut diversifikatsiyasi tushunchasi iqtisodiyot fanidagi umumiy diversifikatsiya nazariyasiga tayanadi. I. Ansoff tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot-bozor matritsa modeli turizmga tatbiq etilganda, mavjud hududlarda yangi turdagi marshrutlarni joriy etish (mahsulot diversifikatsiyasi) yoki mavjud marshrut turlarini yangi geografik hududlarga kengaytirish (bozor diversifikatsiyasi) strategiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin[27]. M. Porter ning raqobatbardoshlik nazariyasi esa turistik marshrutlar tizimidagi klaster yondashuvining nazariy asosini tashkil etadi: bir hududdagi bir-birini to‘ldiruvchi turistik obyektlar, transport aloqalari va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi birgalikda sinergik samaraga erishadi[28].

R. Butler ning turistik hududlar hayot sikli modeli (TALC) diversifikatsiya zaruratini vaqt o‘lchami orqali tushuntiradi: har qanday turistik marshrut yoki hudud ma‘lum bosqichlardan — kashfiyot, rivojlanish, mustahkamlanish, to‘xtash va tanazzul yoxud qayta tiklanish — o‘tadi[29]. Diversifikatsiya aynan to‘xtash va tanazzul bosqichlarida hududning qayta tiklanishini ta’minlovchi strategik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun turistik mahsulot va marshrut tushunchalarini farqlash diversifikatsiya strategiyasini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi[30].

Yevropa tajribasida madaniy marshrutlar diversifikatsiyasining samarali modellarini kuzatish mumkin. Yevropa Kengashining Madaniy marshrutlar dasturi doirasida 40 dan ortiq transchegaraviy marshrut ro‘yxatga olingan bo‘lib, ular diniy ziyorat, gastronomik turizm, sanoat merosi va tabiat marshrutlari kabi turli segmentlarni qamrab oladi[31]. Ispaniyaning Camino de Santiago tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bitta asosiy marshrutni filial marshrut tarmoqlariga kengaytirish turistlarning hududiy taqsimlanishini yaxshilaydi va periferiya hududlariga iqtisodiy foyda oqimini ta″minlaydi[32]. G. Richards ta‘kidlaganidek, madaniy turizm marshrutlari mahalliy identitetni mustahkamlash va mintaqaviy brendni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi[33]. Butun jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ham barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda turistik marshrut diversifikatsiyasining muhim ahamiyatini alohida qayd etgan[34].

Nazariy jihatdan turistik marshrut diversifikatsiyasi bir nechta muhim tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, resurs potentsialining to‘liq ishga tushirilishi — mavjud tarixiy, madaniy, tabiiy va gastronomik resurslarning marshrut tizimiga integratsiyalashuvi. Ikkinchidan, mavsumiylik muammosini yumshatish — yil davomida turli turdagi marshrutlarni taklif etish orqali turistik oqimning bir tekis taqsimlanishiga erishish. Uchinchidan, hududiy muvozanatni ta’minlash — asosiy

[27]Ansoff H.I. Strategies for Diversification // Harvard Business Review. — 1957. — Vol. 35(5). — P. 113–124.
[28]Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990. — P. 71–128.
[29]Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution // Canadian Geographer. — 1980. — Vol. 24(1). — P. 5–12.
[30]Salimova S.F. Turistik mahsulot va tur marshrut tushunchalarining qiyosiy tahlili // Raqamli iqtisodiyot. — 2024. — №8. — B. 561–575.
[31]Council of Europe. Cultural Routes Programme. — Strasbourg, 1987.
[32]Murray M., Graham B. Exploring the Dialectics of Route-based Tourism: The Camino de Santiago // Tourism Management. — 1997. — Vol. 18(8). — P. 513–524.
[33]Richards G. Cultural Tourism: Global and Local Perspectives. — New York: Routledge, 2007. — P. 1–24.
[34]UNWTO. Tourism and the Sustainable Development Goals — Journey to 2030. — Madrid: UNWTO, 2018.

turistik markazlardan tashqaridagi hududlarni marshrut tizimiga jalb etish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni tenglashtirish. To‘rtinchidan, jamoaviy ishtirok (community-based tourism) — mahalliy aholining marshrut yaratish va xizmat ko‘rsatish jarayonlariga faol jalb etilishi[35].

O‘zbekiston kontekstida Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi turistik marshrut diversifikatsiyasi uchun muhim institutsional asos yaratadi. N.S. Ibragimov ta‘kidlaganidek, turizm iqtisodiyotida samaradorlikka erishish uchun marshrut tizimini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda diversifikatsiyalash zarur[36]. I.S. Tuxliyev va R.R. Hayitboyev esa O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilib, ichki turizm va hududiy marshrut tarmoqlarini kengaytirishni strategik vazifa sifatida belgilagan[37]. B.N. Navruz-Zoda tomonidan ishlab chiqilgan turistik klasterlarni shakllantirish metodologiyasi esa marshrut diversifikatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini asoslashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[38].

Bugungi kunda O‘zbekistonda turistik oqimning asosan Samarqand–Buxoro–Xiva uchburchagiga to‘planishi hududiy nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Diversifikatsiya strategiyasi aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lib, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg‘ona vodiysi, Qoraqalpog‘iston kabi hududlarning turistik potentsialini ochish imkonini beradi.

Xulosa. Turistik marshrut diversifikatsiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki hududiy muvozanatni ta’minlash, madaniy merosni saqlash va mahalliy aholining farovonligini yaxshilash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda turistik marshrut tizimini diversifikatsiyalash muhim strategik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli diversifikatsiya uchun klaster yondashuvi, jamoaviy ishtirok tamoyillari va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi zarur. O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, xilma-xil tabiiy landshaftlari va geografik joylashuvi marshrut diversifikatsiyasi uchun katta imkoniyatlar zaxirasini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida".

2. Ansoff H.I. Strategies for Diversification // Harvard Business Review. — 1957. — Vol. 35(5). — P. 113–124.

3. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.

4. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution // Canadian Geographer. — 1980. — Vol. 24(1). — P. 5–12.

5. Council of Europe. Cultural Routes Programme. — Strasbourg, 1987.

[35]Khairiree K. Community-Based Tourism: Theory and Practice. — Bangkok: NIDA, 2016. — P. 33–48.
[36]Ibragimov N.S. Turizm iqtisodiyoti va menejment asoslari. — Buxoro: BuxDU, 2021. — B. 45–67.
[37]Tuxliyev I.S., Hayitboyev R.R. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. — B. 112–130.
[38]Navruz-Zoda B.N. Turistik klasterlarni shakllantirish metodologiyasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2020. — №2. — B. 34–42.

6. Murray M., Graham B. Exploring the Dialectics of Route-based Tourism: The Camino de Santiago // Tourism Management. — 1997. — Vol. 18(8). — P. 513–524.

7. Kim S., Yoon Y. The Hierarchical Effects of Affective and Cognitive Components on Tourism Destination Image // Journal of Travel & Tourism Marketing. — 2003. — Vol. 14(2). — P. 1–22.

8. Kato K., Progano R.N. Spiritual (Pilgrimage) Tourism as a Component of Sustainable Tourism // Tourism Planning & Development. — 2017. — Vol. 14(2). — P. 265–282.

9. UNWTO. Tourism and the Sustainable Development Goals — Journey to 2030. — Madrid: UNWTO, 2018.

10. Ibragimov N.S. Turizm iqtisodiyoti va menejment asoslari. — Buxoro: BuxDU, 2021.

11. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R.R. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

12. Navruz-Zoda B.N. Turistik klasterlarni shakllantirish metodologiyasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2020. — №2. — B. 34–42.

13. Salimova S.F. Turistik mahsulot va tur marshrut tushunchalarining qiyosiy tahlili // Raqamli iqtisodiyot. — 2024. — №8. — B. 561–575.

14. Richards G. Cultural Tourism: Global and Local Perspectives. — New York: Routledge, 2007.

15. Khairiree K. Community-Based Tourism: Theory and Practice. — Bangkok: NIDA, 2016.

HUDUDLARDA PARRANDACHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY–IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shermatov Abbos Jumayevich
Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Yangiyer filiali
Stajyor-o‘qituvchisi
e-mail: **shermatovabbos750@gmail.com**

Annotatsiya. Ushbu tezis Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi doirasida hududlarda parrandachilikni rivojlantirishning tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tahlil qiladi. Parrandachilik oziq-ovqat xavfsizligi, bandlik va eksport salohiyatini oshirishda muhim agrar tarmoq hisoblanadi. Strategiya doirasida hududiy iqtisodiy rivojlanish, klasterlashuv va institutsional islohotlar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Tadqiqotda investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarish ko‘rsatkichi, mehnat unumdorligi va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik usullar orqali baholandi. Korrelatsiya va regressiya natijalari investitsiya va institutsional qo‘llab-quvvatlash rentabellikni sezilarli oshirishini ko‘rsatdi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, hududlarda kooperatsiya, klaster tizimi va kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish samaradorlikni kuchaytiradi. Ish yakunida parrandachilikni barqaror rivojlantirish bo‘yicha aniq tashkiliy–iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Parrandachilik, strategiya, investitsiya, klaster, institutsiya, rentabellik, hudud

Kirish. Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi mamlakatda iqtisodiy va institutsional islohotlarni chuqurlashtirishni ko‘zda tutadi. Ushbu strategiyada hududiy rivojlanish va agrar tarmoqlarni modernizatsiya qilish muhim o‘rin egallaydi. Parrandachilik oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorni barqarorlashtirishda strategik tarmoq hisoblanadi. Aholi sonining o‘sishi oqsil mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Shu sababli hududlarda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tarmoqni rivojlantirish uchun samarali tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlar zarur. Klaster tizimi, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va logistika infratuzilmasi asosiy omillardandir. Institutsional muhitning yaxshilanishi investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Hududlar kesimida ishlab chiqarish salohiyati turlicha bo‘lgani sababli differensial yondashuv talab etiladi. Mazkur ish parrandachilikni rivojlantirish mexanizmlarini iqtisodiy-statistik asosda tahlil qiladi.

1-jadval

Hududiy parrandachilik ko‘rsatkichlari

Yil	INV (mlrd so‘m)	PROD (ming tonna)	LAB (mln so‘m/ishchi)	ROI (%)
2014	320	210	38	8.5
2016	410	260	45	9.2
2018	560	315	53	10.6
2020	740	390	64	12.1
2022	910	470	76	13.4
2024	1120	560	89	15.2

Korrelatsiya: r(ROI, INV)=0.95; r(ROI, PROD)=0.93; r(ROI, LAB)=0.97

Regressiya modeli: ROI = 2.14 + 0.006·INV + 0.021·PROD + 0.087·LAB; R^2=0.96

Tahlil va natijalar. adval ma’lumotlari investitsiyalar hajmi 2014–2024 yillarda 3,5 barobarga oshganini ko‘rsatadi. Shu davrda ishlab chiqarish hajmi ham 210 ming tonnadan 560 ming tonnagacha ko‘tarilgan. Mehnat unumdorligi 38 mln so‘mdan 89 mln so‘mgacha oshgan. Rentabellik esa 8,5 foizdan 15,2 foizgacha yetgan. Bu ko‘rsatkichlar institutsional islohotlar samaradorligini tasdiqlaydi. Korrelatsiya natijalariga ko‘ra, rentabellik bilan investitsiya o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Mehnat unumdorligi rentabellikka eng kuchli ta’sir ko‘rsatgan omil hisoblanadi. Bu inson kapitalining ahamiyatini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish hajmining oshishi ichki bozor ta’minotini mustahkamladi. Investitsiyalarning ko‘payishi yangi texnologiyalarni joriy etishga imkon berdi. Regressiya modelida LAB koeffitsienti eng yuqori chiqdi. Bu malakali kadrlar va boshqaruv sifati daromadlilikni oshirishini anglatadi. INV koeffitsienti ham ijobiy va statistik ahamiyatli hisoblanadi. Bu kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy natijadorligini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish hajmi ham ROI ga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Modelning R^2 = 0.96 bo‘lishi natijalar ishonchliligini bildiradi. Tahlil hududiy klasterlashuv mexanizmi samarali ekanini ko‘rsatdi. Logistika va qayta ishlash infratuzilmasi ham foyda darajasiga ta’sir qiladi. Kredit va subsidiyalar investitsion riskni kamaytiradi. Umuman olganda, tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish hududiy parrandachilik samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi parrandachilikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Hududiy rivojlanish siyosati tarmoq samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarishni kengaytiradi. Institutsional islohotlar rentabellikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Klaster tizimi ishlab chiqarish zanjirini optimallashtiradi. Mehnat unumdorligi asosiy strategik omil hisoblanadi. Kredit va subsidiya mexanizmlari investitsiya oqimini rag‘batlantiradi. Raqamli monitoring va logistika tizimlari samaradorlikni kuchaytiradi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi zarur. Umuman, tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish parrandachilikning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari (2014–2024).
3. FAO (2023). Poultry Sector Development Report.
4. World Bank (2023). Agricultural Modernization in Emerging Economies.
5. OECD (2022). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation.
6. UNIDO (2022). Industrial Development Report.
7. IMF (2023). Investment and Productivity in Transition Economies.
8. EBRD (2022). Transition Report: Innovation and Regional Development.

EFFICIENT MARKET HYPOTHESIS AND ITS LIMITATIONS IN MODERN FINANCE

Ulashov Aliboy Rashid o‘g‘li
Senior teacher of Tashkent State University of Economics
e-mail: aliboyulashov623@gmail.com
Komilova Sevara Fazliddin qizi
Student at Tashkent State University of Economics
e-mail: Sevarakamilova25@gmail.com

Abstract. *The Efficient Market Hypothesis (EMH) posits that asset prices fully reflect available information, limiting abnormal returns. However, empirical evidence, behavioral factors, and technological advances challenge its validity. This study, based on a qualitative review of existing literature, finds that market efficiency is variable and influenced by structural and behavioral factors. It concludes that EMH remains a useful benchmark but should be complemented by adaptive frameworks such as the Adaptive Market Hypothesis.*

Keywords: *Efficient Market Hypothesis; Market Efficiency; Behavioral Finance; Adaptive Market Hypothesis; Financial Markets*

Introduction . The Efficient Market Hypothesis (EMH) is a foundational concept in finance, introduced by Eugene Fama (1970), which states that financial markets are informationally efficient and that asset prices reflect all available information. As a result, investors cannot consistently achieve abnormal returns without assuming higher risk. This theory is rooted in neoclassical economics, which assumes rational investors, perfect competition, and equilibrium-driven markets [39].

[39] Fakhry, B. (2016) *A Literature Review of the Efficient Market Hypothesis.* Turkish Economic Review.

Fama’s theory further implies that price changes follow a random pattern due to the unpredictable arrival of new information, making market movements difficult to forecast. This idea supports passive investment strategies, as attempting to outperform the market becomes ineffective (Nyakurukwa and Seetharam, 2023) .

Despite its theoretical importance, EMH has been widely debated. Empirical anomalies, financial crises, and behavioral factors suggest that markets do not always operate efficiently. This study aims to critically evaluate EMH and examine its limitations in modern financial markets.

Literature Review. The literature on the Efficient Market Hypothesis (EMH) provides mixed evidence. While early studies support the idea that asset prices reflect available information, more recent research shows that market efficiency varies across markets and over time (Nunes, 2025).

Behavioral finance challenges EMH by demonstrating that investor biases, such as overconfidence and loss aversion, can lead to mispricing and anomalies. Additionally, studies using machine learning suggest limited predictability in financial markets, questioning strict efficiency (Aminimehr et al., 2022). As a result, alternative frameworks, particularly the Adaptive Market Hypothesis, argue that market efficiency is dynamic and evolves with changing conditions [40].

Methodology. This study adopts a qualitative, literature-based approach, relying on the analysis of existing research rather than original empirical testing. It reviews prior studies on market efficiency, including statistical methods such as autocorrelation and variance ratio tests [41], as well as recent research using machine learning techniques (Aminimehr et al., 2022).

The study also considers alternative theories, including behavioral finance and adaptive frameworks, to provide a broader understanding of financial market dynamics.

Results . The findings indicate that EMH holds only partially and varies across markets and time.Some studies support weak-form efficiency, particularly in developed markets, where price movements appear random (Nunes, 2025). However, other research identifies predictable patterns, especially in emerging markets, suggesting that inefficiencies persist.

Behavioral finance provides strong evidence against the assumption of rational investors. Market participants are influenced by biases such as overconfidence and loss aversion, leading to mispricing and anomalies (Fakhry, 2016).

Recent advancements in machine learning further challenge EMH. Models such as neural networks reveal that financial data may contain patterns that allow limited predictability, even if consistent outperformance remains difficult [42].Moreover, alternative theories highlight additional limitations of EMH. For instance, behavioral finance and noise trader models show that investor sentiment

[40] Ovidius University Annals (2021) *Efficient Market Hypothesis and Alternative Theories.*

[41] Nunes, R. (2025) *The Efficient Market Hypothesis as an Extension of Neoclassical Theory.* Journal of Economics, Finance and Accounting Studies.

[42] Aminimehr, A. et al. (2022) *A Comprehensive Study of Market Prediction from Efficient Market Hypothesis up to Late Intelligent Market Prediction Approaches*

can influence prices, while arbitrage is often limited and cannot fully correct mispricing [43].

The Adaptive Market Hypothesis suggests that efficiency evolves over time depending on competition, market conditions, and investor behavior, rather than remaining constant.

Discussion. The results highlight several limitations of EMH. First, the assumption of fully rational investors is unrealistic. Real-world decision-making is influenced by psychological factors, which leads to systematic deviations from efficiency.

Second, EMH assumes that information is instantly and equally available to all market participants. In practice, information asymmetry, transaction costs, and institutional constraints distort price formation.

Third, empirical anomalies such as momentum effects and excess volatility contradict the idea that markets always reflect true value.

Fourth, alternative frameworks provide a more realistic understanding of financial markets. Behavioral finance emphasizes investor psychology, while theories such as the Fractal Market Hypothesis and Heterogeneous Market Hypothesis highlight differences in investor behavior and time horizons. These approaches suggest that markets are complex, dynamic systems rather than perfectly efficient structures (Nyakurukwa and Seetharam, 2023) .

Finally, the Adaptive Market Hypothesis offers a balanced perspective by integrating elements of EMH and behavioral finance, suggesting that efficiency changes over time as markets evolve.

Conclusion. The Efficient Market Hypothesis remains a key theoretical framework in finance, providing a benchmark for understanding asset pricing. However, its strict assumptions limit its applicability in real-world markets.

Empirical evidence, behavioral insights, and technological advancements demonstrate that financial markets are not perfectly efficient. Instead, they exhibit varying levels of efficiency influenced by psychological, structural, and technological factors.

Therefore, EMH should be viewed as a theoretical ideal rather than a complete explanation of market behavior. Modern finance requires adaptive and interdisciplinary approaches, such as the Adaptive Market Hypothesis, to better capture the complexity of financial markets

References:

1. Aminimehr, A. et al. (2022) A Comprehensive Study of Market Prediction from Efficient Market Hypothesis up to Late Intelligent Market Prediction Approaches.

2. Fakhry, B. (2016) A Literature Review of the Efficient Market Hypothesis. Turkish Economic Review.

3. Nyakurukwa, K. and Seetharam, Y. (2023) Alternatives to the Efficient Market Hypothesis: An Overview.

4. Nunes, R. (2025) The Efficient Market Hypothesis as an Extension of

[43] Nyakurukwa, K. and Seetharam, Y. (2023) *Alternatives to the Efficient Market Hypothesis: An Overview*

Neoclassical Theory. Journal of Economics, Finance and Accounting Studies.

5. Ovidius University Annals (2021) Efficient Market Hypothesis and Alternative Theories.

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Ismoilov Narimonjon No‘monjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
“Biznes Boshqaruvi” kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: ismoilov.tsue@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida kichik biznesda transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu jarayon raqobatbardoshlikni kuchaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda kichik biznesning YaIMdagi ulushni oshirishga xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, transport-logistika, raqamli logistika, infratuzilma, innovatsiya, strategiya, samaradorlik.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz va jahon iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari iqtisodiy o‘sishning muhim poydevori sifatida e’tirof etilmoqda. Ular bandlikni ta’minlash, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan boyitish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ularning muvaffaqiyatli faoliyati va natijadorligi ko‘p jihatdan transport-logistika tizimining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishda transport-logistika tizimining ahamiyati yuqori ekanligi bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Martin Kristoferning fikricha, hozirda bozorlarda alohida korxonalar emas, balki ta’minot zanjirlari o‘zaro raqobatlashadi. Shu bois logistika moslashuvchanligi kichik biznes uchun ustunlikka erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [1]. Bundan tashqari, G.N. Boboxo‘jayev o‘zining “O‘zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirishda logistikaning o‘rni” nomli maqolasida transport-logistika tizimini shunchaki qo‘llab-quvvatlanishi kerak bo‘lgan yo‘nalish emas, balki strategik ahamiyatga ega vosita sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, ushbu xizmatlardan samarali foydalanish kichik biznes subyektlariga ichki va tashqi bozorlarda o‘z mavqeini mustahkamlashga imkon yaratadi**[2]**. U.V. G‘ofurov ham transport va logistika infratuzilmasini tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, kichik biznes faoliyatining samaradorligi transport, moliyaviy va axborot infratuzilmalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, logistika xizmatlari mahsulot harakatining uzluksizligini ta’minlaydi hamda bozor aloqalarini mustahkamlaydi[3].

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan muhim strategik hujjat hisoblanadi. Bu strategiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom

ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asoslanadi[4]. Unda kichik biznesni rivojlantirish hamda transport-logistika tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Kichik biznes subyektlari uchun transport-logistika tizimi nafaqat tovarlarni yetkazib berish vositasi, balki raqobat ustunligini ta’minlovchi muhim strategik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan takliflar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Farmonga muvofiq, 2030-yilgacha kichik biznesning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushini 60 foizga yetkazish vazifasi belgilangan bo‘lib, bu ushbu sohaga davlat darajasida katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Bu maqsadga erishish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bunda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda mas’ul tashkilotlar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

Kichik biznesda transport-logistika tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari[5]

Ustuvor yo‘nalishlar	Amalga oshirish choralari
Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish	avtomobil va temir yo‘l tarmoqlarini kengaytirish, logistika markazlari va terminallarni tashkil etish, multimodal transport tizimini rivojlantirish
Raqamli logistika tizimlarini joriy etish	elektron logistika platformalarini yaratish, GPS monitoring tizimlarini keng qo‘llash, “aqlli ombor” (smart warehouse) texnologiyalarini joriy etish
Logistika xarajatlarini optimallashtirish	yuklarni konsolidatsiya qilish, optimal marshrutlash tizimlarini qo‘llash, transport xizmatlarini autsorsing qilish
Logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish	3PL va 4PL xizmatlarini kengaytirish, xususiy logistika kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes uchun maxsus xizmatlarini yaratish

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ustuvor yo‘nalishlar kichik biznes subyektlarida transport-logistika tizimini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Logistika xizmatlari bozorining rivojlanishi xizmatlar sifati va xilma-xilligini kengaytiradi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish esa boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirib, samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Natijada, ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi mahsulotlarni yetkazib berish muddatini qisqartiradi, umumiy natijadorlikni oshiradi hamda kichik biznesning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Bu esa iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur’atlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda transport-logistika tizimini rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud. Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport xarajatlarining yuqoriligi, raqamli tizimlarning sust joriy etilishi hamda malakali kadrlar yetishmasligi asosiy to‘siqlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Quyidagi 3-jadvalda mavjud muammolar va ularning soddalashtirilgan yechimlari keltirilgan. Jadvalda keltirilgan muammolarni bartaraf etish, avvalo, infratuzilmani yangilash, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hamda inson kapitalini rivojlantirish

bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, yo‘l va ombor tizimlarining kengaytirilishi yuk tashish jarayonlarini jadallashtiradi, xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan choralar esa tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

2-jadval

Transport-logistika tizimini rivojlantirishdagi muammolar va ularning yechimlari[6]

Muammo	Yechimi (soddalashtirilgan)
Logistika infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan	- yangi yo‘llar va omborlarni barpo etish, - logistika markazlari sonini oshirish
Transport xarajatlari yuqori	- sarf-xarajatlarni qisqartirish choralarini ko‘rish - energiya tejamkor transport vositalaridan foydalanish
Raqamli tizimlardan foydalanish darajasi past	- onlayn logistika platformalarini joriy etish, - elektron hujjat aylanishini kengaytirish
Malakali mutaxassislar yetishmaydi	- logistika sohasida ta’limni rivojlantirish, - amaliy treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish

Shuningdek, raqamli yechimlarning keng tatbiq etilishi operatsion jarayonlarni soddalashtirib, axborot almashinuvini tezlashtiradi. Malakali kadrlarni tayyorlash esa tizimning samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Natijada, transport-logistika faoliyati yanada takomillashib, kichik biznesning umumiy samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Xulosa

“Yangi O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida transport-logistika tizimini rivojlantirish kichik biznes subyektlarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda global bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, zamonaviy logistika texnologiyalarini keng joriy etish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nafaqat tadbirkorlik subyektlarining imkoniyatlarini kengaytiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli va barqaror o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Martin Christopher “Logistika va ta’minot zanjiri boshqaruvi” 28-bet, 6-nashr, 2021-yil.

2. G.N. Boboxo‘jayev “O‘zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirishda logistikaning roli” 2022-yil. European Journal of Business Startups and Open Society.

3. U.V. G‘ofurov “Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish” Toshkent. Innovation Press (2017).

4. “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВНУТРЕННИХ СТАНДАРТОВ АУДИТОРСКИХ ФИРМ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Бобонарова Камола
Национальный исследовательский университет “ТИИИМСХ”
направление “Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит”
докторант
bobonarovakamola@gmail.com

В современных условиях углубление рыночных механизмов в Узбекистане, расширение предпринимательской деятельности, улучшение инвестиционной среды и повышение требований к прозрачности финансовой информации усиливают значение аудиторской деятельности. Достоверность финансовой отчетности важна для предприятий, акционерных обществ, банков, страховых организаций и субъектов частного бизнеса. Поэтому аудиторские фирмы выступают не только как проверяющие организации, но и как важный институт обеспечения экономического доверия, прозрачности и финансовой дисциплины.

В Законе Республики Узбекистан от 25 февраля 2021 года № ЗРУ-677 “Об аудиторской деятельности” определены правовые основы регулирования аудита, а также требования, связанные с применением международных стандартов аудита, контроля качества и сопутствующих услуг. Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 апреля 2022 года № 171 утвержден порядок признания международных стандартов аудита для применения на территории Республики Узбекистан. Эти документы усиливают необходимость совершенствования внутренних стандартов аудиторских фирм на основе международных требований.

Внутренние стандарты аудиторских фирм представляют собой систему внутренних нормативных документов, регулирующих порядок проведения аудита, контроль качества, документирование аудиторских доказательств, оценку рисков, работу с клиентом и подготовку аудиторского заключения. Их совершенствование является актуальной научно-практической задачей, так как напрямую связано с качеством аудиторских услуг и институциональным развитием рынка аудита.

Основная функция внутренних стандартов заключается в регулировании всех этапов аудиторского процесса: заключения договора, планирования проверки, оценки рисков, сбора доказательств, документирования результатов, внутреннего контроля качества и подготовки итогового заключения. При отсутствии четких стандартов аудиторы могут опираться на личный опыт и субъективные подходы, что снижает единообразие и качество проверки.

Наличие внутренних стандартов укрепляет внутреннюю систему управления аудиторской фирмы. Например, стандарт по планированию аудита определяет порядок изучения деятельности клиента, запроса документов и разработки аудиторской стратегии. Стандарт по оценке рисков помогает выявлять существенные искажения в финансовой отчетности, оценивать

систему внутреннего контроля и определять объем аудиторских процедур.

Научный анализ показывает, что внутренние стандарты следует рассматривать не как формальный документ, а как практический механизм управления качеством аудита. При их правильной разработке повышается точность сбора, анализа и документирования аудиторских доказательств, а также обоснованность аудиторского заключения. Если же стандарты носят общий характер и не связаны с практикой, аудит может стать формальным, а его результаты недостаточно надежными.

Особое значение имеет порядок документирования аудиторских доказательств. Во внутренних стандартах необходимо четко определить оформление рабочих документов, аналитических таблиц, проверочных листов, подтверждающих материалов и профессиональных суждений аудитора. Это обеспечивает прозрачность аудиторского процесса и создает основу для внутреннего и внешнего контроля качества.

В условиях Узбекистана совершенствование внутренних стандартов требует институционального подхода. Аудиторская деятельность должна рассматриваться во взаимосвязи правовых норм, профессиональных организаций, государственного контроля, международных стандартов, квалификации аудиторов и требований рынка. Поэтому внутренние стандарты должны соответствовать национальному законодательству, международным стандартам аудита и нормам профессиональной этики.

При совершенствовании внутренних стандартов необходимо прежде всего обеспечить их соответствие международным стандартам аудита. В частности, следует пересмотреть порядок планирования аудита, определения существенности, применения риск-ориентированного подхода, оценки аудиторских доказательств, использования выборки и подготовки аудиторского заключения. Также важно учитывать цифровизацию: электронные счета-фактуры, онлайн-платежи, бухгалтерские программы и цифровая налоговая отчетность требуют закрепления во внутренних стандартах правил работы с электронными документами и цифровыми данными.

С практической точки зрения каждая аудиторская фирма должна сформировать реестр внутренних стандартов. В нем следует указывать действующие стандарты, дату их принятия, ответственных лиц, сроки обновления и состояние практического применения. Также целесообразно внедрить лист внутреннего контроля качества аудита, где фиксируются изучение клиента, оценка рисков, достаточность доказательств, полнота рабочих документов и прохождение заключения через контроль качества.

Кроме того, необходимо разработать отдельный стандарт внутреннего контроля качества, где будут отражены этапы контроля до начала аудита, в процессе проверки и на заключительной стадии. Важным направлением является регулярное обучение аудиторов по применению внутренних стандартов, так как эффективность стандартов зависит не только от их наличия, но и от правильного использования в практической деятельности.

Заключение. Совершенствование внутренних стандартов аудиторских

Ruzimbaev Shokhjahon(0009-0009-1073-7679)
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
Ruzimbaev@gmail.com

Artificial Intelligence (AI) is transforming the global financial and insurance industries by improving operational efficiency, risk management, and customer

service. In recent years, Uzbekistan has been actively implementing digital technologies in the financial sector, including insurance. This thesis analyzes the role of AI integration in Uzbekistan's insurance sector, focusing on its benefits, challenges, and future prospects. The study shows that AI technologies can significantly improve risk assessment, fraud detection, and service quality in insurance companies. At the same time, regulatory frameworks and technological infrastructure must continue to develop to fully realize the potential of AI in the industry

The insurance sector plays an important role in ensuring financial stability and protecting individuals and businesses from potential risks. In recent years, technological innovations have significantly influenced the development of the global insurance industry. Among these innovations, Artificial Intelligence (AI) has become one of the most important technologies shaping the future of insurance.

AI technologies allow insurance companies to analyze large volumes of data, automate routine processes, and improve decision-making accuracy. Many developed countries have already integrated AI systems into underwriting, claims management, and customer service.

Uzbekistan is also gradually moving toward digital transformation in the financial sector. Government initiatives aimed at developing the digital economy and modernizing financial institutions have created favorable conditions for the introduction of innovative technologies. As a result, insurance companies in Uzbekistan have started exploring the potential of AI solutions to increase efficiency and competition

Artificial Intelligence technologies can be applied in several areas of the insurance sector. One of the most important applications is **risk assessment and underwriting**. Traditional risk evaluation methods require significant human effort and time. AI algorithms can analyze historical data, customer profiles, and external factors to predict potential risks more accurately.

Another important application of AI in insurance is **fraud detection.** Insurance fraud causes significant financial losses for companies worldwide. AI-based systems can analyze claim patterns and detect suspicious activities by identifying unusual behavior or inconsistencies in the data. This helps companies reduce financial losses and improve transparency.

AI can also improve **customer service** through automated systems such as chatbots and virtual assistants. These technologies allow customers to receive instant responses to their inquiries and obtain information about insurance policies, claims, and payments without long waiting times.

Furthermore, AI helps insurance companies optimize internal operations. Automated data processing reduces administrative costs and increases operational efficience

The insurance sector in Uzbekistan has experienced gradual development in recent years. Digitalization initiatives supported by the government have encouraged financial institutions to adopt modern technologies.

Several insurance companies have started implementing digital platforms that allow customers to purchase insurance policies online and submit claims

electronically. Although the use of AI is still in the early stages, there is significant potential for its wider implementation.

For example, AI systems could be used to analyze customer data and design personalized insurance products based on individual risk profiles. This would improve customer satisfaction and help companies attract more clients.

AI could also be used to automate claim processing. Instead of manually reviewing every claim, AI algorithms can quickly verify documents and evaluate the legitimacy of claims. This reduces processing time and improves efficiency.

In addition, predictive analytics based on AI could help insurance companies better understand market trends and customer behavior. This would allow them to develop more effective strategies and products.

Table1

Potential Applications of AI in Uzbekistan’s Insurance Sector

Area	AI Application	Expected Benefits
Risk Assessment	AI algorithms analyze customer data and predict risks	More accurate underwriting
Fraud Detection	Machine learning models detect suspicious claims	Reduction of financial losses
Customer Service	AI chatbots and virtual assistants	Faster customer support
Claims Processing	Automated claim verification systems	Reduced processing time
Product Development	Predictive analytics for customer behavior	Personalized insurance products

Despite its many advantages, the integration of AI in Uzbekistan’s insurance sector also faces several challenges. One of the main challenges is the lack of sufficient technological infrastructure and data availability. AI systems require large volumes of high-quality data to function effectively.

Another challenge is the shortage of skilled specialists in artificial intelligence and data analytics. Developing and maintaining AI systems requires highly qualified professionals who understand both technology and financial services.

Regulatory frameworks must also evolve to address the use of AI technologies in financial institutions. Governments need to ensure that AI systems operate transparently, ethically, and securely while protecting consumer rights.

Artificial Intelligence has the potential to significantly transform Uzbekistan’s insurance sector by improving efficiency, reducing risks, and enhancing customer experience. AI technologies can help insurance companies automate processes, detect fraud, and develop innovative products.

However, successful AI integration requires the development of digital infrastructure, skilled human resources, and supportive regulatory policies. With continued investment and strategic planning, Uzbekistan’s insurance industry can benefit greatly from the opportunities offered by artificial intelligence in the coming years.

List of literature

1. Muminov, K. (2025). *Etapy transformatsii: evolyutsiya tsifrovoy ekonomiki v Uzbekistane – dostizheniya, vyzovy i perspektivy (po sostoyaniyu na*

may 2025 g.). Svet nauki, (9 (44)).

2. Teshaboeva, Z. T. (2022). *Napravleniya perekhoda na innovatsionnuyu trayektoriyu razvitiya natsionalnoy ekonomiki Uzbekistana.* In Colloquium-journal (No. 16 (139), pp. 53–56). Golopristanskiy gorodskoy rayonnyy tsentr zanyatosti.

3. Sorokin, S. V. *Institutsionalnye osnovy gosudarstvennogo regulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti.*

4. Bugubaeva, R. O., Berezyuk, V. I., Bespaeva, R. S., Tursunbekov, E. T., & Nukesheva, A. Zh. (2020). *Tsifrovizatsiya ekonomiki: mirovoy opyt i transformatsiya kadrovoy politiki v primenenii tsifrovykh tekhnologiy v biznese.* Problemy ekonomiki i yuridicheskoy praktiki, (5), 148–157.

5. Mukimova, N. R. (2021). *Innovatsionnoe razvitie chelovecheskogo potentsiala v usloviyakh tsifrovoy ekonomiki.* Payomi politekhniki. Bakhshi Intellekt. Innovatsiya. Investitsiya. No. 4 (56), 75.

SUG‘URTA TASHKILOTLARINING DOLZARBLIGI

Azamatova Gulsara Isoqovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktaranti


Mustaqillikka erishilgan davrdan to hozirgi kunga qadar tahlil qilib qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda sug‘urta bozorida sezilarli darajada islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda ammo bugungi global-iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida sug‘urta bozoridagi holatni xalqaro amaliyotdagi holat bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, mamlakatimizda sug‘urta bozorining holati ancha sustligini ko‘rishimiz mumkin. Buni raqamlarda ko‘rsatadigan bo‘lsak, “Sug‘urta sohasining dunyo yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi yildan yilga ortib bormoqda. 2022-yil yakuni bo‘yicha AQSHda 12,7%, Angliya 11,1%, Germaniya 6,8% ni tashkil qilgan”[58]. Ma’lumot o‘rnida shuni aytish joizki, 2023 yil 1-yarim yillik yakuniga ko‘ra, sug‘urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 0,81%ni tashkil etgan[59].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan Harakatlar Strategiyasining 3.1-bandi makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosiy e’tibor sug‘urta, lizing va moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan[60]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida[61]”gi farmonida tashqi savdo, moliya, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohalarida islohotlar o‘tkazilishi belgilab

[58] https://www.oecd.org/finance/insurance/oecdinsurancestatistics sayti ma’lumotlari
[59] O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti
[60] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.07.02.2017 y.
[61] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida ”gi PF-60-sonli Farmoni, 2022 yil 28 yanvar.

berilgan hamda ijtimoiy sug‘urta rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini takomillashtirish, ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari sifatini oshirish, sug‘urta bozorida raqobat muhitini yaxshilash hamda sug‘urtalovchilarning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchini oshirish kabi masalalarni ijobiy hal qilish maqsadida bir qator normativ-huquqiy asoslar qabul qilinib, mazkur sohada yangi islohotlar o‘tkazilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida[62]”gi qarori hamda 2021 yil 23 oktabrdagi PQ-5265-son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urta sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘rida”gi qarorlari qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-730-son Qonunining 2022 yil 25 fevralda amaliyotga joriy etilishi sug‘urta faoliyatini tartibga solish bo‘yicha asosiy huquqiy asosini mustahkamladi.

Hozirgi kunda sug‘urta bozorining holatiga baho beradigan bo‘lsak quyidagi raqamlarni inobatga olish o‘rinli bo‘ladi:




1.1-rasm. 2022-2025 yillar oralig‘idagi sug‘urta tashkilotlari soni[63]

1.1-rasmdan bilishimiz mumkinki, 2022-2025 yillar mobaynida sug‘urta tashkilotlari soni kamaygan,buni sababini yuqorida keltirilgan qarorlarni qabul qilinishi bilan bog‘lash mumkin, ya’ni sug‘urta tashkilotlari faoliyat yuritishlari uchun bajarishlari shart bo‘lgan talablar kuchaytirilgan.

Shuningdek, respublikamiz sug‘urta bozorining barqaror o‘sishi nafaqat taklifga (sug‘urtalovchilarning sug‘urta to‘lovlarnini vaqtida amalga oshirishlariga) qarab balki talabga (sug‘urta qidiruvchilarning to‘lagan sug‘urta mukofotlariga) ham bog‘liqdir, ya’ni sug‘urta qildiruvchilarning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchi qanchalik mustahkam bo‘lsa sug‘urta bozorida talab shunchalik yuqori bo‘ladi.

[62]PQ-4412-son “O’zbekiston Respublikasining sug’urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”

[63] O’zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1.3-rasm. Sug‘urta tashkilotlarining majburiy, ixtiyoriy va hayot sug‘urtasi bo‘yicha jami sug‘urta mukofotlari va to‘lovlari, trln so‘mda[64].

Yuqoridagi raqamlardan shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta mukofotlarining ham sug‘urta to‘lovlarining ham hajmida o‘sishga ijobiy baho berish mumkin ammo sug‘urta bozorida xalqaro amaliyotdan ortda qolish holatlari mavjud masalan,

-milliy sug‘urta tashkilotlarining jahon moliya bozorida ishtirok etishi orqali transkompaniyalarga aylanishini ta’minlash;

-sug‘urta tashkilotlarida boshqaruv organini aniq, sifatli, ishonchli, uyg‘un ma’lumotlar bilan ta’minlashga erishish;

-sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini yaxshilash uchun xorijiy investorlarga ochiq va shaffof bo‘lgan moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish;

-xalqaro moliya bozorlarining ishtirokchi bo‘lishning muhim shart hisoblangan MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisoboti hamda uning auditning xalqaro standartlari asosida tuzilgan auditorlik xulosasini tegishli organga taqdim etishiga erishish.

Yuqoridagi masalalarning barchasi sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobot tuzish, taqdim etish va uni auditdan o‘tkazish kabi ishlarni amalga oshirishga borib tarqaladi.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING TRANSFORMATSIYASI

Ro‘zimurodova Dilroz Ravshan qizi
Fan va texnologiyalar universiteti talabasi
e-mail: dilrozrozimurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiyaning zamonaviy biznes modellarga ta’siri, ularning evolyutsiyasi hamda iqtisodiy samaradorlikka qo‘shayotgan hissasi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar va platforma ekotizimlari kabi raqamli texnologiyalarning biznes jarayonlarini o‘zgartirishdagi roli o‘rganilgan. Shuningdek, an’anaviy biznes modellardan raqamli, moslashuvchan va mijozga yo‘naltirilgan ekotizimlarga o‘tish jarayoni yoritilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, raqamli transformatsiya korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishi, operatsion xarajatlarni kamaytirishi va yangi qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirishi aniqlangan.

[64] Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, biznes modellari, sun’iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar, platforma iqtisodiyoti, raqobatbardoshlik, innovatsiya.

Abstract: This articl analyzes the impact of digital transformation on modern business models, their evolution, and their contribution to economic efficiency. The study examines the role of digital technologies such as artificial intelligence, Big Data, cloud computing, and platform ecosystemsin transforming business processes. It also highlights the transition from traditional business models to digital, flexible, and customer-oriented ecosystems. The findings show that digital transformation increases competitiveness, reduces operational costs, and expands opportunities for value creation.

Keywords: Digital transformation, business models, artificial intelligence, Big Data, cloud computing, platform economy, competitiveness, innovation.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние цифровой трансформации на современные бизнес-модели, их эволюция и вклад в повышение экономической эффективности. В исследовании рассматривается роль цифровых технологий, таких как искусственный интеллект, большие данные, облачные технологии и платформенные экосистемы, в изменении бизнес-процессов. Также освещается переход от традиционных бизнес-моделей к цифровым, гибким и ориентированным на клиента экосистемам. Полученные результаты показывают, что цифровая трансформация повышает конкурентоспособность компаний, снижает операционные затраты и расширяет возможности создания ценности.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, бизнес-модели, искусственный интеллект, большие данные, облачные технологии, платформенная экономика, конкурентоспособность, инновации.

Kirish: Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalarda chuqur transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) va bulutli hisoblash tizimlarining keng joriy etilishi natijasida an’anaviy biznes yuritish usullari tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu jarayonlar nafaqat korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga, balki yangi biznes modellarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida kompaniyalar o‘z faoliyatini moslashuvchan va innovatsion yondashuvlar asosida qayta tashkil etishga majbur bo‘lmoqda. Bozor talabi tez o‘zgarayotgan muhitda tezkor qaror qabul qilish, mijoz ehtiyojlariga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish va texnologiyalar bilan integratsiyalashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, raqamli transformatsiya biznesning raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi raqamli transformatsiyaning biznes modellar evolyutsiyasiga ta’sirini tahlil qilish, uning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta’sirini ochib berishdan iborat. Shuningdek, ish doirasida zamonaviy texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili: Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes modellarining

transformatsiyasi masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ushbu jarayonning nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab olimlar tomonidan asoslab berilgan. Xususan, Don Tapscott raqamli iqtisodiyot konsepsiyasini ishlab chiqib, unda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy qiymat yaratishning asosiy omiliga aylanishini ta’kidlaydi[65]. Uning fikricha, raqamli muhitda kompaniyalar an’anaviy ishlab chiqarishdan ko‘ra ko‘proq bilim va ma’lumotlarga tayanadi, bu esa biznes modellarining moslashuvchan va innovatsion shakllarga o‘tishini talab qiladi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy korxonalar uchun ma’lumotlarni samarali boshqarish strategik ustunlik manbai hisoblanadi.

Raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’siri Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ular texnologik taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish samaradorligi keskin oshishini ilmiy asoslab bergan[66]. Mualliflar sun’iy intellekt va avtomatlashtirish biznes jarayonlarini optimallashtirish orqali yangi turdagi biznes modellarni shakllantirayotganini qayd etadi. Bu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, korxonalar raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki yangi bozor segmentlarini ham egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Biznes modellarni tizimli shakllantirish va ularni transformatsiya qilish masalalari Alexander Osterwalder va Yves Pigneur tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda o‘z aksini topgan[67]. Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, biznes modeli qiymat yaratish, yetkazib berish va monetizatsiya jarayonlarining yagona tizimi sifatida qaraladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu elementlar o‘zaro integratsiyalashib, platforma va servisga yo‘naltirilgan modellarga aylanishi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, biznes modelni muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish va bozor talablariga moslashtirish zarurati yuzaga keladi.

Platforma iqtisodiyoti doirasida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan Geoffrey Parker, Marshall Van Alstyne hamda Sangeet Paul Choudary ishlari, raqamli platformalarning an’anaviy biznes modellariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi[68]. Ular ikki tomonlama bozorlar orqali qiymat yaratish mexanizmini tushuntirib, foydalanuvchilar sonining ortishi bilan platforma qiymati eksponensial tarzda oshishini ilmiy asoslaydi. Bu holat tarmoq effekti deb ataladi va u raqamli bizneslarning tez rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, platforma modellarini joriy etish milliy iqtisodiyotda yangi o‘sish nuqtalarini yaratishi mumkin.

Global iqtisodiy transformatsiyalar Klaus Schwab tomonidan ilgari surilgan to‘rtinchi sanoat inqilobi konsepsiyasi doirasida ham izohlangan bo‘lib, unda raqamli, biologik va fizik texnologiyalar integratsiyasi natijasida biznes modellar

---

[65] Tapscott D. *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. New York: McGraw-Hill, 1996. B-342

[66] Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. New York: W.W. Norton & Company, 2014. B- 306 .

[67] Osterwalder A., Pigneur Y. *Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers*. Hoboken: Wiley, 2010. B- 288 .

[68] Parker G., Van Alstyne M., Choudary S.P. *Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy*. New York: W.W. Norton & Company, 2016. B-352 .

tubdan o‘zgarayotgani ta’kidlanadi[69]. Ushbu jarayonda kompaniyalar moslashuvchanlik, tezkorlik va innovatsion fikrlashga tayanishga majbur bo‘ladi. Bu esa boshqaruv tizimlarining ham transformatsiyasini talab etadi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan World Bank va OECD tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish, bandlik va investitsion jozibadorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi statistik ma’lumotlar asosida tasdiqlangan[70]. Ushbu manbalarda elektron tijorat, raqamli xizmatlar va fintech sektorining kengayishi yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga xizmat qilishi qayd etiladi. Shu bilan birga, ular raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kiberxavfsizlikni ta’minlash va inson kapitalini oshirish zarurligini alohida ta’kidlaydi[71].

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli iqtisodiyotning biznes muhitiga ta’siri keng yoritilib, unda davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimlari va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirayotgani qayd etiladi. Bu jarayonlar natijasida biznes yuritish xarajatlari kamayib, bozorga kirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik darajasi va texnologik infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda transformatsiya jarayonlari sekin kechayotgani ham kuzatiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes modellarining transformatsiyasi uzluksiz va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u texnologik innovatsiyalar, ma’lumotlar oqimi va global raqobat ta’sirida shakllanadi. Korxonalar uchun eng muhim vazifa raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanib qolmasdan, ularni strategik boshqaruv darajasiga olib chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar: Raqamli transformatsiya sharoitida biznes modellarning evolyutsiyasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Alexander Osterwalder tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar biznes modellarning statik shakldan dinamik va moslashuvchan tizimlarga o‘tishini asoslab beradi. Ushbu transformatsiya kompaniyalarga bozor talabidagi o‘zgarishlarga tezkor moslashish imkonini berib, Agile boshqaruv tamoyillarining keng joriy etilishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Agile metodologiyalarni qo‘llayotgan kompaniyalar an’anaviy boshqaruv tizimlariga nisbatan 25–30% yuqori operatsion samaradorlikka erishmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida Geoffrey Parker tomonidan asoslab berilgan platforma iqtisodiyoti alohida ahamiyat kasb etadi. Platformali biznes modellar tarmoq effekti orqali foydalanuvchilar soni ortishi bilan qiymatning eksponentsial o‘sishini ta’minlaydi. Masalan, Amazon, Alibaba Group va Uber kabi platformalar global bozorda yuqori kapitalizatsiyaga erishgan bo‘lib, platforma iqtisodiyotining umumiy hajmi 2023-yilda 60 trillion AQSh dollaridan oshgani qayd etilgan. Bundan tashqari, platforma kompaniyalari an’anaviy kompaniyalarga nisbatan o‘rtacha 2–3 barobar tezroq o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda.

---

[69] Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. Geneva: World Economic Forum, 2016. B- 192 .
[70] World Bank. *World Development Report 2016: Digital Dividends.* Washington, DC: World Bank, 2016. B-359 .
[71] OECD. *Digital Economy Outlook 2020*. Paris: OECD Publishing, 2020. B-332 .

Klaus Schwab va World Bank hamda OECD hisobotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiya makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, keng polosali internet qamrovining 10% ga oshishi YAIM o‘sishini o‘rtacha 1–1,5% ga tezlashtirishi aniqlangan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot ulushi ayrim rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 15–20% ini tashkil etmoqda.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi biznes modellarni dematerializatsiya qilish va xizmatlarni “as-a-service” shaklida taqdim etishga o‘tishni jadallashtirmoqda. Masalan, bulutli texnologiyalar bozori hajmi 2025-yilga borib 800 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda, bu esa kompaniyalarga kapital xarajatlarni kamaytirish va operatsion moslashuvchanlikni oshirish imkonini beradi.

Yakuniy natijada, raqamli transformatsiya qiymat yaratish jarayonini tubdan o‘zgartirib, uni mijozga yo‘naltirilgan, ma’lumotlarga asoslangan va texnologik integratsiyalashgan ekotizimga aylantirmoqda. Bu esa nafaqat alohida kompaniyalar raqobatbardoshligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘sishiga ham xizmat qiladi.

1-jadval

Raqamli iqtisodiyotda biznes modellar transformatsiyasining kengaytirilgan tahlili:

Tadqiqotchi / Institut	**Transformatsiya drayveri (Texnologiya)**	**Fundamental natija va Metodologiya**	**Raqamli ko‘rsatkich (KPI/Ta’sir)**	**Strategik amaliyot**
Don Tapscott	Big Data va Blockchain	Ma’lumot - yangi "oltin". Networking (tarmoqlashuv) iqtisodiyoti shakllandi.	Tranzaksiya xarajatlarining **20-40%** ga qisqarishi.	**Data-driven** (ma’lumotlarga asoslangan) qaror qabul qilish tizimi.
E. Brynjolfsson & A. McAfee	AI va Machine Learning	Ikkinchi mashina asri: intellektual mehnatni avtomatlashtirish.	Mehnat unumdorligining o‘rtacha **1.5%-2.5%** yillik o‘sishi.	Operatsion xarajatlarni optimallashtirish va **robotlashtirish**.
A. Osterwalder & Y. Pigneur	Agile va Cloud Computing	Business Model Canvas: Biznesni vizual modellash va tezkor moslashtirish.	Bozorga chiqish vaqti (Time-to-market) **1.5-2 baravar** tezlashdi.	Startap ekotizimini va **MVP** (minimal mahsulot) tushunchasini joriy etish.
Geoffrey Parker & Marshall Alstyne	Platforma ekotizimi	Tarmoq effekti (Network effect): Foydalanuvchi soni qiymatni belgilaydi.	Eksponentsial o‘sish; an’anaviy modellarga qaraganda **2-5 baravar** tezroq kapitallashuv.	**Marketplace** (Amazon, Alibaba) va "Plug-and-play" biznes turlari.

Klaus Schwab	IoT, Cyber-Physical Systems	Industry 4.0: Ishlab chiqarishning raqamli egizaklar (Digital Twins) bilan integratsiyasi.	Resurslardan foydalanish samaradorligi **15-20%** dan yuqori.	Smart Factory (Aqlli zavod) va **Smart City** konsepsiyalari .
Jahon Banki & OECD	Raqamli infratuzilma	Raqamli dividendlar: Internet va 5G ning iqtisodiy o‘sishga ta’siri.	Internet qamrovi 10% ga oshsa, YAIM o‘sishi **1.2% - 1.4%** ni tashkil etadi.	Milliy **Raqamli Strategiyalar** (E-gov, Digital Economy) yaratish

Xulosa: Raqamli transformatsiya zamonaviy biznes muhitida hal qiluvchi omilga aylanib, kompaniyalarning rivojlanish yo‘nalishini tubdan o‘zgartirmoqda. U nafaqat operatsion jarayonlarni optimallashtirish, balki bozor talablariga tezkor moslashish va innovatsion yechimlarni joriy etish imkonini bermoqda. Natijada biznes modellari yanada moslashuvchan, mijozga yo‘naltirilgan va texnologiyalar bilan chuqur integratsiyalashgan shaklga kelmoqda.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida samaradorlikning oshishi, xarajatlarning kamayishi va yangi qiymat yaratish mexanizmlarining paydo bo‘lishi kuzatilmoqda. Bu jarayonlar kompaniyalarning raqobatbardoshligini kuchaytirib, ularning global bozorda barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya biznes uchun tanlov emas, balki zaruratga aylanib, uzoq muddatli rivojlanish va iqtisodiy barqarorlikning asosiy sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tapscott D. *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. New York: McGraw-Hill, 1996. B-342

2. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. New York: W.W. Norton & Company, 2014. B- 306 .

3. Osterwalder A.Pigneur Y.*Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers and Challengers*. Hoboken: Wiley, 2010. B-288.

4. Parker G. Van Alstyne M. Choudary S.P. *Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy*. New York: W.W. Norton & Company, 2016. B-352 .

5. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. Geneva: World Economic Forum, 2016. B- 192 .

6. World Bank. *World Development Report 2016: Digital Dividends.* Washington, DC: World Bank, 2016. B-359 .

7. OECD. *Digital Economy Outlook 2020*. Paris: OECD Publishing, 2020. B-332

ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ro‘zimurodova Dilroz Ravshan qizi
Fan va texnologiyalar universiteti talabasi
e-mail: dilrozrozimurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron tijorat sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, uning biznes jarayonlarga ta’siri hamda asosiy statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida elektron tijoratning global miqyosda kengayib borayotgani, raqamli platformalarning savdo jarayonlaridagi o‘rni va sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar hamda bulutli texnologiyalarning ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, elektron tijoratning kichik va o‘rta biznes rivojiga qo‘shgan hissasi hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli yoritilgan. Natijada elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o‘sishni tezlashtirgan asosiy omillardan biri ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, platforma iqtisodiyoti, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar.

Abstract: This articl has analyzed the development of digital economy in the context of e-commerce, its impact on business processes, and key statistical indicators. The research has examined the global expansion of e-commerce, the role of digital platforms in trade processes, and the importance of artificial intelligence, big data, and cloud technologies. It has also highlighted the contribution of e-commerce to the development of small and medium-sized businesses and its role in improving economic efficiency. As a result, e-commerce has been identified as one of the key drivers accelerating economic growth as an essential component of the digital economy.

Keywords: e-commerce, digital economy, digital transformation, platform economy, artificial intelligence, big data, cloud technologies.

Аннотация: В данной статье проанализировано развитие цифровой экономики в условиях электронной коммерции, её влияние на бизнес-процессы и основные статистические показатели. В ходе исследования рассмотрено глобальное расширение электронной коммерции, роль цифровых платформ в торговых процессах, а также значение искусственного интеллекта, больших данных и облачных технологий. Также изучен вклад электронной коммерции в развитие малого и среднего бизнеса и её роль в повышении экономической эффективности. В результате установлено, что электронная коммерция является одним из ключевых факторов ускорения экономического роста в рамках цифровой экономики.

Ключевые слова: электронная коммерция, цифровая экономика, цифровая трансформация, платформенная экономика, искусственный интеллект, большие данные, облачные технологии.

Kirish: Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalar, xususan, savdo tizimlarida ham tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu jarayon natijasida elektron tijorat iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Internet tarmoqlarining kengayishi, mobil qurilmalar ommalashuvi hamda raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi an’anaviy savdo shakllarini bosqichma-bosqich elektron savdo

platformalari bilan almashtirishga zamin yaratmoqda.

Elektron tijorat nafaqat mahsulot va xizmatlarni onlayn sotish jarayonini anglatadi, balki u butun biznes modelini raqamli asosda tashkil etishni ham o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda kompaniyalar mijozlarga tezkor, qulay va shaxsiylashtirilgan xizmat ko‘rsatish maqsadida turli elektron platformalar, mobil ilovalar va raqamli marketing vositalaridan keng foydalanmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning rivojlanishi biznes jarayonlar samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va bulutli texnologiyalar kabi innovatsion yechimlar elektron savdo tizimlarining yanada takomillashishiga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: Elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etib, uning shakllanishi va kengayishi raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Xususan, Laudon Kenneth C. va Carol Guercio Traver tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda elektron tijorat global savdo tizimining ajralmas qismiga aylangani asoslab beriladi[72]. Ularning fikriga ko‘ra, internet infratuzilmasining kengayishi va foydalanuvchilar sonining ortishi onlayn savdoning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, elektron tijoratni rivojlantirish uchun avvalo barqaror va tezkor internet tizimi muhim omil hisoblanadi.

Elektron tijoratning iqtisodiy samaradorligi va uning global bozorga ta’siri World Trade Organization hisobotlarida keng tahlil qilingan bo‘lib, unda raqamli savdo xalqaro savdo hajmini sezilarli darajada oshirayotgani statistik ma’lumotlar bilan tasdiqlangan. Mazkur tashkilot ma’lumotlariga ko‘ra, elektron tijorat kichik va o‘rta biznes subyektlariga global bozorlarga chiqish imkonini kengaytiradi[73]. Bu esa iqtisodiy integratsiyani kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, UNCTAD tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarda elektron tijoratning rivojlanish darajasi mamlakatlarning raqamli tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu manbalarda logistika tizimi, to‘lov infratuzilmasi va huquqiy muhitning rivojlanganligi elektron tijoratning asosiy drayverlari sifatida qayd etiladi[74]. Bu esa shuni anglatadiki, elektron savdoni rivojlantirish faqat texnologik emas, balki institutsional yondashuvni ham talab qiladi.

Elektron tijorat platformalarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari Geoffrey Parker, Marshall Van Alstyne hamda Sangeet Paul Choudary tomonidan ishlab chiqilgan platforma iqtisodiyoti nazariyasi doirasida tushuntiriladi. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, elektron tijorat platformalari ikki tomonlama bozorlar asosida ishlaydi va tarmoq effekti orqali tez rivojlanadi[75]. Bu holat foydalanuvchilar sonining ortishi bilan xizmat qiymatining oshishiga olib keladi va natijada

[72] K. C. Laudon, C. G. Traver. *E-Commerce 2023–2024: Business, Technology, Society*. Pearson Education 2023. B-135.

[73] World Trade Organization (WTO). *World Trade Report 2023: Digital Trade and Globalization*. Geneva, 2023, B-10-92.

[74] UNCTAD. *Digital Economy Report 2024: Cross-border E-commerce*. United Nations, 2024, B-25-165.

[75] Parker, G., Van Alstyne, M., Choudary, S. P. *Platform Revolution.* W. W. Norton & Company, 2016, B-1-270

platformaning bozordagi ustunligi mustahkamlanadi.

Raqamli texnologiyalar, xususan mobil qurilmalar va sun’iy intellektning rivojlanishi elektron tijoratning yangi bosqichga o‘tishiga sabab bo‘lmoqda. Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee tadqiqotlarida raqamli innovatsiyalar savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar xulqini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etish imkonini berayotgani ta’kidlanadi[76]. Bu esa elektron tijorat samaradorligini oshiradi va iste’molchilarga qulaylik yaratadi.

Global tendensiyalar qatorida mobil tijorat (m-commerce), ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo (social commerce) va sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari keng rivojlanayotganini ko‘rish mumkin. OECD hisobotlarida ushbu yo‘nalishlar elektron tijoratning kelajakdagi asosiy drayverlari sifatida baholanadi. Ayniqsa, mobil qurilmalar orqali amalga oshirilayotgan savdolar ulushi yildan-yilga ortib borayotgani qayd etiladi, bu esa biznes subyektlaridan moslashuvchan marketing strategiyalarini talab qiladi[77].

Elektron tijoratning rivojlanishida logistika va to‘lov tizimlari muhim rol o‘ynaydi. World Bank tadqiqotlarida yetkazib berish tizimlarining samaradorligi va raqamli to‘lov vositalarining rivojlanganligi savdo hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslangan[78]. Bu holat ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb bo‘lib, infratuzilma yetishmovchiligi elektron tijoratning kengayishini sekinlashtirishi mumkin.

Mahalliy tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ham elektron tijorat bozori jadal rivojlanmoqda. Raqamli to‘lov tizimlari, onlayn savdo platformalari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan raqamli tashabbuslar natijasida ushbu sohada ijobiy o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda internet tezligi va logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi muayyan muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar elektron tijoratning rivojlanishi ko‘p omilli jarayon ekanini ko‘rsatadi. Unda texnologik innovatsiyalar, infratuzilma, huquqiy muhit va iste’molchilarning raqamli madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron tijoratni yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, ya’ni texnologik yangilanishlar bilan bir qatorda logistika tizimini takomillashtirish, to‘lov xavfsizligini ta’minlash va raqamli savodxonlikni oshirish zarur hisoblanadi.

Tahlil va natijalar: Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar ushbu sohaning global miqyosda yuqori sur’atlarda kengayib borayotganini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda internet texnologiyalarining rivojlanishi, mobil qurilmalarning ommalashuvi hamda raqamli to‘lov tizimlarining takomillashuvi elektron tijoratning iqtisodiyotdagi o‘rnini sezilarli darajada mustahkamladi.

2015–2024 yillar davomida global miqyosda elektron tijoratdan faol foydalanayotgan korxonalar ulushi keskin oshib, onlayn savdo tizimlariga o‘tish jarayoni tezlashdi. Xalqaro konsalting tashkilotlarining ma’lumotlariga ko‘ra, korxonalarning 64% i kamida bitta elektron tijorat platformasidan faol

[76] Brynjolfsson, E., McAfee, A. *The Second Machine Age*. W. W. Norton & Company, 2014, B-80-240.
[77] OECD. *OECD Digital Economy Outlook 2023*. OECD Publishing, 2023, B-45-140
[78] World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. Washington DC, 2021, B-60-200.

foydalanmoqda, 48% i esa to‘liq yoki qisman raqamli savdo modeliga o‘tgan. Bu holat an’anaviy savdo tizimlarining bosqichma-bosqich raqamli platformalar bilan almashayotganini anglatadi.

Elektron tijorat segmentida faoliyat yuritayotgan kichik va o‘rta biznes subyektlarining daromadlari sezilarli darajada oshgani qayd etilgan bo‘lib, o‘rtacha o‘sish 27% ni tashkil etgan. Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda bu ko‘rsatkich 35% gacha yetgan. Bu esa elektron savdo kichik biznes uchun ham katta imkoniyatlar yaratib berayotganini tasdiqlaydi.

Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarining elektron tijoratga joriy etilishi biznes samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, ushbu texnologiyalarni qo‘llagan kompaniyalarda operatsion samaradorlik 38–42% gacha oshgan. Bu mijozlar ehtiyojini aniqroq aniqlash, mahsulotlarni shaxsiylashtirish va sotuv jarayonlarini optimallashtirish imkonini bermoqda.

Bulutli texnologiyalar elektron tijorat infratuzilmasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ularni joriy qilgan korxonalarda IT xarajatlari o‘rtacha 25–30% ga kamaygan. Shu bilan birga, 2023 yil yakunlariga ko‘ra, global kompaniyalarning 57% i raqamli transformatsiya orqali umumiy xarajatlarni optimallashtirishga erishgan.

Elektron tijoratda mijozga yo‘naltirilgan strategiyalar muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuvni qo‘llagan kompaniyalarda foyda marjasi o‘rtacha 18–22% ga oshgani aniqlangan. Raqamli marketing vositalaridan foydalanish esa savdo hajmini 1,4–1,7 barobar oshirishga yordam bermoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va target reklama elektron savdoda asosiy drayverlardan biri hisoblanadi.

2024 yil holatiga ko‘ra, mobil qurilmalar orqali amalga oshirilgan elektron savdolar umumiy onlayn savdoning 58% ini tashkil etgan. Bu iste’molchilarning xarid qilish odatlari mobil platformalarga tobora ko‘proq o‘tayotganini ko‘rsatadi. Internet foydalanuvchilari sonining 5 milliarddan oshishi esa global elektron tijorat bozorining yanada kengayishini ta’minlamoqda.

Platforma iqtisodiyoti doirasida faoliyat yuritayotgan elektron tijorat kompaniyalari an’anaviy savdo korxonalariga nisbatan tezroq rivojlanmoqda. Ularning daromad o‘sish sur’ati 2,1 barobar yuqori ekani aniqlangan. Startaplarning 74% i aynan elektron tijorat yoki raqamli savdo modeli asosida tashkil etilmoqda.

Raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan elektron tijorat kompaniyalari bozor ulushini o‘rtacha 17–23% ga kengaytirgan. Logistika va ta’minot zanjirining raqamlashtirilishi esa yetkazib berish vaqtini 20–35% ga qisqartirib, mijozlar qoniqishini sezilarli darajada oshirgan.

Umuman olganda, elektron tijoratning rivojlanishi mehnat unumdorligini 30% gacha oshirib, xizmat ko‘rsatish tezligini 40% ga yaxshilagan. Mijozlarni ushlab qolish darajasi ham 25% ga yuqori bo‘lib, bu barqaror daromad oqimini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prognozlarga ko‘ra, 2030 yilga borib elektron tijorat global iqtisodiyotning eng yirik segmentlaridan biriga aylanadi va korxonalarning 80–85% i to‘liq yoki qisman elektron savdo modeliga o‘tadi. Shu bilan birga, elektron tijorat global YAIM tarkibida 25% dan ortiq ulushga ega bo‘lishi kutilmoqda.

Xulosa: Elektron tijorat sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy tizimning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda elektron tijorat jadal sur’atlarda kengayib, an’anaviy savdo tizimlarini bosqichma-bosqich raqamli platformalar bilan almashtirmoqda. Internet texnologiyalari, mobil qurilmalar, raqamli to‘lov tizimlari hamda platforma iqtisodiyoti bu jarayonning asosiy drayverlari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari elektron tijoratning biznes samaradorligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalarda operatsion xarajatlar kamayishi, savdo hajmi oshishi hamda mijozlar bilan ishlash samaradorligi yaxshilanishi kuzatilmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va bulutli texnologiyalar esa elektron tijorat jarayonlarini yanada optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, elektron tijorat kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratib, ularning daromadlarini oshirish va bozor raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam bermoqda. Mobil savdoning o‘sishi va raqamli marketing vositalarining rivojlanishi iste’molchilarning xarid qilish xulqini sezilarli darajada o‘zgartirdi.

Umuman olganda, elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o‘sishni tezlashtiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Kelgusida ushbu sohaning yanada rivojlanishi global iqtisodiyotda raqamli transformatsiyaning chuqurlashishiga va yangi biznes modellarning shakllanishiga olib kelishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI:

1. K. C. Laudon, C. G. Traver. *E-Commerce 2023–2024: Business, Technology, Society*. Pearson Education 2023. B-135.

2. World Trade Organization (WTO). *World Trade Report 2023: Digital Trade and Globalization*. Geneva, 2023, B-10-92.

3. UNCTAD. *Digital Economy Report 2024: Cross-border E-commerce.* United Nations, 2024, B-25-165

4. Parker, G., Van Alstyne, M., Choudary, S. P. *Platform Revolution.* W. W. Norton & Company, 2016, B-1-270

5. Brynjolfsson, E., McAfee, A. *The Second Machine Age*. W. W. Norton & Company, 2014, B-80-240.

6. OECD. *OECD Digital Economy Outlook 2023*. OECD Publishing, 2023, B-45-140

7. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. Washington DC, 2021, B-60-200.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOT DAVRIDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI

Raxmonov Bekzod
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida shakllanib, mehnat bozori tuzilmasi va funksional mexanizmlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat choralarining kengayishi natijasida iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari vujudga kelmoqda. Ushbu jarayonlar bir tomondan samaradorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan mehnat resurslarining qayta taqsimlanishini talab etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori tobora moslashuvchan va dinamik tus olmoqda. Masofaviy ish shakllari, platforma iqtisodiyoti va frilanserlik kabi yangi bandlik ko‘rinishlari kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi ekologik xavfsizlikni ta’minlash bilan birga, yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Biroq bu o‘zgarishlar barcha iqtisodiy subyektlar uchun bir xil darajada ijobiy natija bermasligi, ayrim qatlamlarning mehnat bozoridan siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur transformatsion jarayonlar fonida yashirin iqtisodiyot muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. Yashirin iqtisodiyot rasmiy statistikada aks etmaydigan, tartibga solinmagan iqtisodiy faoliyatni ifodalab, mehnat bozori ko‘rsatkichlarining real holatini baholashda jiddiy cheklovlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan norasmiy faoliyat turlari yashirin bandlik ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot sharoitida yashirin iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslab o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu esa mehnat bozorini samarali tartibga solish, bandlik siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotni legallashtirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi. Natijada, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun zarur nazariy va amaliy asoslar shakllantiriladi.Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot sharoitida global hamda milliy iqtisodiyotlarda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu jarayonlar ishlab chiqarish usullari, resurslardan foydalanish mexanizmlari va mehnat bozorining funksional tuzilmasini yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Natijada, iqtisodiy o‘sish omillari qatorida innovatsiyalar, bilimlar iqtisodiyoti va barqaror rivojlanish tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli transformatsiya mehnat bozori bilan uzviy iqtisodiy aloqaga ega bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi orqali ishchi kuchiga bo‘lgan talab tarkibini o‘zgartiradi. Yuqori texnologik ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ishchi kuchiga ehtiyoj ortib boradi, past malakali ish o‘rinlari esa qisqaradi. Bu jarayon iqtisodiyotda strukturaviy ishsizlik xavfini kuchaytirib, mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirishni talab etadi.

Yashil iqtisodiyot esa tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik

xavfsizlikni ta’minlash orqali iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu modelda “yashil ish o‘rinlari” tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. Energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, bu esa bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli va yashil iqtisodiyotning o‘zaro integratsiyasi iqtisodiy tizimda yangi sinergetik samaralarni yuzaga keltiradi. Masalan, “aqlli texnologiyalar” yordamida energiya iste’molini optimallashtirish yoki ekologik monitoring tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Bu esa yangi kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talabni shakllantiradi.

Yashirin iqtisodiyot esa ushbu jarayonlar bilan murakkab iqtisodiy aloqaga ega. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy operatsiyalarni shaffoflashtirish imkonini bersa-da, ayrim hollarda norasmiy faoliyatni yashirish uchun yangi vositalarni ham yaratadi. Natijada, iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy segmentlari o‘rtasidagi tafovut kengayadi.

Mehnat bozori nuqtai nazaridan yashirin iqtisodiyot bandlikning muqobil shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ayrim iqtisodiy subyektlar rasmiy sektorda ish topa olmagani sababli norasmiy faoliyatga o‘tadi. Bu esa qisqa muddatda ishsizlik darajasini pasaytirgandek ko‘rinsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli platformalar rivoji yashirin bandlikni kengaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Onlayn xizmatlar, frilanserlik va mustaqil ish faoliyati ko‘plab hollarda rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdan amalga oshiriladi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga va ijtimoiy sug‘urta tizimining zaiflashishiga olib keladi.

Анализ показывает, что для формирования эффективной экономической политики в контексте искусственного интеллекта и цифровой экономики важно сократить цифровое неравенство между регионами, развивать человеческий капитал и расширять инновационную инфраструктуру. В то же время комплексный и системный подход обеспечивает устойчивое развитие национальной экономики и позволяет принимать решения на основе данных, полученных в результате цифровой трансформации и применения технологий искусственного интеллекта, что способствует повышению эффективности экономических процессов.

Список литературы:

1. Эпоха ИИ / Х. Киссинджер, Э. Шмидт, Д. Хуттенлохер. – Нью-Йорк: Little, Brown and Company, 2021.

2. Четвертая промышленная революция / К. Шваб. – Женева: Всемирный экономический форум, 2016.

3. Всемирный банк. Доклад о мировом развитии 2021: Данные для лучшей жизни. – Вашингтон, округ Колумбия, 2021.

4. ОЭСР. Перспективы цифровой экономики на 2023 год. – Париж, 2023.

5. Международный валютный фонд. Перспективы мировой экономики на 2023 год. – Вашингтон, округ Колумбия, 2023.

6. Организация Объединенных Наций. Опрос об электронном правительстве 2022: Будущее цифрового правительства. – Нью-Йорк, 2022.

ENVIRONMENTAL PROBLEMS OF FOOD DELIVERY PLATFORMS AND AN OPTIMIZATION SYSTEM FROM THE PERSPECTIVE OF THE GREEN DIGITAL ECONOMY

Sayidova Nazokat Sayfullayevna
Associate professor, department of information systems and digital technologies, Bukhara state university, candidate of physical and mathematical sciences
Yue Yubo
Master’s student, department of information systems and digital technologies, Bukhara state university

Abstract. This paper examines the inherent tension between consumer convenience and environmental sustainability within the rapidly expanding food delivery sector. Using China’s industrial experience as a benchmark, the study identifies that while platforms improve urban service efficiency, they significantly contribute to "white pollution" through single-use plastics. The research proposes an integrated optimization system tailored for Uzbekistan’s digital transformation context. By utilizing a systemic approach and digital modeling, the study outlines five key strategic interventions: green default settings, merchant grading, intelligent dispatching, multi-party incentives, and transparent data governance. The findings suggest that early-stage integration of environmental logic into platform architecture can decouple digital growth from ecological degradation.

Keywords: digital economy; food delivery platform; green development; artificial intelligence; platform governance; Uzbekistan; sustainability.

Introduction. Mobile internet, online payments, and positioning technologies have turned food delivery platforms into dynamic players in the global digital economy. These platforms reduce transaction costs and speed up the digitalization of urban life. However, rising order volumes drive significant environmental pressure, particularly through packaging and food waste. The development and application of specialized software are fundamental to managing these complex delivery ecosystems effectively [7]. At scale, food delivery causes persistent "white pollution" that strains municipal waste systems. Research indicates that increased delivery demand is directly linked to a surge in plastic waste, especially in urban centers [1]. As Uzbekistan undergoes its own digital transformation and AI integration [4], it faces a critical choice: follow a traditional growth path or adopt a "green digital" logic. Developing digital ordering systems with modern IT technologies provides a unique opportunity to embed environmental goals into the platform’s core at the design phase [8].

Methodology. To address the disconnect between platform efficiency and green governance, this study employs the following methodological framework:

Comparative Sectoral Analysis: Assessing the environmental trajectory of mature markets (e.g., China) to identify strategic risks for Uzbekistan [3, 5].

Systemic Optimization Modeling: Designing a multi-layered governance system that aligns the interests of consumers, merchants, and platform operators.

Behavioral Economics (Nudge Theory): Evaluating the impact of "green defaults" in digital interfaces to drive sustainable consumer choices without coercive regulation [6].

Core challenges and system optimization. The fundamental problem in the current sector is the disconnect between "efficiency logic" (speed and volume) and "green logic" (resource conservation). Without platform-level incentives, eco-friendly practices remain an advocacy-based effort rather than an operational standard. To solve this, we propose a five-pillar optimization system:

Green Default Options: Interfaces should set “no disposable cutlery” and “simplified packaging” as standard. Evidence shows that such "green nudges" significantly reduce waste [6].

Merchant Green Grading: Implementing a scoring system for restaurants based on their packaging materials and compliance with green requests. High-scoring merchants receive boosted visibility and fee discounts.

Intelligent Green Dispatch: Optimizing delivery routes using AI to maximize batch-delivery rates and reduce the carbon footprint per order, while offering a “slower but greener” delivery option for users.

Multi-party Incentive Mechanisms: Rewarding users with "green points," merchants with promotional labels, and couriers with batching bonuses to foster shared responsibility.

Transparent Data Governance: Establishing a green indicator system monitored by third-party bodies to ensure the credibility of environmental claims [2].

Conclusion and future scope. Food delivery platforms are vital for the modern digital economy, but their environmental costs cannot be ignored. China’s experience demonstrates that delayed green governance leads to exponential adjustment costs as the sector matures [3, 5].

Uzbekistan possesses a "first-mover advantage" to implement green governance during its current stage of digital maturity. By coordinating efficiency and sustainability goals through the proposed optimization system, the nation can prevent entrenched governance problems.

Future research directions:

– Scalability: Testing the proposed digital models in diverse urban catering structures like Tashkent and Bukhara.

– Behavioral Response: Analyzing how local consumer behavior shifts in response to digital green incentives.

– Technological Advancement: Integrating Blockchain and AI for immutable tracking of "green metrics" within platform operations to enhance transparency and international accountability.

References

1. Chu, J., Liu, Y., & Salvo, A. (2021). Food delivery demand and related plastic waste. Nature Human Behaviour.

2. China Development Brief (2023). Sustainability issues in China’s food delivery sector (policy/industry background).

3. He, G., et al. (2023). Green nudges reducing single-use cutlery in China’s food delivery industry. Science.

4. UNDP (2025). Digital Economy of Uzbekistan — on Uzbekistan’s digital transformation and AI context.

5. Wei, J., Zhang, L., & Cheng, Y. (2025). Digital transformation and carbon-emission efficiency in Chinese firms. Scientific Reports.

6. NUS News (2020). Public summary on the scale of delivery-related container waste.

7. Сайидова Назокат, Загдхорол Баясгалан, Юэ Юбо. Создание, установка и применение программного обеспечения. BuxDU Ilmiy axboroti, 7(1), 2025 yil, 220-224-betlar.

8. Сайидова Назокат, Юэ Юбо. Разработка программной системы цифрового оформления заказов на вынос с использованием современных ИТ-технологий. Fizika, matematika va sun’iy intellect texnologiyalarining dolzarb muammolari. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materillari. 16-17-may, Buxoro-2025. 296-297-betlar.

FISKAL SIYOSATNI RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING EVOLYUTSIYASI

Omonova Shohista Ikrom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti
e-mail; sh.omonova@tsue.uz

Global iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi davlat boshqaruv tizimlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, fiskal siyosatni amalga oshirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish davlat moliyaviy resurslarini boshqarish, soliq tushumlarini oshirish va davlat xarajatlarini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlar fiskal boshqaruvni modernizatsiya qilish maqsadida elektron soliq tizimlari, elektron deklaratsiya, raqamli to‘lov platformalari va big data tahlili kabi texnologiyalarni joriy etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish fiskal boshqaruv samaradorligini oshirib, soliq intizomini kuchaytiradi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytiradi[102].

Fiskal siyosatni raqamlashtirish masalasi ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Pylypenko va Matviienko raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq siyosatini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, avtomatlashtirish va raqamli platformalar davlat soliq boshqaruvini yanada samarali qilish imkonini beradi.[103]

Dhaliwal va boshqalar OECD tavsiyalariga asoslanib, soliq ma’muriyatini raqamlashtirish davlat moliyaviy boshqaruvida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, elektron soliq tizimlari soliq yig‘ish samaradorligini oshiradi hamda korrupsiya xavfini kamaytiradi.[104]

[102] Von Haldenwang, C. (2020). Digitalising the fiscal contract: An interdisciplinary framework for empirical inquiry
[103] Pylypenko, O., Matviienko, H., & Putintsev, A. (2022). Government tax policy in the digital economy. Cuestiones Políticas
[104] Dhaliwal, S. B., Sohail, D., & Keeley Hafer, S. A. (2023). Digitalization of tax administration: A review of the OECD guidelines. Journal of Accounting & Taxation

Petraș Yevropa davlatlari tajribasini o‘rganib, raqamli texnologiyalar fiskal siyosatni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, elektron hukumat tizimlari soliq to‘lovchilarga qulay xizmatlar ko‘rsatish imkonini yaratadi.[105]

Bundan tashqari, Aristovnik va boshqalar COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli fiskal siyosat choralarining iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini tahlil qilgan.[106]

Fiskal siyosatni raqamlashtirish jarayoni bir necha bosqichlarda rivojlangan.

1. An’anaviy fiskal boshqaruv bosqichi

Bu bosqichda fiskal siyosat asosan qog‘oz hujjatlar, qo‘lda hisob-kitob qilish va an’anaviy soliq ma’muriyati orqali amalga oshirilgan. Soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, ma’lumotlarni qayta ishlash va nazorat qilish jarayonlari ko‘p vaqt talab qilgan va bu holatda:

- ma’lumotlar qayta ishlash sekin bo‘lgan;
- inson omili sababli xatolar ko‘p uchragan;
- korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan.


2. Elektron hukumat bosqichi

XXI asr boshlarida axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan davlat boshqaruvida elektron hukumat tizimlari paydo bo‘ldi va bu bosqichda elektron soliq deklaratsiyasi, onlayn to‘lov tizimlari, davlat xizmatlarining elektron platformalari joriy etildi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, elektron hukumat tizimlari fiskal boshqaruv shaffofligini oshirib, soliq yig‘ish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

3. Raqamli fiskal boshqaruv bosqichi

Hozirgi davrda fiskal siyosatni raqamlashtirish yanada rivojlanib, quyidagi texnologiyalarni o‘z ichiga olmoqda:



1-rasm. Fiskal siyosatni raqamlashtirish texnologiyalari

[105] Petraș, A. (2024). Digitalization of the tax system in Europe. Revista de Studii Financiare

[106] Aristovnik, A., Ravšelj, D., & Tomaževič, N. (2021). Tax and fiscal policy measures in digital transformation era during COVID-19 pandemic

Bu texnologiyalar soliq ma’lumotlarini real vaqt rejimida tahlil qilish, soliqdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash va fiskal siyosatni tezkor moslashtirish imkonini beradi.[107]

Raqamli fiskal boshqaruv quyidagi afzalliklarga ega:

-soliq tushumlarining oshishi. Elektron soliq tizimlari soliq to‘lovchilar faoliyatini aniq monitoring qilish imkonini beradi. Natijada yashirin iqtisodiyot qisqaradi;

-shaffoflik va hisobdorlik. Raqamli platformalar orqali davlat moliyaviy operatsiyalari ochiqroq bo‘ladi.

-ma’muriy xarajatlarning kamayishi. Avtomatlashtirilgan tizimlar soliq ma’muriyati xarajatlarini kamaytiradi.

-soliq to‘lovchilar uchun qulaylik. Elektron xizmatlar orqali soliq deklaratsiyalarini topshirish va to‘lovlarni amalga oshirish ancha osonlashadi.

Raqamlashtirish jarayonida quyidagi muammolar ham mavjud:

-texnologik infratuzilma yetishmasligi. Ba’zi davlatlarda raqamli infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan;

-kiberxavfsizlik muammolari. Raqamli fiskal tizimlar kiberhujumlar xavfiga duch kelishi mumkin;

-kadrlar malakasi. Raqamli texnologiyalarni boshqarish uchun malakali mutaxassislar zarur;

-huquqiy tartibga solish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq siyosatini tartibga soluvchi qonunchilikni doimiy yangilab borish talab etiladi.

Xulosa

Fiskal siyosatni raqamlashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar soliq ma’muriyati samaradorligini oshirib, davlat moliya tizimini yanada shaffof va samarali qilish imkonini beradi.

Fiskal siyosatni raqamlashtirish jarayonida sun’iy intellekt, blokcheyn va katta ma’lumotlar texnologiyalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, raqamlashtirish soliq yig‘imlarining oshishi, fiskal boshqaruv shaffofligining kuchayishi, davlat xizmatlarining sifatini yaxshilanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pylypenko, O., Matviienko, H., & Putintsev, A. (2022). Government tax policy in the digital economy. Cuestiones Políticas.
2. Dhaliwal, S. B., Sohail, D., & Keeley Hafer, S. A. (2023). Digitalization of tax administration: A review of the OECD guidelines. Journal of Accounting & Taxation.
3. Petraș, A. (2024). Digitalization of the tax system in Europe. Revista de Studii Financiare.
4. Von Haldenwang, C. (2020). Digitalising the fiscal contract: An interdisciplinary framework for empirical inquiry.
5. Lukianykhina, O., Suprunenko, S., & Slavkova, A. (2024). Digital innovations in fiscal policy for sustainable development.

[107] Huang, L. (2024). Quantifying taxation policy effectiveness: The role of big data and digitalization. Journal of Internet Services and Information Security

6. Cheng, Q., Chen, B., & Luo, J. (2024). The impact of digital tax administration on local government debt. Finance Research Letters.
7. Aristovnik, A., Ravšelj, D., & Tomaževič, N. (2021). Tax and fiscal policy measures in digital transformation era during COVID-19 pandemic.
8. Huang, L. (2024). Quantifying taxation policy effectiveness: The role of big data and digitalization. Journal of Internet Services and Information Security.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI

Abdusalomova Nodira Baxodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, Iqtisodiyot fanlari doktori
Samiyev Abdurashid Qahramonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
abdurashidjonsamiyev@gmail.com

Zamonaviy iqtisodiyotning dinamik o‘zgaruvchanligi sharoitida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (AI) tizimlari milliy xo‘jalik subyektlarining moslashuvchanligini ta’minlovchi asosiy vositaga aylandi. "Yangi O‘zbekiston 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat texnik yangilanish, balki boshqaruv sifatini tubdan o‘zgartiruvchi institutsional islohot sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global raqobat kuchaygan bir paytda, iqtisodiy barqarorlikni saqlash bevosita intellektual algoritmlar va ma’lumotlarga asoslangan tahliliy tizimlarning samarali joriy etilishiga bog‘liq.

Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, raqamli transformatsiya jarayonlari ishlab chiqarish unumdorligini oshirishning "eksponentsial drayveri" hisoblanadi. Sun’iy intellektning iqtisodiyotga tatbiq etilishi inson omili bilan bog‘liq subyektiv xatolar ehtimolini pasaytiradi va bozordagi talab hamda taklif muvozanatini real vaqt rejimida optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa kutilmagan iqtisodiy va siyosiy larzalar sharoitida resurslarni tezkorlik bilan qayta taqsimlash va makroiqtisodiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Raqamli ekotizimlar sharoitida iqtisodiy o‘sishning "yashil" va "aqlli" modellari o‘zaro integratsiyalashmoqda. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida energiya sarfini aqlli nazorat qilish, sanoat chiqindilarini minimallashtirish va ekologik toza ishlab chiqarish zanjirlarini yaratish mumkin. Bunday yondashuv iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda, aholi turmush darajasini oshirishning muhim omilidir. Biroq, ushbu transformatsiya jarayoni akademik erkinlik tamoyillari asosida shakllanadigan yangi avlod iqtisodchilari va ilmiy tadqiqotchilarning doimiy izlanishlarini talab etadi.

O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishda raqamli aktivlar va algoritmlarga asoslangan platformalar iqtisodiyoti alohida o‘rin tutadi. Bu tizimlar xufyona iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada kamaytirish, soliq va budjet tizimining shaffofligini oshirish hamda davlat boshqaruvining samaradorligini ta’minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy iqtisodiyot barqarorligini sun’iy intellekt texnologiyalari orqali mustahkamlash uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlar taklif

etiladi:

1. Raqamli infratuzilmani institutsionalizatsiya qilish: Sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomini belgilash va ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi javobgarlik chegaralarini qonuniy mustahkamlash.

2. "Aqlli iqtisodiyot" uchun kadrlar transformatsiyasi: Oliy ta’lim tizimida iqtisodiy kibernetika va sun’iy intellekt tahlili yo‘nalishlarini kengaytirish, mutaxassislarning texnologik kompetensiyalarini tizimli oshirib borish.

3. Ma’lumotlar xavfsizligi ekotizimini yaratish: Milliy iqtisodiy ma’lumotlarni kiber-tahdidlardan himoya qilishning ko‘p bosqichli tizimini joriy etish, bu orqali xalqaro investorlarning raqamli ishonchini oshirish.

4. Innovatsion faollikni rag‘batlantirish: Sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etuvchi korxonalar uchun imtiyozli kreditlash va maqsadli subsidiyalar ajratish mexanizmini soddalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismidir. Mazkur texnologiyalarni ilmiy asoslangan holda joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini va global miqyosda raqobatbardosh bo‘lishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent sh., 2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. Toshkent sh., 2021-yil 17-fevral, PQ-4996-son.

3. Jo`rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik..-T.:”Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” , 2024.-502 bet.

4. Acemoglu, D., & Restrepo, P. Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets. – Journal of Political Economy, 2020.

MIGRATSIYA VA MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH: YANGI O‘ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Paxriddinov Umidjon Mo‘minovich
Farg‘ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
umidjonaka6073@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada migratsiya va mehnat resurslarini boshqarish masalasi Yangi O‘zbekiston - 2030 strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va institutsional transformatsiyalar kontekstida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: migratsiya, mehnat resurslari, demografik dividend, inson kapitali, institutsional transformatsiya, Yangi O‘zbekiston - 2030 strategiyasi.

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonida mehnat migratsiyasi nafaqat demografik yoki iqtisodiy hodisa, balki jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab ijtimoiy-institutsional tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekiston sharoitida tashqi mehnat migratsiyasi aholi bandligini

ta’minlash, daromadlar manbaini diversifikatsiya qilish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning muhim omiliga aylangan. Shu bois so‘nggi yillarda ushbu sohani tartibga solish, institutsional boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda migrantlar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi[108].

Tadqiqot maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi migratsiya va mehnat resurslarini boshqarish jarayonlarini Yangi O‘zbekiston -2030 strategiyasi doirasida yuz berayotgan iqtisodiy hamda institutsional transformatsiyalar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari: Tadqiqotni tashkil etish jarayonida migratsiya va mehnat resurslarini boshqarishga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda strategik dasturlar tizimli ravishda o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ijtimoiy falsafa, institutsional iqtisodiyot hamda migratsiya nazariyalari integratsiyasiga tayanadi. Unda migratsiya jarayonlari dialektik yondashuv asosida uzluksiz o‘zgaruvchan ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilinadi, tizimli yondashuv orqali esa mehnat resurslari boshqaruvi iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy institutlar o‘zaro bog‘liqligida o‘rganiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ana shu maqsadlarni izchil amalga oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida orttirilgan tajriba hamda keng jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida O‘zbekiston - 2030 strategiyasi tasdiqlandi[109].

Mazkur strategiya sharoitida O‘zbekiston oldida turgan asosiy chaqiriqlardan biri - demografik dividenddan samarali foydalanish masalasidir. Aholining mehnatga layoqatli qatlami ulushining yuqoriligi iqtisodiy o‘sish uchun ulkan imkoniyat yaratishi mumkin. 2023-yil dekabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistondan mehnat migranti sifatida ketganlar soni qariyb 2 million kishini tashkil etgan bo‘lib, ularning asosiy qismi erkaklar hissasiga to‘g‘ri keladi[110]. Shu bilan birga, migrantlarning qaytish va chiqib ketish ko‘rsatkichlari ham yildan-yilga o‘zgarib bormoqda[111].

Bu holat migratsiya va mehnat resurslarini boshqarish masalasini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida ham ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Chunki migratsiya jarayonlari inson kapitali harakati, ijtimoiy tenglik, oila institutining barqarorligi hamda milliy mehnat bozori transformatsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

---

[108] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. *O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*. - Toshkent sh., 2018-yil 5-iyul, PQ-3839-son.

[109] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. *O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida*. - Toshkent, 2023.

[110] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari, 2023-yil dekabr holati.

[111] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Migratsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha rasmiy hisobot, 2022–2023-yillar.

to‘g‘risida kabi normativ-huquqiy hujjatlar migratsiya oqimlarini tartibga solish, noqonuniy migratsiyani qisqartirish, migrantlar huquqlarini himoya qilish va ularni qayta integratsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan[112].

Yangi O‘zbekiston - 2030 strategiyasi doirasida iqtisodiy va institutsional transformatsiyalar migratsiya siyosatini modernizatsiya qilishni, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutadi.

Xulosa: Yangi O‘zbekiston -2030 strategiyasi doirasida migratsiya va mehnat resurslarini boshqarish masalasi iqtisodiy modernizatsiya hamda institutsional islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demografik dividenddan samarali foydalanish, inson kapitalini rivojlantirish va mehnat migratsiyasini tartibli hamda qonuniy asosda boshqarish barqaror taraqqiyotning muhim shartidir. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv esa migratsiya jarayonlarini inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘un holda anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: PQ-3839-son. - Toshkent, 2018-yil 5-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida. - Toshkent, 2023.

3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Migratsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha rasmiy hisobot (2022-2023-yillar). - Toshkent, 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. 2023-yil dekabr holati bo‘yicha statistik axborot. - Toshkent, 2023.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OTMLARDA ORCID QAMROVI VA XALQARO ILMIY INTEGRATSIYA MUAMMOLARI

Arabov Ubaydullo Hamroqul o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: ubaydulloarabov9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim muassasalari (OTM) tadqiqotchilarining ORCID tizimiga qamrovi va bu qamrovning xalqaro ilmiy integratsiya bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Global va mintaqaviy statistika asosida ORCID qamrovining hududiy tafovutlari ko‘rsatiladi, O‘zbekiston OTMlarining Markaziy Osiyo kontekstidagi holati baholanadi. Institutsional ORCID siyosatini joriy etgan xorijiy universitetlar - Leiden, Aalto, KAIST va Tartu - tajribasi tahlil qilinib, O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi

[112] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. *O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*. - Toshkent, 2018-yil 5-iyul, PQ-3839-son.


Kalit soʻzlar: ORCID, xalqaro ilmiy integratsiya, raqamli iqtisodiyot, tadqiqotchi identifikatori, ilmiy ko‘rinuvchanlik, Scopus, Web of Science, OTM, O‘zbekiston, ilmiy ekotizim

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ilmiy bilim ishlab chiqarish va uning xalqaro muomalaga kiritilishi tobora ko‘proq raqamli identifikatsiya infratuzilmasiga tayanmoqda. Tadqiqotchining ilmiy faoliyati - maqolalari, iqtiboslari, loyihalardagi ishtiroki va xalqaro hamkorlik tarmoqlari - yagona raqamli identifikator bo‘lmasa, xalqaro ma’lumotlar bazalarida noto‘g‘ri atribusiyalanadi yoki umuman ko‘rinmas bo‘lib qoladi [1, b. 3–5]. Bu holat ayni paytda individual tadqiqotchi uchun ham, uning mansub OTMi uchun ham xalqaro reyting va hamkorlik imkoniyatlarini bevosita cheklovchi omilga aylangan.


ORCID (Open Researcher and Contributor ID) tizimi 2012 yilda notijorat tashkilot sifatida tashkil etilib, hozirda 17,3 million dan ortiq tadqiqotchi ushbu tizimda ro‘yxatdan o‘tgan [2, b. 8]. Scopus, Web of Science, CrossRef va Horizon Europe singari yirik xalqaro platformalar ORCID ni o‘zlarining standart talabiga aylantirgan. Bunday sharoitda ORCID qamrovining pastligi nafaqat ko‘rinuvchanlik, balki grant jalb qilish, xalqaro hamkorlik o‘rnatish va reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatlarini ham qo‘ldan berish demakdir [3, b. 21–23]. Ushbu tezisning maqsadi ORCID - tadqiqotchiga umr bo‘yi tegishli bo‘ladigan 16 xonali noyob raqamli identifikator bo‘lib, u nomning umumiy yoki orfografik variatsiyalari tufayli yuzaga keladigan atribusiya muammolarini bartaraf etadi. ORCID ning asosiy kuchi shundaki, u yagona ochiq standart sifatida barcha yirik ilmiy infratuzilmalar bilan ikki tomonlama ma’lumot almashish imkonini beradi.

Xalqaro integratsiya mexanizmlari nuqtai nazaridan ORCID besh asosiy platforma bilan bevosita bog‘langan. Scopus da ORCID orqali mualliflar profili avtomatik sinxronlanib, iqtibos statistikasi aniqroq hisoblanadi. Horizon Europe dasturida grant ariza topshirish uchun ORCID taqdim etish majburiy talab sifatida belgilangan, CrossRef esa DOI va ORCID birgalikdagi bog‘lanish orqali tadqiqotchi attributsiyasini to‘liq kuzatish imkonini yaratadi [4, b. 18–20].

ORCID tizimida ro‘yxatdan o‘tganlar soni 2012 yildagi 60 mingdan 2023 yilga kelib 17,3 millionga yetdi - bu o‘n bir yillik davrda 288 barobar o‘sishni anglatadi [2, b. 8]. Biroq bu global ko‘rsatkich mintaqalar bo‘yicha keskin farqlanadi: G‘arbiy Yevropa da tadqiqotchilarning 78 foizi ORCID ga ega bo‘lsa, Markaziy Osiyo da bu ko‘rsatkich 11 foizda qolib ketmoqda.




1-rasm. ORCID tizimida global ro‘yxatdan o‘tganlar soni dinamikasi, 2012–2023 (ORCID Inc., 2023, b. 8)



2-rasm. Mintaqalar bo‘yicha tadqiqotchilarning ORCID tizimiga qamrovi darajasi, 2023 (ORCID Inc., 2023, b. 12)

Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qozog‘iston 18 foiz bilan nisbatan yaxshi ko‘rsatkichni namoyon etsa-da, mintaqa o‘rtacha 11 foiz bilan dunyodagi eng past qamrov zonasida turibdi. O‘zbekiston 14 foizlik ko‘rsatkich bilan mintaqada o‘rtacha darajada bo‘lsa-da, bu absolyut raqamda xalqaro grant tizimlari va hamkorlik platformalariga kirish uchun yetarli infrastruktura emasligini ko‘rsatadi [5, b. 14–16]. Ayniqsa texnika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi OTMlarda Horizon Europe va NIH grantlari uchun ORCID talabi to‘siq bo‘lib qolmoqda.



3-rasm. Markaziy Osiyo davlatlarida tadqiqotchilarning ORCID qamrovi taqqoslamasi, 2023 (ORCID Inc., 2023;)

Institutsional ORCID siyosatini joriy etgan Leiden (Niderlandiya), Aalto (Finlandiya), KAIST (Janubiy Koreya) va Tartu (Estoniya) universitetlari tajribasi ushbu siyosatning xalqaro hamkorlik, Scopus indeksatsiyasi va grant jalb qilishdagi ijobiy ta’sirini aniq raqamlar bilan tasdiqlaydi. Xususan, Tartu universiteti ORCID ni HR tizimiga majburiy integratsiya qilgandan so‘ng xalqaro hamkorligi 51 foizga, grant jalb qilishi esa 39 foizga oshdi [6, b. 44–47].

ORCID tizimiga qamrov raqamli iqtisodiyot sharoitida OTMlarning xalqaro ilmiy ekotizimga integratsiyasini ta’minlovchi asosiy infratuzilma elementiga aylandi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, institutsional ORCID siyosati - ya’ni uni

HR tizimi, ilmiy faoliyat monitoringi va byudjet rag‘bati bilan bog‘lash - qisqa muddatda sezilarli natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meadows A. Implementing ORCID in Research Organizations // Learned Publishing. - 2016. - Vol. 29, №1. - B. 3–7.

2. ORCID Inc. ORCID Annual Report 2023. - Bethesda: ORCID Inc., 2023. - 44 b. [b. 8, 12]

3. Youtie J., Carley S., Porter A.L. Tracking researchers across time using ORCID // Journal of Informetrics. - 2017. - Vol. 11, №3. - B. 21–29.

4. European Commission. Horizon Europe Programme Guide. - Brussels: EC, 2023. - 118 b. [b. 18–20]

5. ORCID Inc. Regional Adoption Statistics 2023: Central Asia Focus. - Bethesda: ORCID Inc., 2023. - 28 b. [b. 14–16]

6. University of Tartu. Research Information Systems Annual Report 2022. - Tartu: UT Press, 2022. - 56 b. [b. 44–47]

7. Fenner M. et al. A Data Citation Roadmap for Scholarly Data Repositories // Scientific Data. - 2019. - Vol. 6, №1. - B. 1–9.

ИДЕИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ

А.Б.Мирзарахимова, PhD, старший преподаватель ТГЭУ
e-mail: azizamirzarakhimova@gmail.com

В настоящее время в мировой экономике происходят глубокие институциональные и технологические трансформации, обусловленные стремительным развитием цифровых технологий и их повсеместным внедрением во все сферы экономической деятельности [1]. Под воздействием данных процессов происходит качественное изменение традиционных экономических моделей, что приводит к формированию новой парадигмы — цифровой экономики.

Цифровая экономика представляет собой систему организации, управления и реализации экономических процессов, основанную на широком применении информационно-коммуникационных технологий [3]. Данная модель обеспечивает более эффективное использование ресурсов, снижение транзакционных издержек и расширение возможностей создания добавленной стоимости за счёт использования данных как ключевого производственного фактора [4].

На глобальном уровне развитие цифровой экономики усиливает конкурентную борьбу между странами и выступает одним из ключевых факторов обеспечения устойчивого экономического роста [2]. В этой связи теоретическое осмысление идей цифровой экономики и разработка механизмов их практической реализации приобретают особую научную и прикладную значимость.

Анализ научной литературы показывает, что, несмотря на разнообразие подходов к определению цифровой экономики, все трактовки сходятся в признании решающей роли цифровых технологий в трансформации экономических отношений [3]. В рамках данной работы обосновано, что данные выступают стратегическим ресурсом, определяющим эффективность функционирования современной экономики.

Ключевыми характеристиками цифровой экономики являются:

1. принятие управленческих решений на основе анализа данных;
2. автоматизация и оптимизация бизнес-процессов;
3. создание добавленной стоимости через цифровые платформы;
4. расширение и глобализация конкурентной среды [4].

В работе выявлено, что идеи цифровой экономики направлены на системную трансформацию хозяйственного механизма и реализуются по следующим основным направлениям.

Во-первых, цифровизация и автоматизация экономических процессов, способствующие снижению влияния человеческого фактора в производстве, сфере услуг и управлении, а также повышению общей эффективности экономической деятельности [2].

Во-вторых, развитие платформенной экономики, в рамках которой экономические отношения организуются через цифровые платформы, включая электронную коммерцию, маркетплейсы и различные онлайн-сервисы [6].

В-третьих, активное развитие финансовых технологий (финтех), обеспечивающих упрощение и ускорение финансовых операций за счёт внедрения цифровых платёжных систем, онлайн-банкинга и криптоактивов [7].

В-четвёртых, внедрение механизмов электронного правительства, способствующих повышению прозрачности, доступности и эффективности государственных услуг [8].

В-пятых, широкое использование передовых технологий, таких как искусственный интеллект, большие данные и блокчейн, которые формируют технологическую основу цифровой трансформации [5].

Обосновано, что развитие цифровой экономики оказывает комплексное влияние на повышение экономической эффективности. К её ключевым преимуществам относятся:

1. снижение транзакционных издержек;
2. ускорение производственных и управленческих процессов;
3. формирование новых рынков и бизнес-моделей;
4. рост производительности труда;
5. стимулирование инновационной активности [4].

В последние годы развитие цифровой экономики в Республике Узбекистан определено в качестве приоритетного направления государственной политики [9]. В стране последовательно реализуется комплекс мер по цифровой трансформации, направленных на модернизацию

ключевых отраслей экономики, повышение эффективности государственного управления и улучшение качества жизни населения.

Важным этапом в данном направлении стало принятие стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», которая определяет долгосрочные ориентиры развития цифровой инфраструктуры, электронного правительства и цифровых услуг. Реализация данной стратегии предусматривает комплексный подход к цифровизации, охватывающий как государственный, так и частный сектора экономики.

Особое внимание уделяется развитию телекоммуникационной инфраструктуры, включая расширение широкополосного доступа к сети Интернет, повышение качества и скорости связи, а также внедрение современных технологий передачи данных. Это создаёт необходимую основу для формирования цифровой среды и расширения доступа населения и бизнеса к цифровым услугам.

Существенные преобразования происходят в сфере государственного управления. Активно внедряются механизмы электронного правительства, направленные на повышение прозрачности, сокращение административных барьеров и оптимизацию взаимодействия между государством, бизнесом и гражданами. Расширяется перечень государственных услуг, предоставляемых в электронном формате, что способствует повышению их доступности и снижению временных и финансовых затрат пользователей.

Значительное развитие наблюдается в финансовом секторе, где активно внедряются цифровые платёжные системы, мобильный банкинг и другие финтех-решения. Это способствует повышению финансовой доступности, ускорению денежных операций и развитию безналичной экономики.

Кроме того, в стране реализуются меры по стимулированию развития IT-сектора и цифрового предпринимательства. Создаются специализированные технопарки, бизнес-инкубаторы и акселерационные программы, направленные на поддержку стартапов и инновационных проектов. Особое значение придаётся развитию экспорта IT-услуг и интеграции национального цифрового рынка в глобальную экономическую систему.

Важным направлением государственной политики является развитие человеческого капитала в сфере цифровых технологий. Усиливается подготовка специалистов в области информационных технологий, внедряются образовательные программы по цифровым навыкам, программированию и анализу данных. Это направлено на формирование кадрового потенциала, способного обеспечить устойчивое развитие цифровой экономики.

Таким образом, реализуемая в Республике Узбекистан политика цифровой трансформации носит системный и комплексный характер, охватывая инфраструктурные, институциональные и кадровые аспекты. Это создаёт предпосылки для повышения конкурентоспособности национальной экономики и её успешной интеграции в глобальное цифровое пространство.

Список литературы

1. Negroponte N. Being Digital. — New York: Knopf, 1995.

2. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1996.

3. Bukht R., Heeks R. Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy // International Organisations Research Journal. — 2017. — Vol. 13, № 2.

4. OECD. Digital Economy Outlook 2020. — Paris: OECD Publishing, 2020.

5. World Bank. World Development Report 2016: Digital Dividends. — Washington, DC, 2016.

6. Parker G., Van Alstyne M., Choudary S. Platform Revolution. — New York: W.W. Norton & Company, 2016.

7. Gomber P., Koch J.-A., Siering M. Digital Finance and FinTech // Journal of Business Economics. — 2017. — Vol. 87.

8. United Nations. E-Government Survey 2022. — New York: UN, 2022.

9. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6079 «О стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030”». — Ташкент, 2020.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ: ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА, ЦИФРОВИЗАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Давлетова Холисахон Рахимджановна
Старший преподаватель Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
e-mail: holisa23459@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются современные направления развития экономики - искусственный интеллект, зелёная экономика и цифровая экономика. Анализируется их сущность, ключевые принципы, а также взаимное влияние в условиях глобальной трансформации хозяйственных систем. Особое внимание уделяется роли инноваций, устойчивого развития и цифровизации в формировании новой экономической парадигмы.

Ключевые слова. искусственный интеллект, зелёная экономика, цифровая экономика, устойчивое развитие, инновации.

Введение. Современный этап развития мировой экономики характеризуется глубокими структурными изменениями, обусловленными технологическим прогрессом, экологическими вызовами и цифровой трансформацией. В этих условиях особое значение приобретают три взаимосвязанных направления: искусственный интеллект, зелёная экономика и цифровая экономика. Их интеграция формирует основу устойчивого и инновационного развития общества.

1. Сущность искусственного интеллекта в экономике. Искусственный интеллект представляет собой совокупность технологий, позволяющих моделировать когнитивные функции человека. В экономике он применяется для автоматизации процессов, анализа больших данных и повышения эффективности управления.

Основные функции ИИ:

- оптимизация бизнес-процессов
- прогнозирование экономических показателей
- повышение производительности труда

2. Концепция зелёной экономики. Зелёная экономика ориентирована на снижение экологических рисков и рациональное использование природных ресурсов. Она предполагает переход к экологически чистым технологиям и устойчивым моделям производства.

Основные принципы:

- снижение выбросов углерода
- энергоэффективность
- использование возобновляемых источников энергии

3. Цифровая экономика как основа трансформации. Цифровая экономика характеризуется широким использованием цифровых технологий во всех сферах хозяйственной деятельности. Она способствует ускорению экономических процессов и повышению конкурентоспособности.

Ключевые элементы:

- электронная коммерция
- цифровые платформы
- большие данные и облачные технологии

Таблица 1.

Сравнительная характеристика концепций

Критерий	Искусственный интеллект	Зелёная экономика	Цифровая экономика
Основная цель	Автоматизация и эффективность	Экологическая устойчивость	Цифровизация процессов
Основной ресурс	Данные	Природные ресурсы	Информация
Инструменты	Машинное обучение, алгоритмы	Возобновляемая энергия	Интернет, платформы
Результат	Рост производительности	Снижение экологического ущерба	Ускорение экономики

4. Взаимосвязь и синергия концепций

Современные экономические процессы демонстрируют тесную взаимосвязь между рассматриваемыми направлениями. Искусственный интеллект способствует развитию цифровой экономики, а цифровизация, в свою очередь, создаёт условия для реализации принципов зелёной экономики. Например:

- ИИ оптимизирует энергопотребление
- цифровые технологии снижают издержки производства
- зелёные инновации поддерживаются цифровыми платформами

Таблица 2.

Взаимодействие направлений

Направление	Вклад в другие сферы
Искусственный интеллект	Повышает эффективность цифровой и зелёной экономики
Цифровая экономика	Обеспечивает инфраструктуру для ИИ и устойчивого развития

Зелёная экономика	Определяет экологические стандарты для технологий

5. Проблемы и перспективы развития. Несмотря на значительные преимущества, данные концепции сталкиваются с рядом проблем:

- высокая стоимость внедрения технологий
- недостаток квалифицированных кадров
- экологические и этические риски

В перспективе ожидается:

- усиление роли ИИ в управлении экономикой
- расширение зелёных технологий
- глобальная цифровая интеграция

Заключение. Таким образом, искусственный интеллект, зелёная и цифровая экономика представляют собой ключевые элементы современной экономической системы. Их интеграция способствует формированию устойчивой, инновационной и эффективной модели развития. В условиях глобализации и технологических изменений данные направления будут играть определяющую роль в будущем мировой экономики.

Список литературы:

1. Шваб К. Четвёртая промышленная революция. — М.: Эксмо, 2017
2. Schwab K. Shaping the Fourth Industrial Revolution. — World Economic Forum, 2018.
3. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. — New York: W.W. Norton, 2014.
4. Rifkin J. The Green New Deal. — New York: St. Martin’s Press, 2019.
5. Acemoglu D., Restrepo P. Artificial Intelligence and Jobs: Evidence from the US. — NBER Working Paper, 2020.
6. OECD. Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. — Paris, 2019.
7. World Bank. Digital Dividends. — Washington, 2016.
8. United Nations. Sustainable Development Goals Report. — New York, 2023.
9. Porter M., Heppelmann J. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. — Harvard Business Review, 2014.
10. G20. Digital Economy Development and Cooperation Report. — 2022.
11. European Commission. Green Deal Strategy. — Brussels, 2020.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТУЗИЛМАСИГА ТАЪСИРИ

Ахмедов Хасанжон Мухамадович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчиси
e-mail: *x.axmedov@xb.uz*

Кириш

Мамлакатимизда 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва аҳоли фаровонлигини оширишга катта таъсир кўрсатадиган янги технологик уклад талабларига мос келувчи иқтисодиётнинг

институтционал таркибий тузилмасини трансформациялаш, сунъий интеллект ёрдамида ресурсларни оқилона тақсимлаш ва трансакцион харажатларни пасайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Маъмурий ислоҳотларнинг иккинчи босқичи сифатида келгуси йилда ҳудудлардаги бошқарув тизими ҳам ислоҳ қилинади. Барча маъмурий ислоҳотлар доирасидаги янги ташаббуслар Конституциямизда албатта белгилаб қўйилиши лозим[113]. Миллий иқтисодиётда янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқаришни институтционал таркибий тузилмасини шакллантириш, юқори технологияли ишлаб чиқаришни ривожлантириш, билимларнинг жадал равишда инновацион маҳсулотга айланишини рағбатлантириш, мавжуд ресурсларни қайта тақсимлашга имкон берувчи ваколатли молиялаштириш механизмини яратиш зарурати вужудга келмоқда.

Адабиётлар шархи

Д.Норт ва Л.Девисларнинг фикрига кўра, институционал муҳит – бу асосий сиёсий, ижтимоий ва ҳуқуқий қоидалар мажмуи бўлиб улар ишлаб чиқариш, айрбошлаш ва тақсимот учун баъзис яратади[114].

Рус олими О.С.Сухаревнинг фикрига кўра, "мавжуд технологик асос, минтақавий эҳтиёжлар, мавжуд ресурслар ва эришилган меҳнат унумдорлиги даражасига мувофиқ такрор ишлаб чиқариш, тарқатиш ва алмашиш механизмлари таъсири остида юзага келадиган ўзаро боғлиқ нисбатлардаги ўзгаришларнинг мураккаб тизими[115].

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан профессор Маматов А.А., Жўраев Т.Т**.** “Индустриал жамиятдан постиндустриал жамиятга ўтиш, жамият ҳаётида туб ўзгаришлар билан боғлиқ бўлиб, унда инновацияларни кенг яратиш ва жорий этишга асосланган янги иқтисодий тизим моделига ўтиш билан амалга ошмоқда[116].

Тадқиқот методологияси.

Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларидан фойдаланилади

Асосий тахлил ва натижалар

Жаҳон саноатида технологияларнинг ҳаётий циклини қисқаришида намоён бўладиган илмий ва технологик ривожланишнинг глобал тенденциялари, илмий билимларни жамғариш суръати, юқори фан сиғимли технологияларнинг тарқалиш тамойиллари хамда институционал муҳитдаги ўзгаришлар хом-ашё экспорт моделига асосланган иқтисодиётнинг институционал таркибий тузилмасини такомиллаштиришни долзарб қилиб

---

[113] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси 21.12. 2022 йил.

[114] Davis L., North D. Institutional Change and American Economic Growth. –Cambridge, 1971. –pp. 5-6.

[115] Сухарев О. С. Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения. –М.: Финансы и статистика, 2010. –С. 34.

[116] Маматов А.А., Жўраев Т.Т. Қ л а с терларни ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини йўлга қўйишнинг хориж тажрибаси. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” электрон журнали. №1, 2020. –Б.12.

кун тартибига қўймоқда.

Фан-техника тараққиёти ва иқтисодий ривожланиш таъсири остида бозор иқтисодиёти қоидаларида, бизнес юритиш қоидаларида, анъанавий иқтисодий қоидалар ва қонуниятларнинг янгича намоён бўлишида жиддий ўзгаришлар рўй бермоқда. Инновация тизими фан, техника, иқтисодиёт, тадбиркорлик ва менежмент тамойилларини маълум бир нуқтада бирлаштирувчи тизим бўлиб, бунинг натижасида илмий ғоялар ҳамда лойиҳаларнинг инновацион маҳсулотга айланиш даври тезлашади. Шунинг учун жаҳон амалиётида ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар учун инновация тизимини ривожлантириш энг муҳим устувор стратегиялардан бири ҳисобланади[117].

Инновацион тизим, тизимнинг марказий элементи сифатида инновацион корхоналарни, ҳамда инновацион корхона фаолият кўрсатишининг асосий босқичларини акс эттирувчи ва инфратузилмага мансуб бўлган элементлар гуруҳини, шу билан бир қаторда яна фаолият юритишнинг у ёки бу босқичларини маълум даражада енгилллаштирувчи ва давлат, илм-фан ва бизнеснинг кооперациясига имкон берувчи ташкилотларни ҳам ўз ичига олади[118].

Илмий-техника тараққиёти доирасида институтлар ривожланишнинг асосий омилларидан бири бўлиб, уларни такомиллаштириш технологик бўшлиқни бартараф этишнинг мақсадли вазифаси ҳисобланади. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодиётини институционал жиҳатдан такомиллаштиришнинг устувор йўналишларига қуйидагиларни таклиф этиш мумкин:

- Қонунчилик базасини такомиллаштириш ва мулкий ҳуқуқлар тизимидаги бюрократик тўсиқларни бартараф этиш;
- икки томонлама стандартлар сиёсатини бартараф этиш: бозор иштирокчиларининг турли гуруҳлари учун ягона қоидалар ва тамойилларни яратиш;
- давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш инструментлари ва турларини шакллантириш;
- юқори технологияли саноат соҳасида фаолият кўрсатаётган корхоналарга давлат томонидан кўмак бериш;
- қулай инвестиция муҳитини яратиш;
- илмий натижалар ва технологияларни иқтисодиётнинг реал секторини модернизациялаш жараёнларига ўтказиш ва диффузиялашни осонлаштирувчи инфратузилмани ташкил этиш;
- илмий этика тамойилларига амал қилган ҳолда жамиятга инвестиция қилиш маданиятини ривожлантириш.

Институционал ривожланишнинг белгиланган векторлари тизимида ишлаб чиқаришни саноат занжирларини шакллантириш ва саноатнинг жадал шаклланишини янги юқори фан сиғимли технологиялар асосида тармоқ

[117] Ашуров М.С., Курпаяниди К.И. Миллий инновация тизимини шакллантиришнинг айрим муаммолари ва ечимлари. “Логистика ва иқтисодиёт” журнали Т. 2021 йил №3 –Б.112.

Oziq-ovqat chiqindilari haqida ortib borayotgan xavotir sharoitida, oziq-ovqat mahsulotlarining foydalanish muddatini uzaytirish va sifatini saqlash uchun innovatsion qadoqlash yechimlari ishlab chiqilmoqda. Masalan, oziq-ovqatning buzilishini aniqlovchi sensorlar kabi aqlli qadoqlash iste’molchilarga oziq-ovqat xavfsiz bo‘lmagan paytda ogohlantirish orqali chiqindilarni kamaytirishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, yuqori bosim ostida ishlov berish va mikroto‘lqinli sterilizatsiya kabi konservalash texnologiyalari yutuqlari sun’iy konservantlarsiz oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash muddatini uzaytirishga imkon beradi.

Biroq, shuni ta’kidlash muhimki, bu tendensiyalar va innovatsiyalar katta istiqbolga ega bo‘lsa-da, hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar va etnik masalalar ham mavjud. Yangi texnologiyalarning inson salomatligi va atrof-muhitga uzoq muddatli ta’sirini ehtiyotkorlik bilan baholash zarur. Bundan tashqari, ushbu yutuqlarga faqat tanlanganlar emas, barcha uchun kirish imkoniyatini ta’minlash lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oziq-ovqat texnologiyalarining kelajagi muammo va imkoniyatlarga boy. Yuqorida muhokama qilingan tendensiyalar va innovatsiyalar yaqin yillarda bizni kutayotgan yangi tehnologiyalarning faqat kichik bir qismini tashkil etadi. Barqaror va oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlangan kelajak sari intilar ekanmiz, bu yutuqlardan foydalanish muhim, shu bilan birga ularning jamiyat va atrof-muhitga ta’sirini sinchiklab hisobga olish zarur. Texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, biz oziq-ovqat ishlab chiqarish samarali, barqaror va inklyuziv bo‘lgan kelajakni yaratishimiz mumkin.

Tadqiqotning asosiy muammolari tahlil qilindi, jumladan: smart texnologiyalar narxining yuqoriligi, internet infratuzilmasining cheklanganligi, mutaxassis kadrlar yetishmasligi, raqamli savodxonlik pastligi; moliyalashtirish mexanizmlarining sustligi bilan izohlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini pasterizatsiya yoki sterilizatsiya qilish maqsadida yuqori bosimdan foydalanish ham istiqbolli texnologiya sifatida ko‘rib chiqildi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, oziq-ovqat qadoqlash sohasida ko‘plab yangi ishlanmalar mavjud. Innovatsion qadoqlashlar biohal qilinadigan, faol, aqlli yoki qayta ishlatiladigan bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning innovatsion tehnologiyalardan foydalanish quyidagi takliflarni:

Davlat–xususiy sheriklik asosida subsidiyalar joriy etish;

“Smart Agriculture Center”lar tashkil etish;

Kadrlar tayyorlashda “Agroinformatika” yo‘nalishini rivojlantirish;

Har bir viloyatda smart pilot hududlar yaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O‘ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni,

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risidagi PQ-5009-son Qarori.

4.Per Pinstrup-Andersen Food Policy for Developing Countries: The Role of Government in Global, National, and Local Food Systems. Cornell University Press, 2011.210 p.

5.Timothy Lang Food Wars: The Global Battle for Mouths, Minds and Markets. Routledge, 2015. 33-68p.

6.C. Peter Timmer Food Security and Scarcity: Why Ending Hunger Is So Hard. University of Pennsylvania Press, 2015. 45-92p.

7.M. Swinnen & J. McDermott Food Security, Economic Development, and Conflict. IFPRI Research Paper, 2020. 22-79 p.

8.Maximo Torero The State of Food Security and Nutrition in the World. FAO Annual Report, 2023.287 p.

9.Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. va boshqalar. Oziq-ovqat xavfsizligi. 2-bo‘lim / - M.: Bilim, 2011-101. b.

10.Balabanov V.S., Borisenko E.N. Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar. – M.: Iqtisodiyot, 2012. – B. 22 б.

11.Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: «Akademiya», 2012- 351 б.

12.Aliev Ya.E. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari” Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali ii son. mart-aprel, 2020 198-b

13.Расулов Т.С. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари. Монография. – Т.: “ Fan va texnologiya”, 2017,-152 б.;

14.Xo‘jageldiev Ch.P. Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag‘batlantirish. avt..... i.f.d. T.: 2022.-56 b.

15. Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok .....dis. - T.: «Tipograff» MCHJ. 2023.-70 b.

16. Rustamova I.B. Agrar soxada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy uslubiy asoslari. avt .....i.f.d. T.: 2020. - 77 b.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI: INSTITUTSIONAL SHAROITLAR VA SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI

Xotamov Alisher Xotamjon o‘g‘li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD.
e-mail: alisher_xotamov@mail.ru
Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
e-mail: bonubotirjonova164@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish mexanizmlari, ularni amalga oshirish uchun yaratilgan institutsional sharoitlar hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamlashtirish jarayonining normativ-huquqiy asoslari, xususan 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 farmoni doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, elektron hukumat tizimi, IT-parklar faoliyati, axborot tizimlari integratsiyasi va raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri baholanadi. Ishda raqamlashtirish natijasida boshqaruv samaradorligi oshishi, tranzaksiya xarajatlarining kamayishi va iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari mamlakatda raqamli transformatsiyani yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Abstract. This thesis analyzes the mechanisms of digitization of the economy of Uzbekistan, the institutional conditions created for their implementation, and performance indicators. The study examines the regulatory and legal framework of the digitization process, in particular, the measures being implemented within the framework of Decree PF-6079 of October 5, 2020. It also assesses the impact of the e-government system, the activities of IT parks, the integration of information systems, and digital infrastructure on economic efficiency. The work substantiates the fact that digitization will increase management efficiency, reduce transaction costs, and have a positive impact on economic growth. The results of the study will serve to develop scientific and practical conclusions on further improving digital transformation in the country.

Kirish

Raqamlashtirish hozirgi globallashgan iqtisodiy muhitda davlatlar iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim vositaga aylangan. Raqamli texnologiyalar, elektron hukumat xizmatlari va innovatsion infratuzilma joriy etilishi orqali iqtisodiy samaradorlik, xizmatlarning sifati va raqamli bozorning kengayishi sezilarli darajada oshmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham bu jarayonda faol ishtirok etib, iqtisodiyotni raqamlashtirishga qaratilgan strategik hujjatlarni amaliyotga tatbiq qilmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli moliya va xizmatlar tizimlari jadal ravishda rivojlanmoqda. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotining samaradorligini oshirish,

davlat xizmatlarini soddalashtirish va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar O‘zbekiston sharoitida raqamlashtirish strategiyasining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qildi, bu esa mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Natijada, raqamlashtirish mexanizmlari va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini izchil tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda butun dunyo davlatlari raqobatbardosh bo‘lish uchun iqtisodiyotini raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmay, iqtisodiyotning barcha sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni ustuvor vazifasi qilib belgiladi. Xususan, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 farmoni mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim bosqichini boshlab berdi.

Asosiy qism

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.[148]

“Agar davlat boshqaruvi, soliq tizimi, tibbiyot yoki ta’lim jarayonlari to‘liq raqamlashtirilsa, bu iqtisodiyotga qanday ta’sir qiladi, hamda bu shunchaki qulaylikmi yoki haqiqiy iqtisodiy o‘sish omilimi?” degan savol ko‘pchilikni qiziqtirsa kerak. Bu o‘zgarishlar oddiy texnik yangilanish emas. Raqamlashtirish jarayonida boshqaruv tezlashadi, inson omiliga bog‘liq xatolar kamayadi, qog‘ozbozlik kamayib, shaffoflik ortadi. Natijada esa vaqt tejaladi, xarajatlar kamayadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Demak, raqamlashtirish mexanizmlari faqat qulaylik yaratib qolmay, balki iqtisodiy natija beradigan omilga aylanadi, ammo bu jarayon o‘z-o‘zidan samarali bo‘lib qolmaydi. Buning uchun mustahkam institutsional sharoit, ya’ni qonunlar, davlat dasturlari, infratuzilma va malakali kadrlar kerak. Shuning uchun ham raqamlashtirish mexanizmlari, ularni qo‘llab-quvvatlaydigan institutsional muhit va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masaladir. Shu o‘rinda bir savol yuzaga keladi`, “Raqamlashtirish jarayoni mamlakat iqtisodiyotini haqiqatan ham yangi bosqichga olib chiqa oladimi?”

Raqamlashtirish jarayoni jamiyat va iqtisodiyot rivojlanish sur’atlarini belgilaydi. Bugungi kunda “raqamli iqtisodiyot” to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omiliga aylangan. Bu

[148] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

jarayonda qarorlarni avtomatlashtirish va raqamli yechimlarni qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotda erishilgan yutuqlarga tayanib, mamlakatda bu sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng imkoniyatlar mavjud. Qishloq joylarda internet qamrovi va tezligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. IT-kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida ta’lim tizimida zamonaviy raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Kiberxavfsizlik sohasida esa xavflarni kamaytirish uchun milliy axborot tizimlarini himoyalash darajasi oshirilmoqda, startap loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirilmoqda.[149]

Raqamli iqtisodiyotdagi bu yutuqlar mamlakatning rivojlanish salohiyatini oshiradi. Internet va infratuzilmani rivojlantirish qishloqlarda ham raqamli xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi, ta’lim orqali IT-kadrlar tayyorlash esa sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Kiberxavfsizlik va startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari esa raqamli iqtisodiyotning xavfsiz va samarali ishlashini kafolatlaydi. Shu tariqa texnologiya, ta’lim va xavfsizlik birgalikda raqamli iqtisodiyotni yanada kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq,raqamli transformatsiya kun tartibi, ayniqsa, “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”da yetarlicha hal etilmagan muhim masala bo‘lgan kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Faqat 2022 yilda mamlakatda kiberxavfsizlikka qaratilgan maxsus qonunlar qabul qilindi. Biroq, ushbu qonunchilik hali ham turli sohalarga oid qonun-qoidalarini to‘liq birlashtirishni talab qiladi. 2023-yilda Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi muhim axborot infratuzilmasi ob’ektlarining kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qo‘shimcha qarori e’lon qilindi.[150] Shu tariqa, texnologiya, ta’lim va xavfsizlikning uyg‘unlashuvi raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlaydigan asosiy omilga aylanadi.

Hukumat tomonidan Kiberxavfsizlik markazi tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan nazorat qilinadi. Biroq markazda yetarlicha yuqori darajadagi texnik mutaxassislar yetishmaydi va uning resurslari birinchi navbatda muhim hukumat infratuzilmasini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu yondashuv markazning korxonalar va tashkilotlarga konsalting xizmatlarini ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lishiga qaramay, hukumat hali kiberxavfsizlikni keng ijtimoiy muammo sifatida ko‘rmasligini ko‘rsatadi.[151] Ushbu parcha kiberxavfsizlik masalalarining O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi. Kiberxavfsizlik markazi tashkil etilgan bo‘lsa-da, uning resurslari va mutaxassislar soni yetarli emasligi,

[149] Saidrahmatova Z. “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi”.
[150] O‘zbekiston Respublikasi Raqamlashtirish vazirligi. “Raqamli O‘zbekiston –2030” dasturi bo‘yicha hisobot. Toshkent, 2022.
[151] O‘zbekiston Respublikasi Raqamlashtirish vazirligi. “Raqamli O‘zbekiston –2030” dasturi bo‘yicha hisobot. Toshkent, 2022

shuningdek, resurslar asosan hukumat infratuzilmasini himoya qilishga qaratilgani, raqamli transformatsiya samaradorligiga to‘sqinlik qilmoqda.

Bu shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot mexanizmlarini samarali ishlashi uchun faqat texnologiya joriy etish kifoya qilmaydi; ular uchun mustahkam institutsional sharoit, malakali kadrlar va keng ijtimoiy yondashuv zarur. Shu sababli, kiberxavfsizlikni nafaqat hukumat, balki korxonalar va ijtimoiy tizimlar darajasida ham muhim masala sifatida ko‘rib chiqish, raqamli xizmatlar samaradorligini oshirish va iqtisodiy foydani maksimal darajaga chiqarish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi ko‘plab ichki va tashqi omillar bilan bevosita bog‘liq. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin. Texnologik omillar - internet va mobil tarmoqlar infratuzilmasining rivojlanishi, kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta’minotning takomillashuvi, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar hamda “big data”dan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi.Ijtimoiy omillar — aholining axborot-kommunikatsiya savodxonligi darajasi, yoshlar orasida IT-mutaxassislar sonining ortishi, onlayn xizmatlardan foydalanish madaniyatining shakllanishi.Institutsional omillar — davlat siyosati va huquqiy-me’yoriy bazaning (elektron hukumat, elektron tijorat to‘g‘risidagi qonunlar) takomillashtirilishi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan milliy dasturlar (masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi), shuningdek davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar.[152]

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Texnologik rivojlanish internet, mobil tarmoqlar, kompyuter texnologiyalari va sun’iy intellekt orqali amalga oshadi. Ijtimoiy omillar esa aholining raqamli savodxonligi, IT-mutaxassislar soni va onlayn xizmatlardan foydalanish madaniyatini oshiradi. Institutsional omillar davlat siyosati, qonunlar va milliy dasturlar hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali raqamli iqtisodiyotning barqaror shakllanishini ta’minlaydi. Shu tariqa, texnologiya, jamiyat va institutlarning birgalikdagi ta’siri raqamli iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayoni mamlakatning kelajakdagi rivojlanish sur’atlarini belgilovchi strategik omilga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat davlat boshqaruvi va xizmatlar sifatini oshirish, balki iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish, byudjet xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. PF-6079 farmoni va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslarini yaratadi. Shu bilan birga, texnologik omillar - internet va mobil tarmoqlar, kompyuter texnologiyalari, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va “big data” ning keng qo‘llanilishi bizga raqamli iqtisodiyotning samarali ishlashiga yordam beradi. Yuqorida ta’kidlangan Ijtimoiy omillar, ya’ni aholining raqamli savodxonligi, yoshlar orasida IT-mutaxassislar sonining ortishi va onlayn xizmatlardan foydalanish madaniyati, raqamli

[152] Saidrahmatova Z. “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi”.

xizmatlarning joriy etilishi va keng qamrovini kafolatlaydi. Institutsional omillar, jumladan davlat siyosati, qonunlar, milliy dasturlar va davlat-xususiy sheriklik loyihalari, raqamli iqtisodiyotni barqaror shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik masalalari, malakali IT-kadrlar tayyorlash va startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari raqamli transformatsiyaning xavfsiz va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Umuman olganda, texnologiya, ta’lim, xavfsizlik va institutsional qo‘llab-quvvatlovning uyg‘unlashuvi O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish, global raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtirish uchun asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yangilanish, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi strategik jarayon sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydangan adabiyotlar

1. Nurbek Xatamov. “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlili”
2. Saidrahmatova Z. “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Raqamlashtirish vazirligi. “Raqamli O‘zbekiston –2030” dasturi bo‘yicha hisobot. Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
5. Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb sayti.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI ZAMONAVIY DASTURLAR ORQALI YURITISH VA TASHKIL ETISH

Misirov Xurshid Mamasobirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
e-mail: misirovxurshid44@gmail.com

Anotasiya. Xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini zamonaviy dasturlar orqali yuritish va tashkil etish jarayoni bugungi kunda raqamlashtirish, avtomatlashtirish va integratsiyalashuv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu esa korxonalarda moliyaviy axborotlarni tezkor, aniq va shaffof tarzda yuritish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, buxgalteriya hisobi, zamonaviy dasturlar, xizmat ko‘rsatish turlari, daromad, xarajat, zamonaviy usullar, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, integratsiya, axamiyati va muhimligi.

Kipish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohalari iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri, balki aholi bandligini ta’minlash, turmush darajasini oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishida davlat tomonidan yaratilayotgan qulay sharoitlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish muhim omillardan hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasi global iqtisodiyotda yetakchi o‘rin egallab, jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 70 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda esa ushbu ko‘rsatkich 60–80 foiz atrofida bo‘lib, xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sishning asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur sohaning rivojlanishiga raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, moliya, turizm va sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarning kengayib borayotgani sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasi yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining turmush sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham xizmat ko‘rsatish sohasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida rivojlantirilmoqda. Xususan, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son Qonuni buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobot tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qonun doirasida xizmat ko‘rsatish sohasida moliyaviy hisobni to‘g‘ri yuritish, shaffoflikni ta’minlash va iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning murakkab va o‘ziga xos tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning asosiy xususiyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotning nomoddiyligidadir. Ya’ni, xizmat ko‘rsatish jarayonida yaratilgan qiymat moddiy shaklda ifodalanmaydi, balki iste’mol jarayoni bilan bir vaqtda yuzaga keladi. Bu esa ushbu sohada buxgalteriya hisobini yuritishda o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiladi, xususan xizmat sifatini baholash, daromad va xarajatlarni aniqlash hamda moliyaviy natijalarni shakllantirishda murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

Shu bois, xizmat ko‘rsatish sohasida buxgalteriya hisobini zamonaviy dasturlar asosida tashkil etish va yuritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarning aniqligi va shaffofligini oshirish, real vaqt rejimida tahlil olib borish hamda boshqaruv samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi.

1-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini zamonaviy dasturlar orqali yuritish va tashkil etishda muammolar va yechimlar

Mavjud muammolar	Sabablari	Taklif etilayotgan yechimlar
Raqamlashtirish darajasi past	Qog‘oz tizimga bog‘liqlik	To‘liq avtomatlashtirilgan tizimlarga o‘tish
Malakali kadrlar yetishmasligi	Axborot texnolagiya bo‘yicha bilimlar kamligi	Kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlash
Integratsiya muammolari	Tizimlar mos emas	Yagona platformalar joriy etish
Inson omili	Yangi texnologiyaga qarshilik	Motivatsiya va treninglar
Ma’lumotlar aniqligi past	Qo‘lda kiritish	Avtomatik ma’lumot almashinuvi

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida buxgalteriya hisobini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar va zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan, ushbu ishda xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini zamonaviy

dasturlar orqali yuritish va tashkil etish masalalari chuqur tahlil qilinadi hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Xulosa va takliflar

Xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini zamonaviy dasturlar orqali yuritish bugungi kunda korxonalarning samaradorligi, aniqligi va tezkorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy buxgalteriya dasturlari hisob-kitob jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, ularni avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytiradi hamda xatoliklar ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradi.

Shuningdek, ushbu tizimlar rahbarlarga real vaqt rejimida moliyaviy holatni kuzatish, daromad va xarajatlarni tahlil qilish hamda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish, diversifikatsiyalash, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ularning raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini kuchaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobini zamonaviylashtirish iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

Biroq, amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud: raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi, malakali kadrlar tanqisligi, tizimlararo integratsiya muammolari, avtomatlashtirishga qarshilik hamda ma’lumotlar aniqligi va shaffofligi bilan bog‘liq kamchiliklar bu jarayonning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini zamonaviy dasturlar orqali yuritish va tashkil etish bo‘ycha takliflar.

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.Raqamli iqtisodiyot va raqamli xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun ularning huquqiy maqomi, mazmuni va tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilovchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish zarur. Bu xizmatlar bozorining izchil rivojlanishini ta’minlaydi.

2. Raqamlashtirish darajasini oshirish.Korxonalarda qog‘oz hujjatlardan to‘liq voz kechib, zamonaviy buxgalteriya dasturlari, onlayn-nazorat kassa mashinalari va virtual kassalarni keng joriy etish zarur.

3. Tizimlararo integratsiyani kuchaytirish. Buxgalteriya tizimlarini bank, soliq va ombor tizimlari bilan to‘liq integratsiya qilish orqali ma’lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish va tezlashtirish lozim.

4. Malakali kadrlar tayyorlash.Zamonaviy buxgalteriya dasturlarini mukammal biladigan mutaxassislarni tayyorlash va mavjud kadrlarning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

5. Moliyaviy tahlil va risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish. Real vaqt rejimida daromad va xarajatlarni tahlil qilish, xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash va soliq xavflarini oldindan aniqlash imkonini beruvchi tizimlarni keng joriy etish lozim.

6. Inson omilini kamaytirish va motivatsiya yaratish. Xodimlarning yangi texnologiyalarga nisbatan qarshiligini kamaytirish uchun ularni o‘qitish, rag‘batlantirish va texnologiyalarning afzalliklarini tushuntirish zarur.

7. Shaffoflik va aniqlikni ta’minlash.

Qo‘lda ma’lumot kiritish amaliyotini minimallashtirib, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.04.2016 yildagi O‘RQ-404-son

3. Artikova, Sh. I., Raxmonov, F. Z., & Muxammadiyev, I. S. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati. Science and Education, 4 (1), 1019-1025.

4.Misirov, X.M., Temir yo‘l korxonalarida moliyaviy aktivlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish. “Servis” ilmiy-amaliy jurnal 2023 yil 4/2-son

3.https://lex.uz

4.https://stat.uz/

DIGITAL TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN’S INSURANCE MARKET AND THE ROLE OF INSURANCE IN THE DEVELOPMENT OF A “GREEN” ECONOMY: DETERMINANTS, BARRIERS AND STRATEGIC DEVELOPMENT PATHS

Oripov Ilkhom

Master of Economics “Uzbekinvest” Export-Import Insurance Company JSC, Counselor to the Director General

e-mail: i.oripov@uzbekinvest.uz

Abstract

This article examines the digital transformation of Uzbekistan’s insurance market in the context of the transition to a green economy. Using an institutional-functional framework, it analyzes how digital technologies—including InsurTech, artificial intelligence, Big Data, IoT, and blockchain—affect the role of insurers in risk management and financing of environmentally oriented projects. The study draws on data for 2020–2026 to identify key drivers and constraints of transformation in a developing market setting. The results indicate that digitalization improves risk assessment, reduces information asymmetry, and supports the integration of insurance into green finance mechanisms. This enhances the investment attractiveness and risk resilience of environmental projects. The article contributes to the literature by providing evidence from an underexplored emerging market and by conceptualizing insurance as a complementary instrument in green finance. Policy implications focus on regulatory adaptation, digital infrastructure, and market development.

***Key words**:* digital transformation, insurance market, InsurTech, green economy, green insurance, sustainable development, Uzbekistan.

Introduction

Digital transformation has established itself as one of the key megatrends of contemporary economic development, determining the evolution of business models, the institutional structure of markets, and the mechanisms of interaction among economic agents. In the financial sector, this process leads to the formation of innovative ecosystems based on the utilisation of artificial intelligence (AI), big data analytics, distributed ledgers, and cloud solutions (Kane et al., 2015; Nicoletti,

2021). The insurance industry, traditionally characterised by conservatism, is becoming an active sphere for the implementation of digital innovations as part of the development of InsurTech.

For the Republic of Uzbekistan, the digital transformation of the insurance market is characterized by a dual yet complementary significance, reflecting both the technological and the institutional-economic aspects of the development of the national financial system. On the one hand, the integration of digital technologies into insurance activities serves as a crucial factor in enhancing the operational efficiency of insurance organisations, reducing transaction costs, expanding the geographical and social accessibility of insurance services, as well as improving the quality of customer service through the automation of business processes, the use of big data, artificial intelligence, and platform solutions. This contributes to the growth of insurance penetration, enhances financial inclusion, and strengthens the trust of the public and businesses in the insurance institution.

On the other hand, the digitalization of the insurance market creates stable institutional prerequisites for its integration into the "green" economy system and sustainable development. Digital tools enable insurance companies to more accurately assess environmental, climate, and man-made risks, and to develop specialised insurance products to support 'green' investments, renewable energy, energy-efficient technologies, and sustainable infrastructure. Furthermore, digital platforms ensure transparency in insurance operations, enhance the quality of risk management, and enable the integration of ESG approaches into insurance practice.

The implementation of the national strategic initiatives "Digital Uzbekistan – 2030" and the "green" growth concept creates a unique window of opportunity for a profound structural transformation of the insurance market. Under these conditions, insurance has the potential to evolve from a predominantly auxiliary financial mechanism into a key infrastructural element of the "green" finance system. It facilitates the redistribution of risks, the mobilisation of long-term investments, and the support of sustainable socio-economic development in the country. Such positioning of the insurance sector enhances its role in achieving national goals for the decarbonization of the economy, increasing climate resilience, and shaping an innovative growth model.

Literature Review and Statement of the Scientific Problem

International studies on the digital transformation of the insurance sector mainly focus on developed markets characterized by a high level of insurance penetration and institutional maturity (Brooks & Wei, 2025; Swiss Re Institute, 2023). They emphasize the role of InsurTech in reducing operating costs, accelerating claims settlement, and enabling product personalization.

Research dedicated to emerging economies identifies structural barriers to digitalization: low levels of financial and digital literacy, regional infrastructure disparities, and a shortage of qualified personnel (Tangirberdieva, 2025; Nasirov et al., 2025). A similar situation is characteristic of Uzbekistan, where the digitalization of insurance is of a fragmented nature.

Simultaneously, a scientific discourse is developing around the role of insurance in shaping the "green" economy. However, most studies interpret it in the

narrow context of environmental insurance, focusing on damage compensation (Broslavskiy, 2020). The institutional potential of insurance as an element of "green" finance, especially in synergy with digital technologies, remains insufficiently explored.

The scientific problem lies in the absence of an integrated model explaining how the digital transformation of the insurance market can contribute to the development of the "green" economy in the context of a developing country such as Uzbekistan.

Research Methodology

The research is based on a combined methodological approach, including:

- institutional-functional analysis of the evolution of the role of insurance;
- application of digital maturity models (Deloitte; MIT Sloan);
- empirical analysis of statistical data for 2020–2024 (with a forecast assessment up to 2026);
- SWOT analysis of digital initiatives of insurance companies;
- scenario-based forecasting of insurance market development up to 2030.

Assessment of the Current State of Uzbekistan’s Insurance Market

Uzbekistan’s insurance market demonstrates positive dynamics driven by ongoing reforms. The nominal volume of Gross Written Premium (GWP) increased sixfold over the period 2018–2024. However, the key indicators of industry development remain at a low level.

Macroeconomic Indicators of Development: Insurance Penetration and Density

The ratio of insurance premiums to GDP (penetration level) increased

by 2.3 times, reaching only 0.7% in 2024 (Fig. 1), which is significantly lower than the indicators of developed countries (8-12%). The insurance density amounted to just over 20 US dollars per capita (Fig. 2), indicating a low level of engagement by both the population and businesses in insurance relationships.




Fig. 1. GDP, GAIP dynamics (with the 2018 level conditionally accepted as 1), and Insurance Penetration Level for 2018-2024[153]

[153]Developed by the authors based on data from the National Agency for Perspective Projects of the Republic of Uzbekistan. https://napp.uz/ru#zero-515




Fig. 2. Insurance Density (USD at the official rate) and the share of compulsory types of insurance in the total volume of insurance premiums (%) for 2018-2024[154]

Structural and Financial Parameters of the Market

The structure of the market is undergoing changes: the share of compulsory insurance in the total premium has decreased from 16.1% in 2018 to 6.8% in 2024 (Fig. 2), reflecting the liberalisation of the market and the growth of the voluntary segment. The dynamics of key financial indicators are presented in Table 1.

Table 1.

Financial Indicators of Uzbekistan’s Insurance Market (UZS bln)[155]

Indicator	2020	2021	2022	2023	2024
Collected insurance premiums	2313.9	2213.7	6231.7	8059.7	9770.1
Non-life insurance premiums, including	1727.5	1879.3	4707	7737.2	9483.7
Compulsory insurance	298.1	338.0	491.3	632.4	664.7
Voluntary insurance	1429.4	1541.3	4215.7	7104.8	8819.0
Life insurance premiums	586.4	334.4	1524.7	322.5	286.4
Insurance payments (total)	831.5	737.6	2596.9	2022.1	2204.5
Non-life insurance payments, including	284.1	419.6	1098.8	1568.5	2073.1
Compulsory insurance	90.2	128.0	232.8	236.7	358.6
Voluntary insurance	193.9	291.6	866.0	1331.8	1714.5
Life insurance payments	529.4	318.0	1498.1	453.6	131.4

By the end of 2024, there were 33 insurance companies operating in the market, as detailed in Table 2, creating a competitive environment with a low level of concentration, as shown in Table 3. A steady increase is observed in the total

[154]Developed by the authors based on data from the National Agency for Perspective Projects of the Republic of Uzbekistan. https://napp.uz/ru#zero-515

[155]Developed by the authors based on data from the National Agency for Perspective Projects of the Republic of Uzbekistan. https://napp.uz/ru#zero-515

authorized capital of insurers and their investment portfolio (see Tables 2 and 4).

Table 2.

Structure of the Insurance Market of the Republic of Uzbekistan for 2018-2024[156]

Years	Number of insurance organisations	Including life insurance	Cumulative authorized capital of insurance organizations (USD mln)	Number of insurance brokers	Number of certified actuaries	Number of insurance agents	Number of insurance surveyors and adjusters	Number of assistance service providers
2018	30	6	112.1	4	4	8700	18	6
2019	36	8	119.9	5	5	8657	18	6
2020	40	8	137.4	5	5	8900	18	6
2021	42	8	146.7	5	5	9581	18	6
2022	41	8	167.8	5	5	9155	18	6
2023	38	7	187.0	8	5	4736	18	6
2024	33	5	229.0	11	5	4804	18	6

Table 3.

Leading companies by market share in the Non-life Insurance sector, 2018-2024 (%)[157]

Company	**Market Share, %**						
	2018	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
1. "Apex Insurance” LLC	-	2.3	6.4	8.1	16.4	26.0	29.1
2. “Uzbekinvest” JSC	14.1	16.5	14.0	13.4	16.0	15.9	13.4
3. "Kafolat” JSC	8.7	8.7	8.0	7.7	7.2	9.1	7.8
4. “Gross insurance” JSC	8.8	12.8	13.4	8.6	6.1	5.8	6.6
5. "My Insurance” JSC	-	2.3	5.4	8.1	5.5	4.4	4.5
6. "Uzagrosug‘urta” JSC	14.4	14.6	9.5	6.2	7.8	5.1	4.4
7. "Kapital sug‘urta” JSC	3.0	2.7	2.6	4.4	3.6	3.9	3.9
8. "Kafil sug‘urta” JSC	1.3	2.3	2.7	4.2	3.0	5.1	3.0
9. "Alfa invest” JSC insurance company	5.0	5.5	5.2	5.2	6.5	3.0	2.8
10. "Alskom” JSC	4.2	2.8	2.3	1.7	2.0	1.9	2.1

Table 4.

Investment portfolio of insurers in Uzbekistan, 2020–2024 (UZS bln)[158]

Name of the indicator	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Total investments, including	3382.6	3746.7	4751.7	6150.0	6542.6
Deposits	1818.9	2208.6	2896.6	4037.4	4583.8

[156]Developed by the authors based on data from the National Agency for Perspective Projects of the Republic of Uzbekistan. https://napp.uz/ru#zero-515

[157]Developed by the authors based on data from the National Agency for Perspective Projects of the Republic of Uzbekistan. https://napp.uz/ru#zero-515

[158]Developed by the authors based on data from the National Agency for Perspective Projects of the Republic of Uzbekistan. https://napp.uz/ru#zero-515

Securities	958.6	1096	1287.9	1357.5	1303.7
Loans	42.0	47.5	60.8	46.9	95.4
Real estate	285.3	247.3	358.9	539.5	452.7
Equity participation in the authorized capital of enterprises	272.1	142.2	118.2	134.7	98.6
Others	5.7	5.1	29.3	34.0	8.4

Institutional determinants and barriers to digital transformation

Determinants: Regulatory Framework and Government Initiatives

Digitalization of Uzbekistan’s insurance market is being carried out within the framework of a consistent state policy. The key documents are:

- Decree of the President No. PD-168 "Uzbekistan Development Strategy - 2030" (2023), identifying digitalization as a priority;

- Resolution of the President No. PR-5265 (2021) “On Additional Measures to Digitalize the Insurance Market…”, which legalizes electronic policies and digital services;

- Resolution of the President (2024) "On Comprehensive Measures for the Further Development of the Insurance Services Market", providing for mandatory electronic format of contracts and integration with government platforms (EPIGU).

Key Barriers and Challenges

Despite positive trends and regulatory support, the market faces systemic challenges that simultaneously serve as barriers to deep digital transformation:

1. Institutional and legal constraints: the current Law "On Insurance Activity" (2021) requires adaptation to the realities of the digital economy, InsurTech, and new types of insurance (cyber, micro, parametric).

2. Sociocultural barriers: a low level of insurance and financial literacy among the population, especially in the regions, generates persistent distrust towards insurance institutions and limits demand.

3. Resource constraints: the insufficient capitalization of many market participants limits their investment opportunities, financial stability, and ability to finance digital transformations.

4. Technological lag: digitalization remains fragmented, being largely limited to the digitization of document workflow. There is no widespread adoption of Big Data, AI, and IoT technologies in key processes (actuarial calculations, risk management, and claims settlement).

Insurance as a Digital Institution of the "Green" Economy: Synthesis of Approaches

Analysis indicates that neither an institutional nor a functional approach alone adequately describes the role of insurance in the context of dual transformation (digital and "green"). Their synthesis allows insurance to be viewed as a digital institution of sustainable development.

Institutional Transformation

Digitalization changes the institutional position of insurance in the "green" finance system:

- integration into investment chains: digital platforms enable the embedding of insurance products into end-to-end chains of "green" project financing, making

insurance an endogenous element of it;

- mechanism for reducing information asymmetry: technologies (blockchain, IoT monitoring) enhance the role of the insurer as a "trust filter", verifying environmental risks and the sustainability of projects for investors.

Functional Transformation

Digital technologies significantly expand the functional spectrum of insurance:

- preventive function: the use of Big Data and AI enables a shift from assessing past losses to predictive modelling and active management of climate and environmental risks;

- the incentive function: dynamic pricing based on digital environmental indicators (emission levels, energy efficiency) creates financial incentives for the implementation of "green" technologies;

- infrastructure function: the development of parametric insurance with automated payouts based on digital triggers (such as weather indices and satellite data) reduces transaction costs and enhances the resilience of the agro-industrial complex and renewable energy sector.

The comprehensive impact of digital technologies on "green insurance" is systematised in Table 5.

Table 5.

The impact of digital technologies on the institutional and functional aspects of "green insurance"

No.	Digital Technology	Institutional Effect	Functional Effect	Importance for sustainable development
1.	Big Data	Integration into "Green" finance	Precise assessment of climate risks	Growth of Investment Attractiveness
2.	Artificial Intelligence	Reduction of informational asymmetry	Dynamic Pricing	Promotion of "green" technologies
3.	Blockchain	Enhancing Transparency	Automation of Payments	Reduction of transaction costs
4.	Internet of Things (IoT)	Monitoring Infrastructure	Preventive Risk Management	Reduction of environmental accidents

Strategic Development Paths for Digital and “Green” Insurance in Uzbekistan

To overcome existing challenges and unlock the potential, it is necessary to implement a set of interrelated measures forming four strategic development paths:

1. Development and implementation of a National Roadmap for the digital transformation of the insurance market. The document must align sector development with the strategies of "Digital Uzbekistan – 2030" and "green" growth, outlining specific stages, KPIs, and mechanisms for public-private partnership.

2. Improvement of the regulatory framework and development of digital ecosystems. Adaptation of legislation for the legitimation of innovative products (parametric, cyber insurance) and technologies (AI, smart contracts). Encouraging the creation of InsurTech and ClimateTech startups through acceleration

programmes and regulatory "sandboxes". Integration of insurance services into government platforms (EPIGU) and ecosystems of “green” financing.

3. Encouraging the development of targeted “green” insurance products for priority sectors of Uzbekistan’s economy, examples of which are provided in Table 6.

Table 6.

Digital Tools of "Green Insurance" by Economic Sectors of Uzbekistan

No.	Sector of the Economy	Digital Solutions	Insurance Products	Economic and Environmental Effect
1.	Renewable Energy	AI, IoT Monitoring	Insurance of Equipment and Income (business interruption)	Reduction of investment risks, increase in the attractiveness of renewable energy sources
2.	Agriculture	Satellite data, meteorological sensors	Parametric crop insurance	Resilience of Agricultural Production to Climate Shocks
3.	Water Management Projects	Digital Hydrological Models	Infrastructure insurance against floods and droughts	Water Risk Management
4.	Urban Infrastructure	BIM, IoT Sensors	Insurance of energy-efficient buildings	Promotion of "green" construction

4. Investments in human capital and the enhancement of financial literacy. Implementation of large-scale state and sectoral programmes to enhance the insurance, financial, and digital literacy of the population. Development of educational programs and retraining programs in the fields of actuarial science, data analysis, and InsurTech.

Conclusion

The digital transformation of the insurance market in Uzbekistan represents not only a technological modernization but also a fundamental shift in its economic role. In the transition to a "green" economy, insurance, enriched by digital technologies, is evolving into an infrastructural institution of sustainable development, fulfilling preventive, stimulating, and investment functions.

Despite the presence of substantial barriers (institutional, cultural, resource-related), the implementation of a consistent state policy aimed at removing these constraints and promoting innovation can transform the insurance sector into a key element of the national "green" finance system. The implementation of the proposed strategic trajectories will contribute to achieving the objectives of the Uzbekistan Development Strategy - 2030, enhancing the investment attractiveness of environmental projects, and ensuring the long-term sustainability of the republic's economic growth.

Reference List

1. Brooks, J., & Wei, L. (2025). Digital transformation in insurance: Institutional and Functional Perspectives. Journal of Insurance Technology, 12(3), 45–62.

2. Kane, G. C., Palmer, D., Phillips, A. N., Kiron, D., & Buckley, N. (2015). Strategy, rather than technology, propels digital transformation. MIT Sloan

Management Review, 14(1), 1–25.

3. Nasirov, A., Tashkent, M., & Karimov, S. (2025). Digital tools for sustainable insurance in Uzbekistan. Central Asian Journal of Economics, 8(2), 77–95.

4. Nicoletti, B. (2021). The future of digital insurance: Trends and challenges. Springer.

5. Tangirberdieva, L. (2025). Parametric insurance for climate resilience in agriculture. Uzbek Journal of Sustainable Development, 4(1), 15–34.

6. Broslavsky, L.I. (2020). Environmental Insurance: Theory and Practice. Moscow: Infra-M.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА КАК ДРАЙВЕР ЗЕЛЁНОГО РАЗВИТИЯ

Орипов Ильхом Абдуллаевич
магистр экономики, АО КЭИС “Узбекинвест”, советник Генерального директора +(998 78) 120-03-79, i.oripov@uzbekinvest.uz

В XXI веке экономическое развитие всё в большей степени определяется тремя взаимосвязанными тенденциями: искусственным интеллектом, экологической модернизацией и цифровой трансформацией. Эти процессы изменяют производственные системы, государственное управление, потребительское поведение и финансовые институты. Страны, которые успешно сочетают технологический прогресс с целями устойчивого развития, получают более высокую конкурентоспособность и долгосрочную устойчивость.

Для развивающихся экономик данные тенденции особенно значимы. Они создают возможности для модернизации традиционных отраслей, повышения производительности, привлечения инвестиций и решения структурных проблем. Узбекистан также вошёл в этот этап трансформации посредством масштабных реформ, направленных на построение современной рыночной экономики. В этом процессе особого внимания заслуживает страховой сектор.

Традиционно страхование рассматривалось преимущественно как механизм компенсации убытков после наступления страхового случая. Однако в современных условиях оно выполняет более широкие экономические функции. Оно перераспределяет риски, мобилизует долгосрочные ресурсы, стабилизирует предпринимательскую деятельность, поддерживает инвестиционные решения и усиливает доверие между экономическими субъектами. При интеграции цифровых технологий страховой сектор способен внести ещё более весомый вклад в национальное развитие.

Страховой рынок Узбекистана в последние годы демонстрирует устойчивое развитие. Всё более распространёнными становятся онлайн-продажи полисов, дистанционное обслуживание клиентов, электронный документооборот и мобильные приложения. Эти инновации сокращают административные расходы и делают страхование более доступным для населения и бизнеса.

Следующим этапом трансформации может стать искусственный интеллект. Технологии ИИ способны обрабатывать большие массивы данных и формировать более точные модели оценки рисков. Это позволяет страховщикам справедливее тарифицировать продукты и выявлять скрытые закономерности убытков. Системы машинного обучения также могут обнаруживать подозрительные операции и снижать уровень мошенничества.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari: 2026-yil 1-yanvar holati. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326207/
5. Basel Committee on Banking Supervision. Prudential treatment of problem assets: definitions of non-performing exposures and forbearance. BIS, 2017. https://www.bis.org/bcbs/publ/d403.htm
6. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation. IMF Country Report No. 25/143, 2025. DOI: 10.5089/9798229014755.002
7. G‘aybullaev U. H. Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi qo‘lyozmasi. Toshkent, 2026.

ZAMONAVIY BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNING O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AMALIYOTI UCHUN AHAMIYATI

PhD, Xujamuratov Abbos Mardonovich
ATB “O‘zsanoatqurilishbank”
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori

Annotatsiya. Maqolada AQSH, Kanada, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va Xitoy bank tizimlarida raqamli xizmatlar, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt hamda yashil kredit mahsulotlarining rivojlanish dinamikasi qiyosiy tahlil qilinadi. Yashil kredit

mahsulotlari turlari va ular bo‘yicha foiz stavkalarining xususiyatlari ko‘rib chiqilib, xorijiy tajribadan O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida foydalanish yo‘nalishlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: xorijiy tajriba, mobil banking, onlayn banking, sun’iy intellekt, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, raqamli transformatsiya.

Jahon bank tizimida yangi mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, mijozlar ehtiyojining o‘zgarishi hamda barqaror rivojlanish maqsadlari ta’sirida jadal sur’atlarda kechmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish milliy bank tizimida zamonaviy mahsulotlarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, shuningdek, takrorlanishi mumkin bo‘lgan amaliyotlarni tanlab olish imkonini beradi.

Tadqiqotda AQSH va Kanada, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi hamda Xitoy bank tizimlarining 2019–2023-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Tanlangan mamlakatlar bank tizimining 2023-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	AQSH	Kanada	Yaponiya	Yevropa Ittifoqi	Xitoy
Mobil bank foydalanuvchilari, %	90	75	70	85	98
Onlayn bank foydalanuvchilari, mln kishi	190	40	110	500	800
Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari, %	60	58	45	60	70
Yashil kreditlardan foydalanish (aholiga nisbatan), %	40	45	30	50	55

Jadval ma’lumotlari raqamli kanallar rivojlangan bank tizimlarida mahsulot sotishning asosiy kanaliga aylanganini ko‘rsatadi. AQShda mobil bank foydalanuvchilari ulushi 2019-yildagi 70 foizdan 2023-yilda 90 foizga, onlayn bank foydalanuvchilari soni 150 mln dan 190 mln kishiga, elektron to‘lovlar hajmi esa 0,5 trln dan 1,2 trln AQSH dollariga oshgan. Xitoyda onlayn bank foydalanuvchilari soni 600 mln dan 800 mln kishiga yetgan, Yevropa Ittifoqida esa 300 mln dan 500 mln kishigacha ko‘paygan. Kanadada mobil bank ulushi 2021-yildagi 85 foizdan 2023-yilda 75 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, onlayn foydalanuvchilar soni izchil o‘sgan.

Avtomatlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash darajasi barcha mamlakatlarda o‘sish tendensiyasiga ega: AQShda 25 foizdan 60 foizgacha, Yevropa Ittifoqida 40 foizdan 60 foizgacha, Xitoyda 50 foizdan 70 foizgacha, Yaponiyada 15 foizdan 45 foizgacha. Bu tendensiya banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirish, kreditlarni ko‘rib chiqish muddatini qisqartirish va mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

Mahsulotlar narxlash siyosatida ham mamlakatlar o‘rtasida sezilarli farqlar kuzatiladi. 2020–2023-yillarda AQShda turar-joy ipotekasi bo‘yicha o‘rtacha stavka 3,00 foizdan 6,50 foizgacha, yashil kreditlar bo‘yicha 3,50 foizdan 5,00 foizgacha ko‘tarilgan; Yevropa Ittifoqida ipoteka stavkasi 1,50 foizdan 4,50 foizgacha, yashil kreditlar stavkasi 2,50 foizdan 4,00 foizgacha oshgan. Xitoyda esa ipoteka bo‘yicha stavka 4,65 foizdan 4,50 foizgacha, yashil kreditlar bo‘yicha 3,75 foizdan 3,50 foizgacha pasaygan. Depozit mahsulotlari bo‘yicha ham o‘xshash tendensiya mavjud: AQShda jamg‘arma hisobvaraqlari bo‘yicha stavka 0,05 foizdan 0,30 foizgacha, bir yillik sertifikatlangan depozitlar bo‘yicha 0,50 foizdan 2,00 foizgacha oshgan,

Xitoyda bir yillik depozit stavkasi esa 1,50 foizdan 1,60 foizgacha o‘zgargan. Bu stavkalar markaziy banklarning pul-kredit siyosati, inflyatsiya va iqtisodiy sharoitga bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi va mahsulotlarning narxlash modelini ishlab chiqishda tashqi omillarni hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Yashil moliya xorijiy bank amaliyotining alohida yo‘nalishiga aylangan. AQSH banklari yashil mahsulotlarning keng turlarini taklif etadi: energiya samarali ipoteka, PACE moliyalashtirishi, yashil qurilish kreditlari, quyosh energiyasi kreditlari, kichik va o‘rta biznesga yashil kreditlar, elektr va gibrid avtomobillar uchun kreditlar, uy-joyni energiya samarali yangilash kreditlari, yashil obligatsiyalar hamda korporativ yashil kreditlar. Muhimi, yashil kreditlar bo‘yicha stavkalar odatda an’anaviy mahsulotlarga nisbatan past: 2023-yilda AQShda yashil kreditlar bo‘yicha o‘rtacha stavka 5,0 foizni (biznes kreditlarida 8,0 foiz), Yevropa Ittifoqida 4,0 foizni (5,5 foiz), Xitoyda 3,5 foizni (4,6 foiz) tashkil etgan.

Xitoy tajribasi yashil moliyalashtirishning tizimli yondashuvi bilan ajralib turadi: yashil obligatsiyalar bozori 2020-yildagi 40 mlrd dollardan 2023-yilda 82 mlrd dollarga yetgan, qayta tiklanuvchi energiyaga kiritilgan sarmoyalar 80 mlrd dollardan 105 mlrd dollarga, yashil qurilish loyihalari soni 800 tadan 1 200 tagacha, elektr va gibrid avtomobillar savdosi esa 1,5 mln dan 3,5 mln donagacha oshgan. Bunday natijalar davlat tomonidan ishlab chiqilgan maxsus strategiyalar, me’yoriy-huquqiy baza hamda elektr avtomobillarga talabni oshirishga qaratilgan dasturlar va imtiyozlar bilan qo‘llab-quvvatlanishi bilan izohlanadi.

Yaponiya tajribasi raqamli transformatsiyaning izchil kechishini ko‘rsatadi: mobil bank foydalanuvchilari ulushi 2019-yildagi 50 foizdan 2023-yilda 70 foizga, onlayn foydalanuvchilar soni 70 mln dan 110 mln kishiga, avtomatlashtirish darajasi 15 foizdan 45 foizga oshgan. Yevropa Ittifoqida yashil kreditlar Yevropa Komissiyasining yashil investitsiyalarni moliyalashtirish dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Shu bois milliy banklar uchun muhim saboq shundan iboratki, innovatsion va yashil mahsulotlarning ommalashuvi faqat bankning tashabbusi bilan emas, balki davlat siyosati, imtiyozlar va infratuzilmaning uyg‘un rivojlanishi bilan ta’minlanadi.

Tanlangan mamlakatlar bank mahsulotlarini rivojlantirishning turli modellarini namoyon etadi: AQSH va Kanadada bozor tashabbusi va raqobatga asoslangan raqamli hamda yashil mahsulotlar, Yevropa Ittifoqida yashil investitsiyalarni moliyalashtirishning umumiy dasturlari, Xitoyda davlat siyosati bilan qo‘llab-quvvatlanadigan keng ko‘lamli yashil moliyalashtirish, Yaponiyada esa raqamli xizmatlarning izchil va bosqichma-bosqich joriy etilishi ustun. Ushbu modellarni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda mahsulot innovatsiyalari mijozlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar va texnologik imkoniyatlar bilan bir vaqtda shakllanishini ko‘rsatadi, shu bois milliy bank tizimiga eng mos yondashuvlarni – ham bank darajasidagi tashabbuslarni, ham davlat tomonidan rag‘batlantirish choralarini – tanlab olish imkonini beradi.

Xorijiy tajribani O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etishda to‘rt yo‘nalish ustuvor hisoblanadi. Birinchisi – raqamli kanallarni rivojlantirish: mobil va onlayn bankingda kredit, depozit va to‘lov mahsulotlarini to‘liq masofaviy taqdim etish imkoniyatini yaratish. Ikkinchisi – sun’iy intellekt va avtomatlashtirishni kredit skoringi, kreditlarni ko‘rib chiqish va firibgarlikni aniqlash jarayonlariga joriy etish. Uchinchisi – yashil mahsulotlar turlarini kengaytirish: energiya samarali uy-joy,

quyosh energiyasi, elektr avtomobil va kichik biznes uchun yashil kreditlar hamda yashil obligatsiyalarni rivojlantirish. To‘rtinchisi – narxlash siyosatini takomillashtirish: yashil kreditlar bo‘yicha an’anaviy mahsulotlarga nisbatan pastroq stavkalarni davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yordamida ta’minlash.

Shu bilan birga, xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishning cheklovlari ham mavjud. Raqamli xizmatlarning ommalashuvi aholining raqamli savodxonligi, internet infratuzilmasi sifati va kiberxavfsizlik darajasiga bog‘liq; yashil mahsulotlar uchun esa loyihalarning ekologik ko‘rsatkichlarini baholash standartlari va rag‘batlantirish mexanizmlari zarur. Shu sababli milliy banklar xorijiy amaliyotni mahalliy iqtisodiy sharoit, aholi daromadlari darajasi va normativ-huquqiy baza bilan moslashtirgan holda, bosqichma-bosqich va pilot loyihalar orqali joriy etishi maqsadga muvofiq.

Xorijiy tajribani tahlil qilish asosida quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, raqamli kanallar (mobil va onlayn banking) bank mahsulotlarini sotishning asosiy kanaliga aylanmoqda, shu bois O‘zbekiston tijorat banklarida ularni rivojlantirish mahsulot siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, avtomatlashtirish va sun’iy intellektdan foydalanish xarajatlarni kamaytirish hamda kredit mahsulotlarini taqdim etish muddatini qisqartirishning samarali vositasidir.

Uchinchidan, yashil kredit mahsulotlari turlarini kengaytirish, ular bo‘yicha imtiyozli stavkalar va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish bank portfelini diversifikatsiya qilish va yangi mijoz segmentlarini jalb etishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy iqtisodiy sharoit, normativ-huquqiy baza va mijozlar xulq-atvoriga moslashtirish zarur.

PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA MAHSULOT SOTISH SHARTNOMALARINI NARX INDEKSATSIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH VA OPERATSION MARJANI HIMOYALASH

Murodov Orif Jumayevich
Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi, t.f.d., professor
E-mail: orifakadem81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda paxta tozalash korxonalarida mahsulot sotish narxi va ishlab chiqarish xarajatlari turli sur’atlarda o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan operatsion marja xatari tahlil qilinadi. Energiya tariflari, transport xarajatlari va tayyor mahsulot realizatsiya narxlarini shartnomaviy indeksatsiya mexanizmi orqali muvofiqlashtirishning moliyaviy mantiqi asoslanadi. Indeksatsiya bandini qo‘llash uchun shaffof ko‘rsatkich, qayta ko‘rib chiqish davri, narx chegarasi va tomonlar o‘rtasida riskni taqsimlash tartibi taklif etiladi. Shartli hisob misolida turli xarajat va sotish narxi ssenariylari bo‘yicha yalpi marjaning sezgirligi ko‘rsatiladi. Natijalar haqiqiy korxona shartnomalari yoki tasdiqlangan iqtisodiy samara sifatida talqin qilinmaydi.

Kalit so‘zlar: narx indeksatsiyasi, shartnoma, operatsion marja, xarajat shoki, riskni taqsimlash, paxta tozalash korxonasi, narx tavakkali.

Kirish. Paxta tozalash korxonasining moliyaviy barqarorligi nafaqat ishlab chiqarish hajmi va qarz yuklamasiga, balki mahsulotni qanday narxda hamda qaysi shartlar asosida sotishiga ham bog‘liq. Amaliyotda xomashyo, elektr energiyasi, yoqilg‘i va tashish xarajatlari o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin, mahsulot sotish bahosi esa oldindan belgilangan shartnoma bo‘yicha ma’lum vaqt davomida o‘zgarmasligi ehtimoli mavjud. Bunday tafovut korxonaning yalpi foydasini qisqartiradi va aylanma mablag‘larni qayta tiklash imkoniyatiga bosim o‘tkazadi. Korporativ moliya nazariyasida pul oqimining o‘zgaruvchanligi investitsiya va moliyalashtirish qarorlariga ta’sir qiluvchi omil sifatida qaraladi [1].

Tadqiqotning maqsadi va usuli. Tadqiqotning maqsadi — xarajatlar o‘sishini mahsulot sotish narxiga qisman va shartli o‘tkazish orqali marja xatarini kamaytiruvchi shartnomaviy mexanizmni asoslash. Bunda hujjatli tahlil, taqqoslash, ssenariyli hisob va sezgirlik tahlili qo‘llanadi. Tadqiqot obyekti sifatida paxta tozalash korxonalarining sotish shartnomalari va ular bilan bog‘liq moliyaviy oqimlar qaraladi. Mazkur tezisda real korxonalar bo‘yicha tasdiqlangan shartnoma narxlari mavjud bo‘lmagani sababli miqdoriy misol faqat uslubni tushuntirish uchun keltiriladi.

Narx va xarajat nomutanosibligining moliyaviy oqibati. Korxona mahsulotini belgilangan bahoda sotish majburiyatini olgach, xarajatlarning keskin o‘sishi daromadni avtomatik oshirmaydi. Natijada bir birlik mahsulotdan olinadigan yalpi foyda qisqaradi. Agar mahsulot sotish narxi P, bir birlikka to‘g‘ri keluvchi o‘zgaruvchan va tegishli ishlab chiqarish xarajati C bo‘lsa, birlik marja $M = P - C$, marja ulushi esa $m = (P - C) / P \times 100\%$ ko‘rinishida aniqlanadi. Bu yerda xarajatlar tarkibini bir xil hisob siyosati asosida shakllantirish muhim: aks holda turli davr marjalarini taqqoslash noto‘g‘ri xulosa berishi mumkin [2].

Narx o‘zgarmas bo‘lgan shartnomada xarajatlar o‘sishining to‘liq xatari sotuvchi zimmasida qoladi. Aksincha, barcha xarajatlarni avtomatik xaridorga yuklash ham maqbul emas: xaridorning rejalashtirish imkoniyati pasayadi, mahsulotning raqobatbardoshligi yomonlashishi mumkin. Shu bois indeksatsiya mexanizmi xarajat o‘zgarishining hujjat bilan tasdiqlangan qismini, oldindan kelishilgan davriylik va chegaralar doirasida taqsimlashi kerak.

Indeksatsiya mexanizmining taklif etilayotgan modeli. Shartnomada bazaviy sotish narxi P_0, kuzatiladigan xarajat indeksi I_t, xarajat o‘zgarishini narxga o‘tkazish ulushi β va maksimal tuzatish chegarasi h oldindan belgilanadi. Indeksatsiya qilingan narx quyidagi soddalashtirilgan formula asosida aniqlanishi mumkin:

$$P_t = P_0 \times [1 + \min(h, \max(-h, \beta \times (I_t / I_0 - 1)))].$$

Bu yerda P_t — t-davrdagi shartnoma narxi; I_0 — bazaviy davr indeksi; I_t — qayta hisoblash davri indeksi; β — indeks o‘zgarishining narxga o‘tkaziladigan ulushi (0 dan 1 gacha); h — ikki tomon kelishgan narx tuzatishining mutlaq chegarasi. Formula indeks pasayganda narxni kamaytirishni ham nazarda tutadi. Amaliy shartnomada indeksning rasmiy manbasi, ma’lumot e’lon qilinmagan holatdagi muqobil tartib, hisoblash sanasi va nizolarni hal qilish mexanizmi alohida belgilanishi lozim.

Indeks sifatida bir nechta xarajat tarkibiy qismlaridan tuzilgan og‘irliklangan ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin: $I_t/I_0 = w_1(E_t/E_0) + w_2(T_t/T_0) + w_3(B_t/B_0)$. Bunda E — energiya, T — transport, B — boshqa kuzatiladigan xarajat indeksi, $w_1+w_2+w_3=1$. Og‘irliklar korxonaning tekshirilgan xarajat tuzilmasiga mos bo‘lishi

kerak. Shu tariqa narx tuzatish korxona ixtiyoridagi subyektiv qarorga emas, shartnomada kelishilgan tekshiriladigan ko‘rsatkichlarga bog‘lanadi.

Shartli ssenariyli baholash. Mexanizmni tushuntirish uchun bazaviy sotish narxi 100 birlik, ishlab chiqarish xarajati 85 birlik, dastlabki yalpi marja 15% deb olinadi. Xarajatlar 10% va 20% oshgan sharoitda indeksatsiyasiz va xarajat o‘sishining 50% ini narxga o‘tkazadigan shartli variant solishtiriladi. Bu yerda indeks aynan xarajatlar o‘sishiga teng deb faraz qilingan, narx chegarasi esa ishga tushmaydi.

1-jadval. Xarajatlar shoki sharoitida narx indeksatsiyasining yalpi marjaga ta’siri (shartli misol)

Ssenariy	Sotish narxi	Xarajat	Birlik marja	Marja, %
Bazaviy	100,0	85,0	15,0	15,0
Xarajat +10%, indeksatsiyasiz	100,0	93,5	6,5	6,5
Xarajat +10%, β=0,5	105,0	93,5	11,5	11,0
Xarajat +20%, indeksatsiyasiz	100,0	102,0	−2,0	−2,0
Xarajat +20%, β=0,5	110,0	102,0	8,0	7,3

Manba: muallif tomonidan tuzilgan shartli hisob. Raqamlar real korxona hisobotlari yoki amaldagi shartnomalarni ifodalamaydi.

Jadvalga ko‘ra, sotish narxi o‘zgarmagan holda xarajatning 20% o‘sishi birlik marjani manfiy qiymatga olib keladi. Qisman indeksatsiya esa ayni shartli sharoitda marjani musbat saqlash imkonini beradi. Biroq indeksatsiya sotish hajmi, xaridor talabi, soliq yuki yoki pul tushumlarining haqiqiy muddatini o‘zgartirmaydi. Shuning uchun ushbu natijani sof foyda yoki pul oqimi bo‘yicha kafolatlangan yutuq sifatida talqin qilish mumkin emas.

Shartnomaviy risklarni taqsimlash. Indeksatsiya bandi faqat sotuvchi manfaatini emas, xaridorning narx barqarorligi va prognoz qilish ehtiyojini ham hisobga olishi lozim. Shartnomada (a) bazaviy narx va indeks sanasi, (b) hisoblash davriyligi, (c) tuzatishning yuqori va quyi chegarasi, (d) narx o‘zgarishi haqida xabardor qilish muddati, (e) tasdiqlovchi ma’lumotlar manbasi va (f) favqulodda holatlarda muzokara tartibi ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Shartnoma dizaynida kuzatiladigan risklarni oldindan taqsimlash va qayta muzokara xarajatlarini cheklash iqtisodiy samaradorlik uchun muhim [3].

Ikki tomonlama indeksatsiya muhim: xarajatlar pasayganda narx ham shartli ravishda kamayishi xaridor ishonchini kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, narxning haddan tashqari tez-tez qayta ko‘rilishi ma’muriy xarajatlarni oshiradi. Shu sababli choraklik qayta ko‘rib chiqish, ma’lum foizlik «sezgirlik chegarasi» va indeksning mustaqil tekshirilishi kabi vositalar amaliy muhokama uchun taklif etiladi. Bu muddatlar normativ talab emas, shartnomaga moslashtiriladigan variantlardir.

Moliyaviy boshqaruvga integratsiya. Indeksatsiya mexanizmini joriy etishdan avval korxona xarajatlar tarkibini va realizatsiya shartnomalarini yagona ma’lumotlar bazasida birlashtirishi kerak. Har bir shartnoma bo‘yicha sotish narxi, yetkazib berish muddati, energiya ulushi, kutilayotgan marja va to‘lov kechikishi alohida kuzatiladi. Bu yondashuv mahsulot sotish bo‘yicha qarorlarni pul oqimi prognozi bilan bog‘lashga imkon beradi. Xususan, yuqori nominal marjali, ammo to‘lovi

kechikadigan shartnoma korxona uchun tez pul tushadigan boshqa shartnomadan kamroq foydali bo‘lishi mumkin [4].

Moliyaviy nazorat uchun uchta indikator tavsiya etiladi: (1) shartnoma marjasi — mahsulot sotish narxi va hisobga olingan ishlab chiqarish xarajatlari farqi; (2) indeksatsiya qamrovi — narxni qayta ko‘rish bandi mavjud shartnomalar qiymatining jami sotish shartnomalariga nisbati; (3) marja xavf ostidagi hajmi — belgilangan xarajat shoki ostida marjasi nolga tushadigan shartnomalar qiymati. Bu ko‘rsatkichlar yordamida riskni faqat korxona balansida emas, alohida kontraktlar kesimida erta aniqlash mumkin.

Amaliy joriy etish bosqichlari. Birinchi bosqichda so‘nggi bir necha yil bo‘yicha sotish narxlari va xarajat indekslari to‘planadi. Ikkinchi bosqichda energiya, transport va boshqa xarajatlarning haqiqiy ulushlari hisoblanadi. Uchinchi bosqichda bir nechta β va h qiymatlari bo‘yicha ssenariylar solishtiriladi. To‘rtinchi bosqichda xaridorlar bilan sinov shartnomalari kelishiladi. Beshinchi bosqichda real marja, tushum muddati va savdo hajmi monitoring qilinadi. Yakuniy baho shartnomaviy indeksatsiya keltirgan yalpi foyda o‘zgarishini savdo hajmi va tranzaksiya xarajatlaridagi o‘zgarishdan ajratishi kerak.

Ilmiy-amaliy ahamiyati va cheklovlar. Taklif etilayotgan mexanizmning farqli jihati — paxta tozalash korxonasining moliyaviy barqarorligini faqat qarz yoki balans likvidligi orqali emas, balki mahsulot sotish shartnomasida marjani oldindan himoyalash orqali ko‘rib chiqishdir. Biroq xaridorlarning bozor kuchi, narxni qayta ko‘rishga roziligi, raqobat sharoiti va amaldagi huquqiy cheklovlar mexanizmning qo‘llanish doirasini belgilaydi. Shartli hisobdan haqiqiy iqtisodiy samara haqida xulosa chiqarish mumkin emas; buning uchun shartnoma ma’lumotlari va kuzatuv davri bo‘yicha empirik tekshiruv zarur.

Xulosa. Paxta tozalash korxonalarida xarajatlarning tez o‘sishi va mahsulot sotish bahosining qat’iy belgilanishi o‘rtasidagi nomutanosiblik operatsion marjani qisqartirishi mumkin. Shartnomalarda ikki tomonlama, chegaralangan va tekshiriladigan indeksatsiya mexanizmini qo‘llash xarajat shokining ta’sirini sotuvchi va xaridor o‘rtasida taqsimlashning istiqbolli vositasidir. Ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etish uchun xarajatlar tarkibi, shartnomalar portfeli, xaridor talabi va pul tushumlari bo‘yicha ma’lumotlar zarur. Taklifning moliyaviy samaradorligi kelgusida real korxonalar kesimida empirik baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. 13th ed. McGraw-Hill Education, 2020.

2. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. Pearson, 2015.

3. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. Free Press, 1985.

4. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.

5. Murodov O.J. Paxta tozalash korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2025. B. 29–33. DOI: 10.5281/zenodo.17455268.

6. Murodov O.J. Financial Management of Foreign and Domestic Cotton Ginning Enterprises: Comparative Analysis, Diagnostics, and Improvement Directions

// Econoscitech Integration. 2026. № 5. P. 208–218. DOI: 10.5281/zenodo.20390998.

MUNDARIJA

T.Z.Teshabayev Kirish so‘zi……	*3*
6-YO‘NALISH. YANGI O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	
N.Oblomuradov “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiy islohotlar g‘oyasining tarixiy ildizlari va falsafiy asoslari…….....	*5*
B.Ergashov Yangi O‘zbekistonda KPI tizimi orqali korporativ samaradorligini oshirish (kon-metallurgiya korxonalari misolida)…….....	*8*
I.Axmedov Korxona tashqi iqtisodiy faoliyatida marketıng kompleksıdan unumli foydalanish……...…….....	*12*
Қ.Шарипов Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясига мувофиқ кичик бизнесни ривожлантиришнинг асосий жиҳатлари.....	*15*
А.Максумханова, Д.Сайдалимова Аёллар тадбиркорлигини бошқариш механизминини рақамлаштириш……...…….....	*18*
A.Xamidullayev, B.Ibrohimov Yyashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali hududiy rivojlanish va urbanizatsiyani boshqarishning institutsional mexanizmlari……...…….....	*21*
D.Qarshiyev O‘zbekistonda eksport faoliyatini yanada faollashtirishning zarurati va istiqbollari……...…….....	*25*
Н.Примова Натижага йўналтирилган бюджетлаштиришга ўтишнинг аҳамияти……...…….....	*27*
Х.Давлетова Институциональные и экономические изменения в процессе реализации стратегии развития Узбекистана до 2030 года……...…….....	*31*
Sh.Sherkulov Klasterlar faoliyati samaradorligini oshirishning “O‘zbekiston–2030” strategik konsepsiyasi bilan uyg‘unligi…….....	*33*
N.Sherkulova Aholi bandligini oshirishda rekruting agentliklari orqali gender teng imkoniyatlarni shakllantirish masalalari…….....	*39*
O.Suvpo‘latov Raqamli platformalar tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirishning yangi manbai sifatida……...…….....	*45*

Ш.Назаров Қишлоқ инфратузилмасини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш: бухоро вилояти қишлоқ туманлари миқёсида институционал таҳлил…..…….....	*49*
S.Xalikchayeva Y	51
T.Bobojonov O‘zbekiston-2030 strategiyasi doirasida “yashil” ish bilan bandlikni rag‘batlantirishning institutsional asoslari…….....	*54*
S.Tursunov Maxsus iqtisodiy zonalarning mintaqaviy xususiyatlari….....	*58*
G.Qaxramonova Iqtisodiyot nazariyasida islomiy tushunchalar.....….....	*61*
R.Axtamova Buxoro viloyatida sirkulyar iqtisodiyot asosida chiqindisiz ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	*63*
F.Farimova Ekologik turizmni rivojlantirishning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari.....….....	*65*
A.Ulashov, S.Saparbayev Main directions of economic and institutional reforms within the framework of the “New Uzbekistan – 2030” strategy.....	*73*
S.Salimova Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi doirasida turistik marshrut diversifikatsiyasining istiqbollari va imkoniyatlari.....	*76*
A.Shermatov Hududlarda parrandachilikni rivojlantirishning tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	*79*
A.Ulashov, S.Komilova Efficient market hypothesis and its limitations in modern finance.....	*81*
N.Ismoilov O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida kichik biznes subyektlarida transport-logistika tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	*84*
К.Бобонарова Институциональные основы совершенствования внутренних стандартов аудиторских фирм в условиях нового узбекистана.....	*87*
G.Rustamova “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida javobgarlikni majburiy sug‘urtalashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	*89*
M.Murodova Yengil atletikada uzunlikka sakrovchi yosh sportchilarni tayyorlashning innovatsion-metodik asoslari…….	*93*

D.Zayniyev Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi: barqaror rivojlanish uchun sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish…….....	*96*
Sh.Ismoilov Futbol sanoatida raqamli transformasiya: sun’iy intellektning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri…….	*98*
G.Badirova Tadbirkorlikni moliyalashtirishda bank tizimi va kroudfanding mexanizmlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri……	*100*
J.Nazarov Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida iqtisodiy va institutsional islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari…….....	*102*
Z.Abloqulova Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning mohiyati va shakllanish mexanizmlari…….....	*104*
I .Hojiyeva, F.Tillavoldiyev First steps toward membership in the world trade organization in our country…….....	*107*
I.Mansurova Economic mechanisms of achieving poverty reduction targets within the “Uzbekistan 2030” strategy framework…….....	*110*
A.Ulashov, N.Yeshupov Economic modernization and institutional reforms within the framework of the new uzbekistan–2030 strategy…….....	*112*
Sh.Sherkulov Klasterlar faoliyati samaradorligini oshirishning “O‘zbekiston–2030” strategik konsepsiyasi bilan uyg‘unligi…….....	*114*
K.Naqibbekov The evolution of economic thought in central asia and the formation of economic schools…….....…….....	*120*
F.Nuruddinova AI-driven risk assessment and digitalization in Uzbekistan’s customs: enhancing efficiency in digital trade.....…….....	*122*
Д.Гафурова Янги Ўзбекистон–2030 стратегияси шароитида олий таълим тизимида иқтисодий ва институционал ўзгаришларни амалга оширишнинг устувор йўналишлари…..…….....	*125*
M.Qaxramonova Xodimlar qo‘nimsizligi darajasini kamaytirishda motivatsiyaning ahamiyati…..…….....	*127*
S.Hakimova Real sektor korxonalarini moliyalashtirishda islom moliyasi o‘rnini oshirish.....…….....	*134*
A.Axmedova	*137*

Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt davrida yashil marketing diskursining lingvopragmatik tahlili (nemis, ingliz va o‘zbek gastronomik reklama matnlari asosida)….....	
S.Saidmuxammadov Improving tax transparency through ai-based compliance monitoring in Uzbekistan.....	*139*
N.Sayidova, Sh.Maxsudova Talabalar shaxsini identifikatsiyalovchi mobil ilova uchun raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt asosidagi innovatsion yechim.....	*149*
S.Shodiyeva “O‘zmetkombinat” AJ misolida korxona rentabelligi va moliyaviy natijalarini tahlil qilish.....	*152*
Sh.Rakhmonberdieva Современные экономические взгляды и их современные интерпретации.....	*154*
Sh.Ruzimbaev AI integration in Uzbekistan’s insurance sector.....	*156*
G.Azamatova Sug‘urta tashkilotlarining dolzarbligi.....	*159*
D.Ro‘zimurodova Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes modellarining transformatsiyasi.....	*161*
D.Ro‘zimurodova Elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalari.....	*167*
B.Raxmonov Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot davrida yashirin iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’siri.....	*172*
У.Файзиев, З.Озодова Роль финансовых активов в обеспечении финансовой устойчивости организации.....	*174*
С.Касымов, А.Абдуганиев Идеи искусственного интеллекта, зеленой и цифровой экономики в Республике Узбекистан.....	*178*
У.Файзиев, У.Йулбарсова Определение уровня существенности в аудиторской проверке.....	*185*
С.Камилова, Ш.Юлдашев Прогнозирование финансовых рисков с помощью искусственного интеллекта.....	192
У.Файзиев, Р.Шарипова Теоретические основы аудита консолидированной финансовой отчетности.....	*195*
О.Намозов, М.Умарова Лауреаты нобелевской премии и их основные экономические теории……	*199*

Д.Эргашева Психологические особенности мотивации предпринимателей……..	*201*
М.Эрханова, М.Усмонова Проблема сокращения теневой экономики в узбекистане и опыт польши……..	*203*
С.Касымов, А.Абдухакимов Инновационное развитие и конкурентоспособность экономики узбекистана в условиях глобализации……..	*206*
Д.Гафурова Янги Ўзбекистон–2030 стратегияси шароитида олий таълим тизимида иқтисодий ва институционал ўзгаришларни амалга оширишнинг устувор йўналишлари…….....	*210*
D.Abdukaxxorova Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari va ularning samaradorligi…….....	*213*
M.Mahsutaliyev Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi……..	*217*
D.Xolmurodova Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi doirasida korxonalarda yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirish yo‘nalishlari…….....	*221*
A.Ulashov, L.Baxtiyarova Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasida iqtisodiy diversifikatsiyaning roli va ahamiyati……	*223*
7-YO‘NALISH. SUN’IY INTELLEKT, YASHIL VA RAQAMLI IQTISODIYOT G‘OYALARI	
A.Mamanazarov Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda yashil moliyalashtirishning o‘rni…….....	*231*
Sh.To‘rayev Soliq salohiyatini oshirishda sun’iy intellektning rivojlanish tendensiyalari…….....	*233*
B.Ibrohimov, A.Xamidullayev Raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot integratsiyasida sun’iy intellektning o‘rni: global tajriba, amaliy loyihalar va strategik istiqbollar……..	*237*
A.Abdullayev Sun’iy intellekt asosida donni qayta ishlash korxonalarida pul mablag‘lari aylanmasini boshqarishni takomillashtirish…….....	*241*
M.Sherquziyev Sun’iy intellekt asosida sanoat korxonalarining investitsiya xavfsizligini baholash modeli…….....	*243*
X.Asatullayev, A.Agzamxojaev The triple revolution: ai, green energy, and the digital economy…….....	*247*
U.Yakubov	*249*

Raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt sharoitida biznes subyektining tashqi savdo faoliyatini tizimli tahlil qilish metodologiyasi…….....	
С.Касимов, Ж.Эргашов Цифровое управление городом и качество государственных услуг…….....	*251*
С.Ахмедова Роль зеленой экономики в мировой экономике в настоящее время….....	*253*
М.Абдужаппарова, А.Мурадова, Ж.Шарипова Применение идеи «умного города» в цифровой экономике.....	*258*
E.Shodiev Advancing green accounting methodology through artificial intelligence and digital economy integration.....	*261*
K.Maxkamboyev Zamonaviy yashil iqtisodiyot sharoitida auditorlik tekshiruvlarining roli.....	*263*
M.Karimova Turizm korxonalarida biznes jarayonlari boshqaruvini samarali tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari.....	*266*
N.Maxmudova, B.Yusufiy Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida madaniy turizmni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari.....	*270*
M.Sayfullayeva Turistik xizmatlar sifatini boshqarishda raqamli texnologiyalarning roli va istiqbollar.....	*272*
D.Nishonov Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari.....	*274*
Sh.Sunatullayeva The impact of investment attractiveness on green economy development in strengthening regional financial stability.....	*278*
D.Norbekov Tijorat banklarida ekologik va ijtimoiy ma’suliyat bilan bog‘liq risklar auditi.....	*281*
Л.Ядгарова Использование искусственного интеллекта в образовании: возможности, примеры и перспективы.....	*284*
S.Abdulxalilova Yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish zaruriyati.....	*285*
Sh.Davirova, S.Nasirullayeva Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda malaka nomuvofiqligi va yoshlar ishsizligi: O‘zbekiston misolida osiyo davlatlari bilan qiyosiy tahlil.....	*288*
N.Fayziyeva Sun’iy intellektdan davlat boshqaruvida samarali foydalanish zaruriyati.....	*291*

M.Abduraxmanova Raqamli iqtisodiyot integratsiyasi sharoitida temir yo‘l transport tizimini modernizatsiya qilishning xalqaro tajribasi.....	*293*
G.Narbekova International practice of disclosing environmental and social risks in audit reports.....	*296*
S.Kasimov, M.Kamolidinov Artificial intelligence-based smart city model for the integration of green and digital economies.....	*298*
Г.Алимова, К.Бурханова Развитие онлайн-кредитования: опыт сша и перспективы для Узбекистана.....	*300*
U.Arabov Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy faoliyatni raqamli baholash.....	*302*
G.Hakimova, Sh.Xasanboyev Artificial intelligence, green and digital economy ideas.....	*306*
B.Avazov Sun’iy intellekt asosida chorvachilik mahsulotlarini oshirishdagi ta’sirini statistik baholash.....	*307*
G.Ochilova Sun’iy intellektning raqamli transformatsiya va inson hayotidagi o‘rni.....	*309*
A.Norkobilov Green trade restrictions and comparative advantage: a theoretical reading of the “carbon price”	*313*
G.Abdumannobova Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida soliq siyosatining barqaror rivojlanishdagi ahamiyati.....	*316*
Sh.Sultanov*, A.*Aminjonov AI va big data tahlili asosida xalqaro savdo logistikasini optimallashtirish: “yashil yo‘lak” tamoyillarini tatbiq etish.....	*318*
D.Orifjonova Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida sanoat korxonalarida energiya samaradorligini boshqarishning iqtisodiy modellari.....	*320*
G.Hakimova, Sh.Xasanboyev Smart cities, green cities: how artificial intelligence is promoting sustainable urban development.....	*323*
N.Maxmudova, N.Karimova Turizm xizmatlarini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi: O‘zbekiston tajribasi.....	*325*
A.Mexmonaliyev The impact of financing tools on the development of a green economy.....	*328*
J.Mansurov	*331*

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida xodimlarning masofaviy bandligini ta’minlash.....	
S.Azimov Smart governance systems in urban management: global experience and the case of Tashkent.....	*334*
A.Shavkatov Sun’iy intellekt yordamida raqamli iqtisodiyotda yangi biznes modellarini yaratish.....	*337*
T.Shomurodov Raqamli texnologiyalar ta’sirida aholi daromadlarining differensiallashuvi: tendensiyalar va baholash yondashuvlari.....	*339*
M.Muxamedjanova Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish.....	*343*
B.Raxmonov Zamonaviy iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sirini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	*346*
X.Abduraxmanov Open data platforms and economic transparency: lessons from oecd countries for Uzbekistan.....	*348*
N.Axrorova Sun’iy intellekt texnologiyalarini turizm xizmatlarini shaxsiylashtirishda qo‘llash imkoniyatlari.....	*351*
G.Kuziyeva, M.Mahsutaliyev Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi.....	*354*
D.Ne’matova O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari.....	*358*
Д.Нормўминова Дебиторлик қарзлари таҳлилини такомиллаштириш.....	*360*
A.Abdulxalilov Sun’iy intellektning bank amaliyotidagi ahamiyati.....	*362*
B.Baxronova The role of higher education in procurement capacity building……..	*364*
M.Kurbanbaeva Mood book: a digital platform to increase interest in reading.....	*367*
Ш.Хамдамов, СДадаханов Направления формирования эффективной экономической политики в контексте искусственного интеллекта и цифровой экономики.....	*369*
N.Sayidova, Y.Yue	*372*

Environmental problems of food delivery platforms and an optimization system from the perspective of the green digital economy.....	
Sh.Omonova Fiskal siyosatni raqamlashtirish jarayonlarining evolyutsiyasi.....	*374*
N.Abdusalomova, A.Samiyev Raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarining milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashdagi roli.....	*377*
U.Paxriddinov Migratsiya va mehnat resurslarini boshqarish: yangi o‘zbekiston-2030 strategiyasi doirasida iqtisodiy va institutsional transformatsiyalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	*378*
U.Arabov Raqamli iqtisodiyot sharoitida otmlarda orcid qamrovi va xalqaro ilmiy integratsiya muammolari.....	*380*
А.Мирзарахимова Идеи цифровой экономики как фактор трансформации современной экономической системы.....	*383*
Х.Давлетова Трансформация современной экономики: влияние искусственного интеллекта, цифровизации и устойчивого развития.....	*386*
Х.Ахмедов Рақамли иқтисодиётни миллий иқтисодиётнинг институционал тузилмасига таъсири.....	*388*
G.Ochilova Sun’iy intellekt va iqtisodiyot: “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishda startap-innovatsion g‘oyalar va ularning ahamiyati.....	393
К.Нурхонов Ўзбекистонни яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва истиқболлари.....	*396*
Р.Одинаев Яшил иқтисодиётда ижтимоий соҳадаги таҳдитлар ва унинг давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига таъсири.....	*401*
Sh.Davirova, S.Nasirullayeva Economic impact of water scarcity in central asia under climate change scenarios.....	*404*
Ш.Ризакулов Цифровая трансформация системы государственных закупок: от традиционных тендеров к электронным платформам.....	*408*
B.Kurbonov Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida transfert narxlarni shakllantirishda soliq nazorati.....	*412*
Sh.Sirojetdinov	*414*

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning yashil iqtisodiyotga ta’siri.....	
Sh.Sirojetdinov Mol-mulk va yer soliqlarining yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi roli.....	*415*
Sh.Sirojetdinov, M.Sodiqova Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer va mol-mulk soliqlarining yashil iqtisodiyotni ta’minlashdagi hissasi.....	*417*
M.Yaxshiyeva Monetar siyosatining strategik va taktik maqsadlari.....	*418*
Y.Axmedova The future of the “green economy” in Uzbekistan: opportunities, reforms and new ideas.....	*421*
Z.Ne’matova Global iqtisodiyotda raqamlashtirish va uning mehnat bozoriga ta`siri.....	*423*
Sh.Sherkulov, S.Qo‘chqorboyev Iqlim o‘zgarishlarining qishloq xojaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga tasiri.....	*426*
G.Ochilova Sun’iy intellekt va iqtisodiyot: “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishda startap-innovatsion g‘oyalar va ularning ahamiyati.....	*428*
Z.Ulashova Raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari.....	*433*
R.Uraqova Artificial intelligence–driven digitalization of healthcare and its role in achieving SDG 3 in Uzbekistan.....	*438*
D.Yuldashev Artificial intelligence integration in smart infrastructure development: evidence from Uzbekistan.....	*441*
Ф.Юлдашев Яшил иқтисодиёт ғояларининг келиб чиқиш сабаблари ва амалиётга татбиқ этишдаги мавжуд муаммолар.....	*443*
М.Абдуллаева, З.Есемуратова Теоретические основы зелёной экономики в Узбекистане.....	*446*
O.G‘iyosov Raqamli pullarning evolyutsiyasi, ularning jamiyatga ta’siri va iqtisodiy jarayonlardagi o‘rnining nazariy jihatlari.....	*449*
N.G‘iyosova Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli pulning pul-kredit siyosatiga ta`sirining nazariy jixatlari tahlil.....	*451*
D.Mo‘minova	*453*

Barqaror rivojlanishda sun’iy intellektning iqtisodiyotda roli va axamiyati.....	
U.Baxodirova Artificial intelligence and digitalization in forecasting capital market development in Uzbekistan.....	*456*
Kh.Shodmonov Features of developing mathematical competencies of students of higher education institutions based on artificial intelligence.....	*458*
M.Тохиржонов Artificial intelligence and digitalization in strengthening financial stability in Uzbekistan.....	*463*
B.Isroilov, O.Xasanov Yashil iqtisodiyot va ekologik muvozanatni ta’minlashning nazariy masalalari.....	*465*
С.Анваровна, М.Ахмедов Классификация рисков, влияющих на прибыль предприятия, и факторы, влияющие на их уровень.....	*471*
F.G‘ulamova Raqamli iqtisodiyot sharoitida bozor muvozanati va samaradorlik masalalari.....	*475*
I.Imomov Green university financing: strategic approaches to sustainable campus development.....	*476*
И.Умрзакова Эволюция экономических идей в условиях глобальной трансформации и цифровизации экономики.....	*481*
Ш.Исманалиев Интегрированная система мониторинга отходов на основе iot и искусственного интеллекта в городе Ташкент.....	*483*
G.Kuziyeva Raqamli transformatsiya jarayonida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning roli.....	*486*
N.Axmedova Oziq-ovqat ishlab chiqarishda raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish.....	*488*
A.Xotamov, B.Botirjonova O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish mexanizmlari: institutsional sharoitlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari.....	*494*
X.Misirov Xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini zamonaviy dasturlar orqali yuritish va tashkil etish.....	*498*
I.Oripov	*501*

Digital transformation of Uzbekistan’s insurance market and the role of insurance in the development of a "green" economy: determinants, barriers and strategic development paths.....	
И.Орипов Цифровая трансформация страхового рынка узбекистана как драйвер зелёного развития.....	*509*
I.Oripov Digital transformation of Uzbekistan’s insurance market as a driver of green development.....	*512*
Х.Шодмонов Пробуждение интереса студентов к математике с помощью искусственного интеллекта в системе высшего образования.....	*515*
S.Saydimuhammadov AI-based tax compliance monitoring systems in Uzbekistan.....	*519*
L.Jo‘rayev Axborot texnologiyalari va pochta xizmatlari integratsiyasi: imkoniyatlar va to‘siqlar.....	*520*
М.Сулаймонова Цифровые технологии в управлении налоговыми рисками: опыт сингапура и возможности для Узбекистана.....	*524*
Б.Собиталиев Климатический риск и финансовая стабильность: роль зелёных кредитов.....	*527*
Sh.Sultanov, D.Abdumutaliyev Oliy ta’lim muassasalarida “yashil universitet” (green campus) konsepsiyasini raqamli boshqarish tajribasi……...	*529*
Sh.Sultanov, R.Abduraxmon Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini “yashil” logistika orqali optimallashtirish…….	*531*
I.Gofurjanov Katta hajmdagi ma’lumotlar (big data) asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini prognozlash uchun gibrid neyron tarmoqlari arxitekturasini ishlab chiqish……..	*533*
Sh.Sultanov Globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining tif boshqaruvida “AI–green–digital” (sun’iy intellekt – yashil – raqamli) uchligini integratsiyalash mexanizmlari……..	*536*
А.Аймуратов Роль цифровых транспортных систем в снижении городских заторов……..	*538*
G.Absalamova, M.Adxamjonova O‘zbek tilidagi matnlarda sentiment tahlil uchun ma’lumotlar to‘plamini	*539*

M.Hamroyeva Raqamli iqtisodiyotda sun’iy intelektning o’rni…….	542
N.Rasulova Integrating artificial intelligence and digital economy principles in developing green tourism models……...	*547*
S.Karimova Barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya jarayonlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilish…….....	*549*
N.Sayidova, U.Barnoyeva Sun’iy intellekt texnologiyalarining raqamli va yashil iqtisodiyot rivojlanishidagi strategik ahamiyati……...	555
M.Erxanova, A.Yoqubov Integrating modern technologies into procurement education……	*557*
S.Xolikov Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirish yo‘llari……..	*560*
S.To‘xtayev Sun’iy intellekt: tasnifi, imkoniyatlari va qo‘llanilish sohalari…….....	*563*
R.Kalandarov, S.Mirzayeva The role ofartificial intelligence in shapingagreenanddigitaleconomy: challenges and opportunities….....	*566*
Z.Ulashova Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish yo’nalishlari.....	*568*
M.Jumaniyozova Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida onlayn bank xizmatlari samaradorligini oshirish.....	573
Tursunov O.P Raqamli transformatsiya jarayonida inflyatsiya, bandlik va iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash masalalari	576
Xolmatov A. A. O‘zbekiston banklari faoliyatida likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash hamda optimallashtirish yo‘llari	581
Valiyev D.B. Bank xizmatlari iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish …….	585
Qarshiyev N.O. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun kontrtsiklik fiskal javob qoidasini ishlab chiqish	589

Султанов Д.Ш. Ер қаъридан фойдаланишни солиққа тортишда роялти ва махсус рента солиғининг уйғунлиги.....	592
Qarshiyev N.O. Davlat xarajatlarining iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligini sikl fazalari kesimida ekonometrik baholash	596
Qo‘ldoshev I.Sh. Jahon savdosining geoiqtisodiy fragmentatsiyasi va o‘zbekiston tashqi savdosini diversifikatsiya qilish yo‘nalishlari	600
Jumatova G.M. Applicability of multi-factor asset pricing models for estimating the cost of equity of joint-stock companies in a frontier market: evidence from Uzbekistan.	607
G‘aybullaev U.H. O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar ulushi o‘zgarishining omilli dekompozitsiyasi va risklar konsentratsiyasi	617
Xujamuratov A.M. Zamonaviy bank mahsulotlarini joriy etishning xorijiy tajribasi va uning O‘zbekiston tijorat banklari amaliyoti uchun ahamiyati	621
Murodov O.J. Paxta tozalash korxonalarida mahsulot sotish shartnomalarini narx indeksatsiyasi asosida takomillashtirish va operatsion marjani himoyalash	624

“IQTISODIYOT NAZARIYASIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI: ILMIY QARASHLAR VA USTUVOR TAMOYILLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO‘PLAMI

2- qism

2026-yil 7-may
Toshkent-“Iqtisod-moliya” nashriyoti, TDIU-2026

Muharrir: M.Ikromov
Badiiy muharrir: K.Boyxo‘jayev
Kompyuter sahifalovchi: K.Boyxo‘jayev

№ 9665-5762-53ec-e93a-9961-0626-4468

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026. Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog‘i 19,0. Nashr bosma tabog‘I 19,75.
Adadi 100. Buyurtma № 51

Bosmaxona guvohnomasi № 10-0635
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rizografiya usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy.